O’zbekiston Respyblikasi Oliy va O’rta Maxsus
Ta’lim Vazirligi

Andijon Mashinasozlik Instituti

«Mashinasozlik texnologiyasi» fakulteti

«Ijtimoiy fanlar» kafedrasi

# «Sotsiologiya» fanidan amaliy mashg’ulotlarni o’tkazish bo’yicha

# U S L U B I Y   Q O` L L A N M A

| | |
|---|---|
| 110000 | Pedagogika |
| 230000 | Iqtisod |
| 310000 | Muhandislik ishi |
| 320000 | Ishlab chiqarish texnologiyalari ta’lim sohalaridagi yo’nalishlar talabalari uchun |

A n d i j o n – 2017 yil

«TASDIQLAYMAN»

Andijon Mashinasozlik Instituti
O’quv-uslubiy kengashida muhokama
qilingan va ma’qullangan.
Kengash raisi __________Q. Ermatov.
Bayonnoma №___ «____»____________2017 yil.

«MA’QULLANGAN»

«Mashinasozlik texnologiyasi» fakulteti Uslubiy
kengashida muhokama qilingan va ma’qullangan.
Kengash raisi____________M-A. Eshonov.
Bayonnoma №___ «____»____________2017 yil.

«TAVSIYA ETILGAN»

«Ijtimoiy fanlar» kafedrasi majlisida muhokama
qilingan va tavsiya etilgan.
Kafedra mudiri ___________ G. Bazarova
(kafedra majlisining ___ - sonli bayonnomasi
«___»__________2017 yil).

Taqrizchilar: 1. Andijon Mashinasozlik instituti «Ijtimoiy fanlar» kafedrasi mudiri dotsent G.Bazarova;

2. Andijon Qishloq xo`jalik instituti dotsenti Q.M.Nasritdinov

Tuzuvchilar: Katta o’qituvchi I.Ermatov,

Katta o’qituvchi A.Satvaldiyev.

# Kirish

Sotsiologiya gumanitar fanlar doirasidagi shunday yo’nalishki, u butun jamiyat va uning ijtimoiy tizimini tashkil etadigan tarkibiy qismlarining rivojlanish va mavjud bo’lish qonuniyatlarini, turli sotsial jarayonlar o’rtasidagi o’zaro aloqalar va kishilarning sotsial xulq-atvori qonuniyatlarini o’rganadi.

Sotsiologiya fani jamiyatda ro’y berayotgan yirik ijtimoiy-siyosiy voqealarni shunchaki qayd etish bilangina cheklanmaydi, balki uning asl mohiyati va mazmunini atroflicha ochib beradi. Bu fan o’zining ilmiy xulosalarini empirik darajada asoslangan holatda ilgari suradi.

Sotsiologiya fan sifatida hozirgi ijtimoiy jarayonlar holatiga to’laqonli javob berish bilangina cheklanmasdan, balki ularning istiqboldagi o’zgarish darajasi hussusida bashorat qiladi. Ana shu jihatdan sotsiologiya fani nazariyasi, amaliyoti va tadqiqot usullarini atroflicha o’rganib chiqish zarurati tug’iladi.

Fanning asosiy mohiyati sotsiologiya rivojlanishining nazariy- uslubiy asoslari, fanning predmeti va ob’ekti, institutlashgan shakllari, ijtimoiy fikrning tarixiy rivojlanishi, fanlar tizimida sotsiologiyaning o’rni, sotsiologiyani tushunishdagi ilmiy nazariyalar, uning tushunchalar tizimini ko’rib chiqishda namoyon bo’ladi.

Fanning nazariy asoslari dolzarb ijtimoiy jarayonlar, sotsial struktura va sotsial tizimlarning mavjud bo’lishi va rivojlanish muammolari, jamiyat sotsial-madaniy tizim sifatida, shaxs ijtimoiy munosabatlarning ob’ekti va sub’ekti sifatida, sotsial munosabatlar, ijtimoiy jamoalar, sotsial aloqalar, sotsial tashkilotlar, guruhlar, sotsial institutlar va institutlashgan munosabatlar, jamiyatdagi ijtimoiy o’zgarishlarni batafsil bayon qilish bilan mos keladi. Bunda asosiy e’tibor amaliy faoliyatda sotsiologik bilim va usullardan foydalanish imkoniyatlarini ishlab chiqishga, O’zbekiston va jahondagi sotsial muammolarga nisbatan qiziqishning oshganligiga qaratiladi.

Sotsiologiya fani qo’lga kiritgan va munozarali sotsiologik masalalar yuzasidan keyingi yillarda monografiya, dissertatsiya, ilmiy maqolalar, darslik va o’quv qo’llanmalarda bildirilayotgan fikrlar, O’zbekistonda sotsiologiya ta’lim tizimini rivojlantirish yo’lida qilinayotgan harakatlar hamda bir necha yillardan buyon bu fanni oliy ta’lim tizimida o’qitish tajribasini hisobga olgan holda tuzildi.

Ushbu uslubiy qollanma bakalavriat ta’lim yo’nalishlarining o’quv rejasi hamda fan bo’yicha o’quv dasturi asosida «Sotsiologiya» fanidan amaliy mashg’ulotlar o’tkazish uchun mo’ljallangan.

Mazkur uslubiy qollanmani tayyorlashdan maqsad, talabalar o’quv jarayonida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash, o’zlashtirilgan tushunchalarni yanada rivojlantirishdir.

Xar bir mavzu bo’yicha mashg’ulotlarda muhokama qilinishi lozim bo’lgan ilmiy kategoriyalar, masalalar va sxemalar berilgan. Adabiyotlar ro’yxati mazkur mavzularning nazariy va amaliy tomonlari bilan yaqindan tanishtirishga mo’ljallangan.

Ushbu uslubiy qollanmani tuzishda talabalarning «Sotsiologiya» fanidan tayanch iboralar va kategoriyalarni o’rganishga va amaliy masalalarni mustaqil yechishga intilishlarini faollashtirish bilan bog’liq pedagogik texnologiyalar xususiyatlari ham inobatga olingan.

Uslubiy qollanma 9 ta mavzudan iborat bo’lib, ular ushbu fan bo’yicha amal qilayotgan namunaviy o’quv dastur asosida ishlab chiqilgan.

I Mavzu: Sotsiologiya fan sifatida

Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, goyaviy-nazariy shart-sharoitlar. O.Kont-pozitiv sotsiologiyaning asoschisi, uning sotsiologiyani mustaqil fan sifatida yaratishdagi dastlabki rejalari. Antik davrning qomusiy olimlari va SHarq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy tahlimotlari (Platon, Aristotel, Farobiy, Ibn Haldun va boshqalar) zamonaviy sotsiologiyaning muhim manbalari sifatida. Garb sotsiologiyasi klassiklarining ishlarida sotsiologiyaning obhekti va predmeti muammosi. Sotsiologiyaning turli yo’nalishlarida fanning obhekti va predmeti muammosini yechish yo’lidagi goyaviy-nazariy izlanishlar.

Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan munosabati. Sotsiologiya va falsafa. Sotsiologiya va tarix. Sotsiologiya va psihologiya, demografiya, genetika, sotsial geografiya. Sotsiologiya va tabiiy hamda aniq fanlar. Sotsiologiyaning fanlar tizimidagi tutgan o’ziga xos o’rni.

Sotsiologiya fani bugungi kunda muhim va tezkor rivojlanish bosqichida turibdi. Mazkur fanning turli muammolari faylasuflar, tarixchilar, pedagoglar, iqtisodchilar va keng jamoatchilik tomonidan atroflicha o’rganila boshladi. Bunday qiziqish mustaqillikni mustahkamlashning hozirgi bosqichida turli ijtimoiy siyosiy masalalarni yangicha baholash yuzasidan sotsiologiya fani imkoniyatlariga bo’lgan ijtimoiy ehtiyojlarning keskin ortishi bilan izohlanadi.

Kishilik jamiyati qanday qonunlar asosida rivojlanadi, kishilar ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini o’rganib, ularni o’z foydalariga ishlatishlari mumkinmi va shunga o’xshash ko’pgina masalalar uzoq davrlardan beri inson tafakkurini o’ziga jalb qilib kelganligi, bunday savollarga to’g’ri va aniq javob beradigan fanning paydo bo’lishi tarixiy zaruriyat ekanligi, ilmning tizimlashtirilgan bu sohasi XIX asrning o’rtalariga kelib yaratilganligi haqida ma’lumot beradi.

“Sotsiologiya” so’zi lotincha "sotsiotas» (jamiyat) va grekcha “logos“ (ta’limot, tushuncha) so’zlaridan olingan bo’lib, jamiyatning paydo bo’lishi, amal qilishi, taraqqiyot hamda sotsial munosabatlar va sotsial birliklar haqidagi fan sifatida ta’riflanadi.

“Sotsiologiya” termini birinchi marta XIX asr o’rtalarida yashagan Frantsuz olimi Ogyust Kont (1798-1857) tomonidan kiritilgan bo’lib, dastlab jamiyatshunoslik ma’nosida ishlatilgan. O.Kont falsafasi ilmda “pozitivizm” nomini olgan, pozitivizm yo’nalishi, ayrim fanlar chiqargan umumiy hodisalarning oddiy yig’indisiga asoslanadi. Bu printsipni O.Kont sotsiologiya faniga ham tatbiq qiladi.

Har qanday fan singari sotsiologiya fani ham o’zini izlanish ob’ekti va o’rganish predmetiga egadir. Sotsiologiya fanining ob’ekti bu – jamiyatdir. Predmet-

bu o’rganilishi kerak bo’lgan muammo (insonlar o’rtasidagi aloqa va munosabatlar) ekanligiga to’xtaladi.

Sotsiologiya XIX asrning birinchi yarmida alohida fan sifatida shakllangunga qadar, falsafa fani ichida rivojlangan.

Sotsiologiya jamiyat hayotining turli jabhalarini tadqiq etish jarayonida, falsafa fani doirasida ishlab chiqilgan ilmiy bilishning asosiy shakl va usullaridan keng foydalanadi.

Sotsiologiya fani iqtisodiyot fani bilan aloqada bo’ladi. Ma’lumki iqtisodiyot fani ishlab chiqarish munosabatlarining shakl va qonuniyatlarini o’rganadi. Ishlab chiqarish shakllari esa ijtimoiy munosabatlarning asosini tashkil etadi.

SHunday ekan, iqtisodiy izlanishlarning sotsiologiya fani bilan bog’liq bo’lishi tabiiy holdir. CHunki sotsiologiya fani mehnat jarayonlarini o’ziga xos tomonlarini, ishlab chiqarish jamoalarini, kishilarni samarali mehnatga qiziqish mayllarni o’rganar ekan, shubhasiz iqtisodiyot nazariyasini boyitadi.

Ijtimoiy jarayonlarni xronologik ketma-ketlikda o’rganar ekan, tarix fani o’tmishga nazar soladi. Sotsiologiya o’tmishning va bugungi kunning o’zaro aloqalarini o’rganib ijtimoiy tarixiy hodisalar rivojlanishining bog’liqligini ko’rsatadi.

Ya’ni jamiyatning bugungi kundagi muammolarini samarali hal qilish uchun, ularning kelib chiqish sabablarini chuqur o’rganish kerak bo’ladi. Buning uchun sotsiologlar, albatta o’tmishga murojat qiladilar.

Sotsiologiya fani umumiy va psihologiya fanlari bilan ham yaqin hamkorlikda bo’lishni taqozo qiladi.

Zero, u yoki bu jamoadagi mehnat unumdorligini o’rganishni maqsad qilib sotsiologik tadqiqot o’tkazilayotganda mazkur jamoa tarkibidagi individlarning hatti-harakatlari motivlarini aniqlash, ularni temperamentlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy xulosa qilishda, odamlar bilan jamoada muomala qilishni tashkil yetish va ijtimoiy xuquqni boshqarishda, albatta ijtimoiy psihologiya qonuniyatlarini chetlab o’tish mumkin emas.

Sotsiologiya faniga statistika fani ayniqsa yaqin aloqada rivojlanadi. Har bir sotsiolog muayyan mavzuda sotsiologik tadqiqot o’tkazishni maqsad qilib qo’yar ekan u albatta shu sohadagi predmetning konkret holatini, real voqelik manzarasini statistik manbalardangina topa oladi. Keng ko’lamdagi konkret sotsiologik tadqiqotlarning sotsiolog tomonidan statistik idoralar xodimlari bilan hamkorlikda o’tkazilishi ijobiy samaralar berishi shubhasizdir.

So’nggi yillarda sotsiologiya fanida aniq sotsiologik tadqiqotlar amaliy natijalarining hayotga faolroq va ko’proq tatbiq etila borishi uning ahloq, estetik, tibbiyot va pedagogika, rejalashtirish nazariyasi va boshqaruv, huquqshunoslik,

ruhiyatshunoslik singari fanlar bilan aloqasini yanada mustamlamoqda. Sotsiologiya fani ushbu fanlar natijasiga suyanadi. Tadqiqot o'tkazish jarayonlarida esa statik ma'lumotlardan, matematik modellashtirish usullaridan va metodlaridan foydalaniladi.

Sotsiologiya fanining boshqa fanlar bilan yaqin aloqada ekanligi uni yangi tarmoqlari "Boshqaruv sotsiologiyasi", "Oila sotsiologiyasi", "Jinoyatchilik sotsiologiyasi", "Sotsial ekologiya" va xokazalarning jadal rivojlanish misolida ham ko'rish mumkin.

Cotsiologiya-jamiyatning muayyan tarixiy tiplarini rivojlanish qonunlari va bu qonunlarning insonlar, sotsial guruhlar, sinflar xalqlarning faoliyatida namoyon bo'lish va amal qilish mexanizmlari haqidagi fan ekanligiga e'tibor qaratiladi. Sotsiologiya fani umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazardan o'rganish pirovard natijada amaliy -maqsadga erishish, ya'ni totalitar targ'ibotlari tizimini inkor etish va xalqchilik, adolat hamda keng jamoatchilik fikr-o'yi, intilish maqsadlari asosida ijtimoiy faoliyat yuritish imkonini beradi. Sotsiologiya fani jamiyatimizda ro'y berayotgan yirik ijtimoiy siyosiy voqealarni shunchaki qayd etish bilan cheklanmaydi, balki uning asl mohiyatini va mazmunini atroflicha ochib beradi. SHu jihatdan sotsiologiya fani ijtimoiy fanlar orasida o'zining zimmasidagi masalalarga beradigan ilmiy javoblari atroflicha asoslangan, qayta-qayta topshirilayotgani bilan ham qimmatlidir. Bu fan faqat hozirgi ijtimoiy holatlar ahvoliga to'laqonli javob berishi bilangina cheklanmasdan, ijtimoiy holatlarning istiqboli o'zgarish darajasi xususida bashorat qiladi. Ana shu jihatdan sotsiologiya fani tadqiqot usullarini atroflicha o'rganib chiqish zarurati tug'iladi.

Sotsiologiya fanini o'rganishga kirishgan har bir kishi bu fanning o'ziga xos kategoriyalari va atamalari, rivojlanish yo'nalishlari, bugungi ahvoli va istiqboli xususida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Sotsiologiya fanini mukammal o'rgangan kishi ijtimoiy jarayon va ijtimoiy jamoalar mohiyatini, ularda yuz berayotgan zoxiriy va botiniy o'zgarishlarni, shuningdek ijtimoiy taraqqiyot qonunlari mohiyatini chuqurroq tushunadi, ilmiy amaliyotga nazariy metodologik jihatdan qurollangan holda kirisha oladi, keng jamoatchilik fikrini shakllantirish va istiqlol yo'liga to'la safarbar etish amaliyoti sirlaridan voqif bo'ladi.

## Asosiy tayanch tushunchalar:

Sotsiologiya – jamiyatning tarkibi va uni tashkil qiluvchi elementlar (unsurlar), ularning amal qilish shart-sharoitlari hamda bu tarkibda sodir bo'ladigan sotsial jarayonlarni o'rganuvchi fan.

Makrosotsiologiya – sotsial bilimlar sohasi bo’lib, sotsial tarkibning yirik elementlari, ularning holati va o’zaro aloqadorligini o’rganadi.

Mikrosotsiologiya – sotsial bilimlar sohasi bo’lib, shaxslar o’rtasidagi, guruhlar ichidagi va kishilar orasidagi kundalik o’zaro xatti-harakatlarni o’rganadi.

Makrodaraja – sotsiologiyada katta sotsial guruhlar va xalqlarni qamrab oluvchi sotsial hodisalar va jarayonlarni aniqlash; aholining ko’chib yurishi, turli sotsial institutlarning inqirozi, jamiyatning bir ko’rinishdan boshqasiga o’tish tendentsiyasini ko’rsatish holati.

Sotsial qonun – sotsial ob’ektlar o’rtasidagi nisbatan barqaror va muntazam yangilanib turuvchi munosabatlar. Hodisa va jarayonlar orasidagi muhim va zaruriy bog’lanish. Sotsial qonunlar umumsotsiologik va maxsus sotsiologik qonunlarga bo’linadi.

Sotsial nazorat – jamiyatdagi me’yor va qadriyatlar yig’indisi, shuningdek, ularni amalga oshirish uchun qo’llaniladigan turli sanktsiyalar. Masalan, deviant xulq-atvorning oldini olishga, jazolashga yoki tuzatishga qaratilgan sanktsiyalar.

Sotsial fakt (dalil) – jamiyatning u yoki bu sohasiga xos bo’lgan alohida ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi voqea hamda bir xil ko’rinishli voqealar yig’indisi.

Tarmoq sotsiologiyasi – sotsiologik bilimning muhim sohasi bo’lib, ijtimoiy hayotning alohida yoki tor sohalaridagi sotsial hodisalar va jarayonlarni o’rganadi. Umumiy sotsiologiyadan farqli o’laroq, tarmoq sotsiologiyasining ob’ekti sifatida sotsial voqelikdagi  aniq bir soha qamrab olinadi. Masalan, iqtisod sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi va boshqa shu kabilar.

Sotsial institutlar – nisbatan yuqori darajada tashkil etilgan sotsial va siyosiy tizimli uyushmalar bo’lib, bir-biridan tarkibining barqarorligi, o’z elementlarining integratsiyalashganligi hamda vazifalarining xilma-xilligi, o’zgaruvchanligi va egiluvchanligi bilan farqlanadi.

## Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1. Sotsiologiya fani nimani o’rganadi?
2. Sotsiologiya qanday tarkibiy tuzilishga ega?
3. Sotsiologiya fanini qaysi fanlar bilan bog’lab o’rganish mumkin?
4. Sotsiologiyaning ijtimoiy vazifalari nimalardan iborat ?
5. Fan haqidagi tassavuringiz?

## 1-amaliy mashg’ulot

1.Bo’sh joyga qaysi fanni qo’yish o’rinli?




2.Sotsiologiya predmeti bo'yicha yondashuvlarni tegishli kategoriyalarga moslang:

| Yondashuvlar | Sub'ektiv | Ob'ektiv | Pozitiv | Umumlashtiruvchi |
|---|---|---|---|---|
| | ↕ | ↕ | ↕ | ↕ |
| Kategoriyalar | Ijtimoiy rivojlanish qonunlari | Ijtimoiy harakat | Ijtimoiy aloqalar | Ijtimoiy faktlar |

3. Hikmatli iboralar egalarini to'g'ri joylashtiring:

| | |
|---|---|
| Konfutsiy | Dunyodagi barcha boyliklar muvaqqatdir, o'tkinchidir, sarflansa tugab bitadi, faqat bilim boyligigina qancha sarf etilsa, shuncha ko'payaveradi |
| Yusuf Xos Hojib | Davlat – bu xalqning ishi, to'g'rirog'i, fuqarolarning mulki |
| TSitseron | Donishmadlarga ishonib, ularga ergashuvchi odamlar o'sha narsalarni donishmandlar bilganday bilib oladilar. Zero, donishmandlarning bilimlari, eng yaxshi bilimlardir |
| V i k o | Bilimlar kishiga nafaqat ma'lumotli bo'lish uchun, balki to'g'ri ish tutish, oqilona harakatlar qilish uchun ham kerakdir |
| Abu Nasr Farobiy | Har bir odam mustaqil ong, tafakkurga ega va mustaqil harakat qiladi, o'zining hulqi, kasbi, turmush tarzini erkin tanlaydi; bu erkinlik faqat ilohiy qudrat bilan cheklangandir |

4.To'g'ri kategoriyani belgilang:

| | | |
|---|---|---|
| Barcha ijtimoiy fanlar | jamiyat munosabatlarini<br>insonlar xulq-atvorini<br>guruhlar aloqalarini<br>ijtimoiy-madaniy masalalarni<br>o'tmish-hozirgi kun va istiqbol muammolarini | o'rganadi |

# II Mavzu: Sotsiologiya strukturasi

Fanda struktura tushunchasi va uning ahamiyati. Sotsiologiyaning strukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari. Sotsiologiya strukturasi elementlarining rivojlanish dinamikasi. Fundamental (asosiy) sotsiologiya. Jamiyat hayotining fundamental muammolarini sotsiologik tahlili. Nazariy va amaliy sotsiologiya: ularning umumiyligi va farqi. Sotsiologiya tarixida universal nazariyalarni ishlab chiqishga bo'lgan intilishlar. Empirik sotsiologiyaning bunyod bo'lishi va uni sotsiologiya nazariyasi rivojiga tahsiri. Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar. Makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya.

Umumsotsiologik nazariyalarda, u yoki bu ijtimoiy hodisalarning kelib chiqishi, amal qilishining chuqur sabablari aniqlanadi va jamiyatni rivojlantiruvchi kuchlar nimalardan iborat ekanligi ko'rsatiladi.

Maxsus sotsiologik nazariyalar esa ijtimoiy hayotning alohida bir sohasini, ijtimoiy guruh yoki ijtimoiy institut muammolarini o'rganadi. Masalan: iqtisod sotsiologiyasi, shahar va qishloq sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi, ta'lim sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi, yoshlar sotsiologiyasi, bo'sh vaqt sotsiologiyasi va xokazo.

Empirik sotsiologik tadqiqotlar asosan anketalashtirish, og'zaki so'rov, kuzatish va boshqa ko'rinishlarda amalga oshiriladi.

Umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalar sotsiologiyaning nazariy qismini, empirik tadqiqotlar esa amaliy qismini tashkil etadi.

Ular o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lib, yagona sotsiologiya fanini tashkil etadi. SHunday qilib, nazariy va amaliy sotsologiya bir-biridan tadqiqot ob'ekti yoki metodlari bilan emas o'z oldiga qo'ygan maqsadlar bilan farq qiladi. SHu bilan birga sotsiologlar o'z fani doirasida makro va mikrosotsiologik darajalarini ajratib ko'rsatadilar.

Mikrotadqiqotlar, o'z navbatida, keng institutsional shakllarini izohlashga ko'mak bermoqda. SHaxsiy o'zaro ta'sir miqyoslarida qat'i nazar, barcha ijtimoiy tashkilot shakllarining asosi hisoblanadi. Firma faoliyatining ko'p qismi shaxsiy o'zaro ta'sir atamalaridan bayon qilinishi mumkin. Masalan, biz kengashdagi direktorlarning, idoradagi xizmatchilarining tsexdagi ishchilarning o'zaro ta'sirini tahlil qilishimiz mumkin. Faqatgina shu ma'lumotdan foydalanib korporatsiyadagi manzarani to'laligicha ifodalash mumkin emas, chunki uning tuzilmalari o'rtasidagi aloqalar bevosita shaxsiy o'zaro ta'sir doirasidan ancha chetga chiqadi. SHunga qaramasdan kundalik o'zaro ta'sirni o'rganish mazkur tashkilot ishini tushunishga jiddiy hissa qo'shishi mumkin.

Makrosotsiologiya – bu yirik miqyosli firma, ijtimoiy tizimlar va umumiqtisodiy tartib kabi ijtimoiy tizimlarni tahlil qilishdir. Makrosotsiologiya, shuningdek uzoq muddatli o’zgarishlar jarayonlarini-aytaylik, sanoatlashtirishning rivojlanishini tahlil qilishni ham o’z ichiga oladi. Makrotahlil kundalik hayotning institutsional fonini tushunish uchun juda muhim. Odamlar o’zlarining kundalik hayotini qurish usullari keng institutsional asoslarga favqulodda bog’liq, bu narsa kunlar madaniyatiga o’xshash madaniyatni g’arbdagi zamonaviy shahar hayoti bilan solishtirib ko’rilsa ravshan bo’ladi. Hozirgi jamiyatlarda odamlar begonalar bilan doimiy muloqotga kirishadi. “Begona” so’zi o’zining eski ma’nosini yo’qotadi, u avval “chetdan kelgan”, “yot odam” ma’nosini bildirar edi. SHaharlarda yashaydigan hozirgi jamiyat odamlari har kuni minglab shaxsan tanimaydigan odamlarni uchtalaridir. Bunday vaziyatda fokuslashgan va fokuslashmagan o’zaro ta’sir kesishib o’tadi. SHaharlik odam uzluksiz tarzda o’zi avval hech uchratmagan odamlar bilan o’zaro ta’sirga kirishishni boshlashi va yakunlashi kerak.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Bixeviorizm – (ing. bexaviour – xulq-atvor) pozitivistik sotsiologiyadagi muhim yo’nalishlardan biri. Bixevioristlar sotsiologiyaning predmeti deganda kishilar xulq-atvorini tushunganlar. Bu ta’limot asoschilari inson va xayvonot olamidagi sifatiy farqlarni ajratmagan holda, sotsiologiya va psihologiyaning vazifasi ongni emas, balki kishilar xulq-atvorini o’rganishga qaratilgan, degan fikrni ilgari suradilar.

Geografik maktab – sotsiologiyadagi yo’nalishlardan biri bo’lib, uning asoschilari geografik muhitni ijtimoiy taraqqiyotning xal qiluvchi sharti va muhim omili sifatida qaraganlar. SHu bilan birga, ba’zi hollarda bu maktab g’oyalari ayrim kishilar, masalan, fashizm namoyandalari (K.Xausxoffer va xulq-atvorini xulq-atvorini boshqalar) tomonidan o’zlarining bosqinchi, agressiv geopolitik maqsadlari uchun qo’llanilgan.

Sotsial darvinizm – ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini tabiiy tanlashning biologik qonunlari bilan o’xshash deb tushunuvchi ta’limot. Bu ta’limot vakillari ijtimoiy hayot insonning biologik xususiyati (tabiati ) bilan aniqlanadi, degan fikrni ustun qo’yadilar. Sotsial-darvinizm g’oyalaridan keyinchalik liberalizm, individualizm, rasizm, fashizm kabi sotsial-siyosiy yo’nalishlarda ham foydalanilgan.

Oligarxiya – (yunoncha oligarchia – ozchilik xokimiyati ) kichik guruhdagi kishilar, asosan boylarning siyosiy xokimiyatini ta’minlovchi boshqarishning nodemokratik shakli. SHu bilan birga, oligarxiya tushunchasi ilg’or, xukmron elita ma’nosini ham anglatadi.

Organik yo’nalish – jamiyat, uning amal qilishi va rivojlanishini jonli, biologik organizmning amal qilishi va rivojlanishi bilan aynanlashtiruvchi ta’limot. Bu yo’nalish vakillari ijtimoiy hayotda sodir bo’ladigan sotsial-siyosiy voqea-hodisalarni sof biologik nuqtai-nazardan izoxlashga harakat qiladilar.

Pozitivizm – XIX asr sotsiologiyasidagi etakchi yo’nalishlardan biri. Jamiyat haqidagi mushoxadaviy qarashlardan voz kechgan holda, kuzatish va tajribaga asoslangan, fizika, ximiya, biologiya kabi tabiy fanlarga o’xshash aniq, ob’ektiv bo’lgan fanni yaratishga qaratilgan ta’limot.

Pragmatizm – ( yunoncha – ish, harakat) sotsial-siyosiy muammolar va ularni xal qilishda tez amaliy natijalar olish, afzalliklarga ega bo’lish, aniq manfaatlarni ko’zlashga qaratilgan ta’limot.

Psihologik yo’nalish – sotsiologiyadagi yo’nalish bo’lib, sotsial- siyosiy hodisa va jarayonlarni psihologik omillar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Bu yo’nalish tarafdorlari asosiy e’tiborni ijtimoiy va individual ongning sotsial-siyosiy hayotdagi o’rni va roli hamda ularning o’zaro nisbati masalasiga qaratadilar.

Simvolik interaktsionizm – (lotin.interactio – o’zaro ta’sir) sotsiologiyadagi muhim yo’nalish bo’lib, o’z e’tiborini kishilar o’rtasidagi bevosita o’zaro aloqalarga qaratadi hamda bu aloqalarni sotsial simvollarni almashish ko’rinishi sifatida baholaydi. Bu oqim tarafdorlarining fikricha, kishilar o’rtasidagi o’zaro aloqalar uzluksiz muloqot bo’lib, bu jarayonda ular bir-birlarini kuzatadilar, maqsadlarini anglab etadilar hamda tegishli munosabatda bo’ladilar.

Tarkibiy funktsionalizm – ( lotin.functio – amalga oshirish, bajarish) sotsiologiyadagi muhim yo’nalish, metodologik yondashuvlardan biri. Bu yo’nalish tarafdorlari jamiyat, undagi hodisa va jarayonlarga o’zining tarkibi, undagi tegishli o’ziga xos vazifalarni bajaruvchi elementlarning o’zaro aloqa mexanizmiga ega bo’lgan sotsial tizimlar sifatida qaraydilar.

## Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1. Umumsotsiologik nazariyalarga nimalar kiradi?
2. Maxsus sotsiologik nazariyalarga nimalar kiradi?
3. Mikrosotsiologiyani tushuntiring.
4. Makrosotsiologiyani tushuntiring.

## 2-amaliy mashg'ulot

1.Jamiyat tizimning eng muhim elementlarini aks ettiring.




2.Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar tarixiy rivojiga doir quyidagi jadvalni to'ldiring:

| An'anaviy | Industrial | Zamonaviy |
|---|---|---|
| Iqtisodiyotning asosiy tarmog'i | | |
| | | |
| Omil | | |
| | | |
| Ijtimoiy guruh | | |
| | | |
| Ijtimoiy muloqot a'zolari | | |
| | | |
| Asosiy ishlab chiqaruvchi kuch | | |
| | | |

3.Maks Veber ta'rifida ong?

4.Zamonaviy sotsiologiyaning o'rganish ob'ektlari?

5.Totalitar jamiyat sizning ta'rifingizda?

6.Jadvalni chizib, tegishli qismiga "+" belgisini qo'ying

| T/r | | Ishlab chiqarish kuchlari | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Tabiiy | Ijtimoiy | Umumiy |
| 1. | Ichki ishlab chiqarishda mehnat taqsimoti | | | |
| 2. | Tabiiy muhit | | | |
| 3. | Ilmiy bilimlar | | | |
| 4. | Ijtimoiy mehnat taqsimoti | | | |
| 5. | Mehnat qurollari | | | |
| 6. | Foydali qazilmalar | | | |
| 7. | Unumdor yerlar | | | |
| 8. | Mehnat kooperatsiyasi | | | |

## III Mavzu: Jamiyat yaxlit tizim sifatida

Jamiyat va ijtimoiylik tushunchasi. SHarq mutafakkirlarining jamiyat to'grisidagi qarashlari. Garb sotsiologiyasi asoschilarining ishlarida ijtimoiylikning tahriflanishi. M. Veber kontseptsiyasida totalitar jamiyat, uning belgilari va ijtimoiy-siyosiy tashkil etilish usullari. Jamiyat va davlat. Jamiyatning mexanistik, organistik va boshqa tarzlarda tahriflanishi. T.Parsons nazariyasida jamiyat tushunchasi, uning to'rt funktsiyali paradigmasi. Zamonaviy jamiyatning turlicha tahriflari. Anhanaviy jamiyat va Industrial jamiyat. Ularning belgilari. "Mo'lko'llik jamiyati", "Ochiq jamiyat", "Yopiq jamiyat", "Istehmol jamiyati", "Postindustrial jamiyat" va boshqalar XX va XXI asr madaniy-tarixiy va siyosiy tizimlarni tahriflash mezonlari sifatida.

"Sotsiologiya" atamasi O.Kont tomonidan ilmga nisbatan yaqinda kiritilgan bo'lishiga qaramay, sotsiologik mazmunga ega bo'lgan qarashlar va kuzatishlar insoniyatning eng qadimgi davrlari borib taqaladi.

Antik dunyo sotsiologiyasi, jahon sotsiologiyasi maktabining nazariy-ma'naviy poydevori va unga doimiy ilhom bag'ishlovchi bebaho obida hisoblanadi.

Antik dunyo sotsiologiyasining ilk namunalari kichik Osiyoning G'arbiy sohillari Ioniya o'lkasi shaharlarida yashovchi greklar tomonidan dunyoga keltirildi. Antik dunyo sotsiologiyasining yuzaga kelishi hamda taraqqiyot tendentsiyalari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin.

Eng qadimgi sotsiologiya maktabi. Bu guruhga eramizdan oldingi XII asrda yashab ijod yetgan Gomerdan boshlab eramizdan oldingi XI asrgacha ijod qilgan Millet (Kichik Osiyodagi eng yirik shahar) maktabi vakillari (Fales, Anaksimandr, Anaksimen) hamda Gretsiyaning turli shaharlarda yashab faoliyat yuritgan Ksenofan va Pifagorlarning sotsiologik qarashlarini kiritish mumkin.

Eng qadimgi grek sotsiologiyasi mustaqil ijtimoiy nazariy tadqiqot predmeti sifatida emas, balki aniq tabiiy fanlarga (matematika tabiatshunoslik) bergan ilk tadqiqot natijalari bilan, ijtimoiy fanlar (mifologiya, san'at) borasida erishilgan tafakkur mahsullarining uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan.

Milet filosoflarining to'ng'ich vakili Falesning fikricha, jamiyat va tabiatning asosini suv va suyuqlik tufayli ro'y beradi. Suv tufayli tarkib topgan hamma narsada jon mavjuddir.

Falesning "Hamma narsada jon bor" g'oyasi va jamiyatga insoniy yondashuvining ilk kurtaklari shakllanishiga turtki bo'ldi.

Milet maktabining yana bir vakili Anaksimen esa olamning asosini tashkil etuvchi modda sifatida havoni ko'rsatadi. Havoning tabiatda yig'ilishi va siqilishi

natijasida suv, tuproq, tosh va olovdan iborat zaruriy qismlar yuzaga keladi. Havo insonning amal qilish makoni hisoblanadi va havosiz qolgan paytda har qanday jism tarkibiy va mazmuniy o'zgarishga yuz tutadi.

Qadimgi grek sotsiologlari Pifagor alohida o'rin tutadi. Pifagor davrida turli arxaik diniy qarashlar o'rniga nisbatan umumiyroq mohiyat kasb etuvchi xudolarga sig'inish tamomila kira boshladi.

Grek demokratiyasi sotsiologiyasi namoyondalari Geraklit, Parmenid, Senon, Empedokl, Anaksagor, Pifagor, Goriy va boshqalar hisoblanadi.

Geraklit fikricha tabiatda hamma narsa birlamchi narsaga albatta qaytadi. Bu birlamchi asos esa olovdir.

Grek madaniyatining yirik namoyondasi Empedokl ilm va ma'rifatning ijtimoiy foydalilik funktsiyasini asoslab berdi. U ilm olish bu befoyda mohiyatlar xususida bahs yuritish emas, balki uni inson ongiga xizmat qildirishdan iborat deb bildi. Uning fikricha, insonlarni birlashtiruvchi- muhabbat (mehr, hurmat), ayni paytda ajratib yuboruvchi kuch-nafrat, hasad, johillikdir.

Antik dunyo "oltin davri" da ijod qilgan mutafakkirlar qatoriga Suqrot, Levkipp, Demokrit, Platon, Aristotel va boshqalarni kiritish mumkin.

Platon "Fileb" nomli asarida insonning ezgulikdan iborat faoliyati quyidagi talablarni bajarish asnosida ro'y berishi aytiladi:

1. Ilohiy g'oya mohiyatini aniqlash;

2. Tafakkur va bilimlarga ega bo'lish;

3. Ilm va sanoatning biror to'rini egallash;

4. Toza, halol hissiy vositalaridan (musiqa, tovush, tasviriy san'atdan) zavq ola bilish.

Platon ezgulikning anglash-xudoni anglash, ezgulik tabiatiga ega bo'lishi esa xudo mohiyatiga tegishli bo'lish, uning uzviy bir qismiga aylanish, deb o'rgatadi. Platon insonning ijtimoiy o'rnini belgilashda har bir kishi dastavval o'z davlatining fuqarosi bo'lishi lozim, deb ta'kidlaydi. Platon murakkab ijtimoiy siyosiy muhitda yashaganligi sababli ideal davlat tuzumi quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi lozim.

1.Donishmandlik; 2.Jasorat; 3.Har ishda oqilona me'yorni saqlay bilish; 4.Adolat.

Davlat tuzumini uch xil starata (ijtimoiy tabaqa) hukmdorlar va ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnatkashlar, donishmand boshqaruvchi guruh rahbarligida garmonik tuzumni tashkil etadilar.

Platon Akademiyasining yetuk tolibi, jahon ijtimoiy tafakkur olamiga hissa qo'shgan mutafakkir Aristotel hisoblanadi. Aristotel o'z davridagi mavjud startifikatsion (ijtimoiy tabaqalashuv) tartiblarni qo'llab-quvvatlaydi. U komil inson, komil fuqaro, adolatli davlat xususidagi qarashlarini ilmiy asoslashga intildi.

Davlat boshqaruvida ishtirok etishga ishtiyoqmand va amaldorlik da’vosida bo’lganlar quyidagi sifatlarga ega bo’lishlari lozim deydi Aristotel: Mavjud davlat tuzumini chin dildan sevishi, katta kuch va energiyaga ega bo’lishi, odamlarga hayrixoh va adolatli bo’lishi, asosiy faoliyat mezoni deb odamlar manfaatini davlat manfaatlari bilan uyg’un holda hal etish malakasiga ega bo’lishi lozim.

Har qanday mamlakatdagi ijtimoiy tartibsizliklar, inqirozlar va davlat to’ntarishlari ijtimoiy tenglikning buzilishidan kelib chiqadi.

Aristotel fikricha, har bir shaxs nafaqat mavjud davlat tuzulishiga, balki o’z ijtimoiy tabaqasiga ham sodiq qolishi hamda o’z kasbi-kori, xizmat sohasi doirasida kamolotga intilishi lozim.

Aristotel davlat tuzilishini 6 xil ko’rinishda tasniflab, ulardan uchtasi (monarxiya, aristokratiya, politiya) to’g’ri va uchtasi (tiraniya, oligarxiya, demokratiya) noto’g’ri davlat tuzumlari deb hisoblaydi.

Aristotel antik dunyo sotsiologiyasi tarixini eng mazmundor davri bo’lgan grek sotsiologiyasi maktabiga mantiqiy yakun yasadi. Uning sotsiologik qarashlari dastlab qadimgi Rimdagi sotsiologiya maktabi vakillari (TSitseron, Lekresiy, Vergiliy, Goratsiy, Ovidiy) ga ilhom bag’ishladi, so’ngra o’rta asr SHarqining buyuk olimlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushdlar dunyoqarashlariga o’z ta’sirini ko’rsatdi.

SHarq xalqlarining hayotga bo’lgan sotsiologik qarashlari, mohiyat e’tiboriga ko’ra g’arb sotsiologlarining ijtimoiy yondashuvlaridan farq qilib, Qadimgi sharq kishisi uchun o’zlikni anglash, ma’naviy komillikka erishish, ozodlik tushunchasi moddiy borliqdan voz kechish, tashqi dunyo tashvishlarini inkor etish, o’zlikda sokinlik topishga intilish harakatlaridan iborat.

SHarq kishisi uchun individualizm halokat, jamoada uyg’unlashuv esa sokinlik va bexavotirlik omili bo’lib kelgan. Jamoaviy xavfsizlikni ta’minlash ehtiyoji sharqda juda qadim davrlardayoq davlatchilik tizimlarini qaror toptirdi. Eramizdan oldingi 3 ming yillik o’rtalaridan boshlab Misr, Hindiston, Mesopotomiya, Xitoyda davlatchilikning mustahkam an’analari yuzaga keldi.

Insoniyat tarixida ilk daf’a xudo darajasida emas, alohida yetuk shaxslar sifatida Gomer, Muso alayhissalom, Konfutsiy, Zardusht, Budda singari shaxslar tarix sahnasiga chiqdilar.

Zardo’shtiylik dinining asosi bo’lgan "Avesto" eramizdan oldingi VII asrda yaratilgan bo’lib, Avesto so’zi "Upasta", ya’ni qonun-qoidalar va me’yoriy asoslar ma’nosini anglatadi. Avestoni Zardusht Spitamalik Purishasp o’g’li yaratgan va hozir biz yashayotgan hududda yakka xudolikka asos solgan. U Axuramazdani tabiat yaratuvchisi va boshqaruvchi sifatida talqin etadi. Axuramazda "Oliy daholi hukmdor" degan ma’noni anglatib, odamlarni yovuz kuchlarga, ijtimoiy ahloqiy

illatlarga qarshi kurashishga chorlagan. Axuramazda jamiyat kuchlarini faollikka undovchi kuch sifatida ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotda dadil qo'yilgan qadam bo'ldi.

Xitoyda Konfutsiy ahloqiga binoan inson dunyo tartiboti tizimida favqulodda o'rin tutishi, umumiy dunyo taqdiri uchun ma'sullik hissining cheksizligi targ'ib etilsa, kosmologiya g'oyasida siyosat va kosmik ritm o'rtasida murosa o'rnatilishiga asoslanadi.

Inson jamiyatda faqat o'z qobiliyatiga tayanib, qachon undan foydalanishlari muddatini kutib yashashga mahkum etilgan edi. SHu boisdan ham Xitoyda davlat jamiki jarayonlarni boshqaruvchi kuch sifatida jamiyatdan har bir individning ijtimoiy mavqesini belgilab olish vazifasini o'tar edi.

Konfutsiy kishilarni jamiyatda egallab turgan o'rinlarini, ijtimoiy mavqelarini o'zgartirishlariga qarshi turgan. U insonlar o'z ijtimoiy mavqelarini o'zgartirish yo'lida emas, balki shu mavqe mazmunini teran bilimlar bilan boyitishga chaqiradi.

Qadimgi sharq falsafasi, uning gnoseologik asoslari qadimgi Movaraunnahr hududida yashovchi xalqlarning ijtimoiy jarayonlarga munosabatlari va fikrlash tarziga bevosita ta'sirini ko'rsatgan. Xususan o'zbek xalqi va uning boy ma'naviyatining shakllanishiga islom dininig kirib kelishi va uning xalq tomonidan qabul qilinishi o'ziga hodisa bo'ldi, deb hisoblash mumkin. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek xalqi islom diniga o'z milliy xususiyatlari, urf-odatlari, turmush tarzi, an'analari bilan kirib keldi. Bu esa qabul qilingan islom geologiyasi nazariyasiga tegishli aniqliklar va tadrijiy o'zgartirishlar kiritilishini taqozo eta boshladi.

Movaraunnahr jamoatchilik fikri tarixini o'rganishda Abu Mansur al-Moturidiyning tashkil etuvchi Moturidiy maktabining asoschisi Abu Mansur al-Moturidiy asarlariga nafaqat dinshunoslik, balki jamiyat jamoa, ijtimoiy jarayonlar va xususan shaxs haqidagi ta'limot sifatida yondashish, ularni Movaraunnahr hududi hayot tarzi, mentalitetiga muvofiq keluvchi, ularni g'oyaviy, e'tiqodiy yaqdillikka undovchi yaxlit ilmiy sotsiologik kontseptsiya sifatida baholash va xar tomonlama o'rganish maqsadi muvofiqdir. Ulrix Rudolf shaxsining islom e'tiqodi darajasidagi faoliyat, erkin fikrlash xuquqi va imkoniyatlarini atroflicha mavqeiga muvofiq keluvchi nazariya deb baholaganda, buyuk yurtdoshimizning xarakterli qirralarini ochib berdi. Darhaqiqat, inson shaxsi va mavqei masalasi uni turli ijtimoiy siyosiy, kerak bo'lsa, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi al-Moturidiyning murosaviy muvozanat kontseptsiyasini, islomni anglash jarayonlaridagi ijobiy jihatlar yigindisigina emas, balki Movaraunnaxrdagi real ijtimoiy siyosiy muhit, xalq turmush tarzi, mentaliteti boy madaniy-tarixiy tajribasi bilan boyitilgan insoniy yondashuvlar sintezi, deb baholash maqsadga muvofiqdir.

Movaraunnaxrda tabiat va jamiyatni sotsiologik anglash va o'rganish ulug' mutafakkir al-Farobiy tomonidan jiddiy kengaytirildi. U al-Moturidiy tomonidan ilmiy-gnesologik jihatdan asoslangan inson erki nazariyasini yanada rivojlantirdi. U o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida insondagi insonlik mohiyati o'zlikni anglashdan boshlanishini, fozil shaxs voqea va hodisalarning mohiyati idrok eta bilishini, mohiyatiga intilishi insonga berilgan ruh aqlini rivojlantirishga, unga quvvat bag'ishlashga ma'sul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab firklashga ko'mak berishini asoslab beradi.

Farobiy o'sha paytdayoq ijtimoiy fikrning ahamiyati katta ekanligini chuqur anglab, zamonaviy sotsiologiyada ko'p qo'llanuvchi ekstetlar, ya'ni o'z davrining yetuk donishmandlari fikriga tayanib ish tutish zarurligiga urg'u beradi.

"Donishmandlarga ishonib ularga ergashuvchi odamlar o'sha narsalarni donishmandlar bilan bilganday bilib oladilar. Zero, donishmandlarning bilimlari eng yaxshi bilimlardur"

Birinchi ming yillikning so'ngida (973 yil 4 sentyabr) tavallud topgan ulug' bobokalonomiz Abu Rayhon Beruniy ham sotsiologiya nazariyasini rivojlantirish ishiga ulkan hissa qo'shdi. Abu Rayhon Beruniy dunyoning sotsiologik manzarasi evalitsion jarayon natijasida tarkib topganligini alohida qayd etadi. Tuzilish va buzilish natijasida unsur bo'laklari bir-biriga qo'shilib, dunyo obod bo'lgan va olam tartibga tushgan.

Ulug' mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning sotsiologik qarashlari o'zining ilmiy teranligi, voqelikka hushyor baho berish xususiyati bilan ajratib turadi. Ibn Sino olamning barqaror amal qilishi jamiyat va tabiatning energetik, ya'ni o'z-o'zini iroda qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi bilan izohlanadi.

Ibn Sino Allohning aqldan tashqari faoliyatlarga ham qobilligi g'oyasiga qarshi chiqib, Alloh faoliyati aqldan tashqari bo'lishi mumkin emasligi, yaratilgan narsalarning barchasi insoniy aql tomonidan idrok eta olishi kerakligini ham asoslab beradi.

XI asrda yaratilgan turkiy xalqlar uchun muqaddas obida hisoblanuvchi kitob Yusub Xos Xojibning "Kutadg'u bilig", "Saodatga eltuvchi bilim" deb atalgan asari ham sotsiologik qarashlarga boydir. Bu kitob odob-axloq, ta'lim va tarbiya hamda ma'naviy kamolatning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora tadbirlarini mujassamlashtirib, o'zida jam qilgan buyuk qomusiy asaridir.

Yusuf Xos Xojib jamiyatning tom ma'nodagi kamolati faqat ta'lim vositasida amalga oshadi, deb hisoblaydi. Dunyodagi barcha boyliklar muvaqqatdir, o'tkinchidir, sarflansa tugab bitadi, deb o'rgatadi ulug' mutafakkir.

Sotsiologiyaning donishmandlik talabi yuqori bo’lgan fan ekanligi uchun ulug’ ajdodlarimizdan jamiyatni bevosita o’rganishga doir vazmin umumlashmalarga, xulosaviy mushohadalarga boy asarlari ularni ma’naviy aqliy kamolatga erishgan yillarida, sermazmun umrlarning so’nggi davrlarida yaratilgandir. Masalan, Amir Temurning "Tuzuklari", Mirzo Ulug’bekning "To’rt ulus tarixi", Alisher Navoiyning "Majolis un nafois, Mahbub ul qulub" asarlari shular jumlasidandir.

Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub" asarida bevosita o’z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga tavsif beriladi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa mamlakatga foydali yoki zararli ekanligi bayon etiladi.

Navoiy jamiyatning miqdor va sifat jihatidan ijtimoiy bo’linganligi umuman olganda ijobiy hodisa ekanligi, bu tavsiflanish doirasining qanchalik kengligi mamlakat farovonlik darajasining asoslab beradi. Ulug’ mutafakkir jamiyatdagi yuzdan ortiq ijtimoiy tabaqa xususiyatlarini aniqlab, ularning mamlakat ijtimoiy tizimidagi o’rni va faoliyat imkoniyatlarini ravshan ifodalab beradi. Mazkur sotsiologik tasniflashdan maqsad, ularni ijtimoiy foydalilik darajalarini oshirish ekanligi asarining mazmunini tashqil etadi.

XIX asr sotsiologik nazariyalari rivoji sotsiologiyaning hamma tan olgan universal ijtimoiy fanga aylanishiga sharoit yaratib bergan. Bu imkoniyatlarning yaratilishi V. Pareto, F. Tennis, E. Dyurkgeym, M. Veber, P. Sorokin va boshqa sotsiologlar ijodi bilan bog’liq.

XX asr boshlaridagi Italiyaning eng ko’zga ko’ringan nazariyotchisi Vilfredo Pareto (1848-1923) edi. Uning asosiy ishi hisoblanmish «Umumiy sotsiologiya tartibi» keyinchalik G’arb sotsiologiyasining klassik ijodi namunasi, deb tan olingan. Pareto haqiqiylik, ishonchlilik va ilmiy-empirik tuzilishi jarayonlarini ishlab chiqishga intilgan.

Pareto tomonidan ishlab chiqilgan pozitiv yondashuv kontseptsiyasini o’zining mohiyatiga ko’ra metodologik xususiyatiga ega bo’lib, bitta maqsadga, ya’ni ijtimoiy nazariy tadqiqotlarni mafkuraviy mohiyatdan ozod qilishga qaratilgan edi. Paretoning sotsiologik tizimida elitalar nazariyasi muhim o’rin tutadi. Jamiyatning sotsiologik tuzilishini u ikkita katta guruhga bo’ladi: o’qimishli odamlardan iborat elita hamda hissiyotlar va ikkilanishlar bilan yashovchi boshqariladigan omma-quyi qatlam.

XIX asr oxirlarida sotsiologiyadagi pozitiv oqimlar ijtimoiy hayotni tushuntirishda qiyinchiliklarga uchray boshladi. Jamiyatdagi ijtimoiy borliqni bilishda tabiiylik-naturalizm tamoyillari va tabiiy-ilmiy metodlarni qo’llashni man qilishga intilishlar kuchayib ketdi.

Pozitiv sotsiologiyaga qarama-qarshi o’laroq antipozitivistik yo’nalishdagi sotsiologiya ko’proq Germaniyada keng tarqaldi. Sotsiologiyaning rasmiy maktabi namoyondalariga V.Diltey, G.Zimmel, F.Tennis kiradi.

Ko’zga ko’ringan nemis faylasufi, psiholog va sotsiolog V.Deltey (1833-1911) fikriga ko’ra, tabiiy fanlar tabiiy jarayonlarning borishi hamda uning inson holatiga qanday ta’sir qilishini kuzatib boradi, ijtimoiy gumanitar fanlar esa insonning erkin faoliyati, jamoaviy ishlarini o’rganadi.

U asosiy e’tiborni ruh to’g’risidagi fan nazariy muammolarini ishlab chiqishga karatdi. Bu yo’nalishda Diltey ilmiy faoliyatining natijalaridan biri «tushunuvchi psihologiya» va «tushunuvchi sotsiologiya» ning yaratilishidir. Uning ta’kidlashicha, «tushunish» sotsiologiyasini asosiy vazifasi, odamlarning o’tgan davr odamlari hayotini his qilish va shu orqali hayotlar mobaynida hali amalga oshirilmagan faoliyatlar qirralarini topishdan iborat.

Dilteyning falsafiy va sotsiolog ijodi mahsuli bo’lgan ijtimoiy mavjudliklar, jarayonlarni bilish, ularni tushunish imkoniyatlari, vazifalari va maqsadlari to’g’risidagi qarashlari keyingi davr sotsiologlari uchun tadqiqot manbai sifatida xizmat qildi.

Nemis sotsiologiya jamiyatning birinchi Prezidenti Fredinant Tennisni Sotsiologiyaning formal-analitik maktabi asoschilaridan biri deyish mumkin. Tennisning nazariy sotsiologiyasi asosini qarama-qarshi mohiyatga ega ikkita yechimli-«jamoa» va «jamiyat»ni tashkil qiladi. Tennis fikricha, tarixiy jarayon qarama - qarshi qarashlardagi odamlarning-jamoa va jamiyatdagi birgalikdagi hayotidan iboratdir.

Sotsiologiya tarixida Georg Zimmel (1858-1918) g’oyalarining M. Veber va E. Dyurkgeym g’oyalari kabi XX asr sotsiologiyasi rivojida o’ziga xos o’rni bor. Zimmel, o’zining falsafiy va sotsiologik ijodini ijtimoiy munosabatlar tipologiyasini, analitik va formal sotsiologiyani rivojlantiruvchi an’analar tahliliga bagishlanadi.

Agar Zimmel tomonidan asoslangan ijtimoiy hayot shakllarini klassifikatsiya qilishga urinsak, unda ularni quyidagicha ajratish mumkin:

1) ijtimoiy jarayon; 2) ijtimoiy tur; 3) rivojlanish modeli.

Zimmel shaharlar demografiyasi, din va e’tiqodlar, bilish va boshqalarni sotsiologik tahlil qilish uchun ko’pgina qimmatli g’oyalarni ilgari surdi. Zimmelning g’oyalari zamonaviy Sotsiologiyadagi madaniy tanqidiy an’analarning shakllanishiga kuchli ta’sir ko’rsatdi.

Frantsuz sotsiologi E.Dyurkgeym (1858-19171 ham Kontga o’xshab sotsiologiya tabiiy fan metodlari asosida ish tutish kerak, deb hisoblaydi. U ijtimoiy faktlar tarkibiga jamoaviy qarashlar, axloqiy hayotning xar xil mavjudliklari, an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlarini kiritgan. Dyurkgeymning fikricha.

«ijtimoiy haqikatga ob’ektiv yondashishni ta’minlab beruvchi asosiy qoida ijtimoiy faktlarga narsa sifatida qaralishidir».

Dyurkgeym qarashlari asosini «sotsiologizm» g’oyasi tashkil etadi. Frantsuz sotsiologi odamlararo ishonchning muhimligini ta’kidlab, kishilar yagona umumiy g’oya atrofida birlashishlari lozimligini e’tirof etadi. E.Dyurkgeymning «ijtimoiy mehnatning taqsimlanishi to’g’risida» deb nomlangan asosiy ishi bevosita «hamjihatlik» muammosini o’rganishga bag’ishlashgan. U sotsiologiyaning asosiy vazifasi ijtimoiy integratsiyani ta’minlovchi ijtimoiy aloqa va mexanizmlar tabiatini aniqlashdir, deb biladi. Dyurkgeym jamiyat evolyutsiyasini o’rganib, ijtimoiy aloqalarning ikki asosiy turini ajratadi: «mexanik hamjihatlik» va «organik hamjihatlik».

Birinchi turida arxaik jamiyat alohida individlarni o’ziga butunlay bo’ysundirmoqchi bo’ladi. Bunda ijtimoiy hamjihatlik inson axloqini qattiq nazorat qiluvchi diniy ishonch, urf-odat, an’analar orqali ijtimoiy onga singdiriladi. Organik hamjihatlik bo’lgan zamonaviy ijtimoiy aloqalarda umuman boshqa narsa kuzatiladi. Bu yerda ijtimoiy birlashuv individlarning iqtisodiy o’zaro aloqalari va mehnat taqsimoti orqali ta’minlanadi. Dyurkgeym nuqtai nazaricha, XIX asr kapitalizmiga xos ziddiyatlar mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi va turli ijtimoiy salbiy oqibatlarni bartaraf etilgan taqdirda o’z-o’zidan hal bo’ladi.

Buyuk nemis mutafakkiri M.Veber tomonidan ilgari surilgan bilimlar, g’oyalar, metodologik yondashuv, bilish nazariyasi, ideal tiplar g’oyasi, madaniyat, etika, din sotsiologiyasi haqidagi qarashlari ilmiy jamoatchilik tomonidan e’tirof etilgan. Uning fikricha, sotsiologiya ijtimoiy tarixiy faoliyatlarning sub’ektiv sohalarini hisobga olish, voqelikni ilmiy metodologiya talablariga mos ravishda ob’ektiv va empirik jihatdan tadqiq etish imkoniyatlarini yuzaga chiqarish mumkin. Sotsiologiya, Veber ta’kidlashicha, ijtimoiy fanlar orasida shunday o’rin tutishi lozimki, uning asosiy vazifasi–insonning ijtimoiy xulqi mohiyati va ahamiyatini tushunish, jamiyat rivojiga sabab bo’lgan qonunlar yechimini ko’rsatib berishdan iborat bo’ladi. Inson xulqini talqin qilish metodiga Maks Veber tomonidan qanchalik katta ahamiyat berilganligiga qarab uning  sotsiologiyasini ko’pincha tushunuvchi yoki «interpretativ» sotsiologiya deb ham atashadi.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Sotsial birdamlik – ko’pgina ma’naviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo’lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko’rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini xal qilishdagi hamkorligi ko’rinishidir.

Kooperatsiya – bir yoki bir qancha sotsial guruh vakillarining yagona maqsadga erishish yo’lida o’zaro harakat qilish jarayoni. O’zaro manfaatdorlik kooperatsiyaning asosi hisoblanadi.

Begonalashuv – individ, shaxs yoki sotsial guruhning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma’naviy jarayonlar, munosabatlar hamda faoliyatdan uzoqlashish, chetlashish holati. Sotsiologiyada begonalashuvning iqtisodiy, siyosiy, sotsial, madaniy va ruhiy ko’rinishlariga ko’proq e’tibor qaratiladi.

Oila – kishilarning nikoh va qondoshlik munosabatlariga asoslangan jamiyatning kichik sotsial yacheykasi. Oila kishilarni mulkchilik, umumiy xo’jalik aloqalari va farzandlar tarbiyasidagi o’zaro mas’uliyat hissi bilan ham bog’laydi.

Nuklear oila - Ota –onalar va ularning qaramog’ida bo’lgan bolalardan tashkil topgan oila shakli. Xozirgi davrda ko’p avlodli oilalardan nuklear oilalarga o’tish jarayoni yakunlanib bormoqda.

Ekzogamiya – nikohlanishda umr yo’ldoshini tanlashdagi cheklash bo’lib, guruh a’zolari umr yo’ldoshini o’z guruhi tashqarisidan izlashadi.

Endogamiya - nikohlanishda umr yo’ldoshini tanlashdagi cheklash bo’lib, guruh a’zolari umr yo’ldoshini faqat o’z guruhi ichkarisidan tanlashadi.

Etnos – ma’lum bir hududda tarixan qaror topgan, madaniyat va psihologik birlikning umumiy jihatlariga ega bo’lgan kishilarning barqaror uyushmasi.

Sotsial sinflar – (*lotin. classic – guruh, razryad*) yirik sotsial guruhlar bo’lib, o’zida umumiy sotsial-iqtisodiy va siyosiy maqomga ega bo’lgan hamda o’z ijtimoiy holatiga ko’ra bir-biridan farqlanuvchi kishilarni birlashtiradi.

Fan – bilimlarni yaratish va to’plashni ta’minlovchi sotsial institut; ijtimoiy ongning muhim shakllaridan biri. Fanlar tasnifiga ko’ra bir qancha yo’nalishlarga bo’linadi. Sotsiologiyada fundamental va amaliy fanlarga alohida e’tibor qaratiladi.

Ta’lim – institutlashgan jarayon bo’lib, uning asosida qadriyatlar, bilim va malaka bir kishi, guruh yoki uyushma tomonidan boshqalarga o’tkaziladi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1. Antik dunyo sotsiologlari inson mavqei to’g’risida qanday fikrlarni ilgari surgan.
2. Platon va uning sotsiologik qarashlari.
3. Aristotel va uning sotsiologik qarashlari.
4. Mitroizm oqimi to’g’risida nimalarni bilasiz.
5. Konfutsiylik va uning ilgari surgan g’oyalari.
6. Al-Moturidiy va uning ideal jamiyat to’g’risidagi qarashlari.
7. Al-Farobiy va uning ideal jamiyat to’g’risidagi qarashlari.

8. Al-Beruniy va uning sotsiologik qarashlari.
9. Ibn Sino va uning sotsiologik qarashlari.
10. Yusuf Xos Xojib va uning jamiyat to'g'risidagi qarashlari.
11. Alisher Navoiy va uning ijtimoiy guruh va tabaqalar to'g'risidagi qarashlari.

3-amaliy mashg'ulot

1.Ijtimoiy tabaqalanish jarayonlariga qaysi omillarni kirita olasiz?




2.Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar tarixiy rivojiga doir quyidagi jadvalni to'ldiring:

| An'anaviy | Industrial | Zamonaviy |
|---|---|---|
| Rivojlanishni boshqaruvchi tamoyil | | |
| | | Bilimlar markazlashuvi |
| Asosiy xo'jalik bo'g'ini | | |
| | | Tadqiqot institutlari, servis idoralari |
| Vaqt istiqboli | | |
| | | Kelajakka intilish, prognozlar, stsenariylar |
| Strategik resurs | | |
| | | Ta'lim, aqliy kapital |

3.O'zaro mutanosiblik (nisbatlar) – milliy xo'jalikning turli tomonlari va sohalari o'rtasida miqdor va sifat jihatdan ma'lum moslik bo'lishidir. Bunda tenglik shart bo'lmay, ular mos keluvchi nisbatlarda (masalan, 2:3, 5:3, 3:1) bo'lishi mumkin. Ushbu 3 ta nisbatni foizlarda ifodalang.

## IV Mavzu: Sotsial guruhlar va sotsial institutlar

Sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari. Sotsiologiyada sotsial guruhlarga ajratish mezonlarining xilma-xilligi Sotsial guruh turlari: katta va kichik, rasmiy va norasmiy, birlamchi va ikkilamchi, inguruh va autguruh, referent guruhlar va boshqalar. Garb sotsiologiyasida kichik guruhlar nazariyasi: sotsiometriya, guruh o'zgaruvchanligi, psixoterapevtik va boshqalar sotsial guruhlarning shakllanishi, ishlashi va taraqqiy etishi qonunlarini tushuntiruvchi nazariyalar sifatida. Kvaziguruhlar. Qon-qarindoshlikka asoslangan guruhlar: urug, qabila, qarindoshlar, oila, elat, millat. Ommani sotsiologik o'rganish**.** Sotsiologiyada sotsial institut tushunchasi. Sotsial institut belgilari. Sotsial institutning asosiy vazifalari. Sotsial institut turlari: oila, siyosat, din, iqtisod, tahlim, huquq va boshqalar. Jamiyat hayotida sotsial institutlarning o'rni. Oila va nikoh. Iqtisodiy institutlar. Ularning ko'rinishlari va vazifalari. Iqtisodiy guruhlar va iqtisodiy xatti-harakat. Ishlab chiqarish, uning tarixiy shakllari va vazifalari. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va kasb. Mehnat bozori, bandlik va ishsizlik. Davlat va jamiyatning siyosiy tizimi. O'zbekiston sharoitida demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish. O'zbekistonda huquqiy ongning o'ziga xosligi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish. Din sotsiomadaniy institut sifatida. Dinning funktsiyalari. Zamonaviy jamiyatda dinning o'rni. Din bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabat. Tahlim sotsial institut sifatida. Uning taraqqiyoti va shakllari. Umumiy, o'rta-maxsus va oliy tahlim. Oliy tahlim va fan: tarkibi va ilmiy-pedagogik kadrlar. O'zbekiston oliy tahlim tizimi va Yevropa hamda AQSH universitetlari: umumiylik va xususiylik. Tahlim tizimidagi islohotlar.

Ushbu masalani yoritganda sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari. Sotsiologiyada sotsial guruhlarga ajratish mezonlarining xilma-xilligi. Sotsial guruh turlari: katta va kichik, rasmiy va norasmiy, birlamchi va ikkilamchi, inguruh va autguruh, referent guruhlar va boshqalarga to'xtalinadi.

G'arb sotsiologiyasida kichik guruhlar nazariyasi: sotsiometriya, guruh o'zgaruvchanligi, psixoterapevtik va boshqalar sotsial guruhlarning shakllanishi, ishlashi va taraqqiy etishi qonunlarini tushuntiruvchi nazariyalar sifatida, kvaziguruhlar, qon-qarindoshlikka asoslangan guruhlar: urug', qabila, qarindoshlar, oila, elat, millat, ommani sotsiologik o'rganishga e'tibor qaratadi.

Sotsiologiyada sotsial guruhlarga ajratish mezonlarining xilma-xilligi. Ilmiy adabiyot bilan tanishish «sotsial guruh» terminini, birinchidan, juda keng qo'llanilayotganligini, ikkinchidan turli hodisalarga nisbatan ishlatilayotganligini

ko’rsatayapti, qaysi nuqtai nazar qarashlaridan qat’iy nazar, konkret ijtimoiy fan vakillari guruhlarni sotsial-iqtisodiy, sotsial-demografik, sotsial-psihologik va boshqa guruhlarga ajratadilar.

Guruhga xos harakterli xususiyatlar quyidagilar: guruh soni, ichki tashkilot, ya’ni institutlar, nazorat shakllari; faoliyat namunalari; norma va qadriyatlar; farq qiladigan xususiyatlari.

Guruh soni deyilganda, mavjud birlikni hajm jihatdan tashkil etadigan a’zolar yig’indisi tushuniladi, hozirgi kungacha sotsiologiyada a’zolar soni qancha bo’lishi kerakligi haqida aniq bir to’plamga kelingani yo’q. Bu to’g’risida guruh turlari haqida so’z ketganda gapirib o’tiladi.

Guruh o’z soni va a’zolari sonini chegaralashi yoki chegaramasligi mumkin. Mana shu asosga ko’ra guruhlarni «berk» guruhlar, yani yangi a’zolarni qabul qilishda aniq mezon qo’yadigan guruhlar; chegaralangan guruhlar, ya’ni guruh a’zoligiga qabul qilish mezoni kam talabchanlik bilan qabul qilinadigan guruhlar

Sotsiometriya-kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o’lchovlar asosida o’rganish.

Guruh soni deyilganda, mavjud birlikni hajm jihatdan tashkil etadigan a’zolar yig’indisi tushuniladi, hozirgi kungacha sotsiologiyada a’zolar soni qancha bo’lishi kerakligi haqida aniq bir to’plamga kelingani yo’q. Bu to’g’risida guruh turlari haqida so’z ketganda gapirib o’tiladi.

Guruh o’z soni va a’zolari sonini chegaralashi yoki chegaramasligi mumkin. Mana shu asosga ko’ra guruhlarni «berk» guruhlar, yani yangi a’zolarni qabul qilishda aniq mezon qo’yadigan guruhlar; chegaralangan guruhlar, ya’ni guruh a’zoligiga qabul qilish mezoni kam talabchanlik bilan qabul qilinadigan guruhlar

Guruh o’zining shaxsiy norma va qadriyatlariga, ya’ni birlashish markaziga ega bo’lishi kerak. Bularga g’oyalar, ramzlar, shiorlar, maqsadlar, moddiy predmetlar va boshqalarni kiritish mumkin. Bular guruhda kishilarni guruhga mansublik va birlashish hissini uyg’otish va rivojlantirish uchun zarur. Bu qadriyatlar asosida guruhda «biz» so’zi bilan ifodalanadigan birlik hissi paydo bo’ladi. Bu his kishilarni birlashtiradigan psixik (ruhiy) aloqa bo’lib hisoblanadi.

Nihoyat, guruh o’zining shaxsiy farq qiladigan xususiyatlariga ega bo’lishi kerak. Bular yordamida guruh boshqa sotsial birliklardan farq qiladi. Bunday xususiyatlar avvalo, bir hududda yashash, alohida ritual harakatlar, til, mafkura va boshqalar hisoblanadi.

Jamiyatning sotsial institutlari va uning sotsial mohiyati. Ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan bir qatorda, shaxs, oila, nikoh, burch va turmush munosabatlari ham inson ma’naviy kamoloti uchun asosiy omillardan biri bo’lib xizmat kiladi. Hozirgi davrda jamiyatda bo’lgani kabi shaxs, oila, turmushda ham

o’ziga xos jarayonlar kechmokda. Ijtimoiy hayotning muhim sohasi bo’lgan oila, hamda turmush munosabatlari, har bir tarixiy davr, har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda o’ziga xos xususiyatlariga ega bo’ladi. Ularda muayyan tuzumning xarakteri, jihatlari, ziddiyatlari, ijtimoiy hayotda ro’y berayotgan jarayonlar o’z aksini topadi. Xuddi shu yunalishlarni, oila va turmush muammolarini, ushbu ma’ruzada iloji boricha analiz berishga harakat qilamiz.

Ijtimoiy jamiyatda sotsial birliklarning o’zaro osoyishtaligi, stabilligi, sotsial jamiyat mustahkamligi va uning aloqalarini, munosabatlarini savod va bilimi darajasini, madaniyatini xalk ma’rifi-taraqqiyotini siyosiy boshqaruv sistemasini muvofiqlashtirib turadigan vositalarni sotsial, ya’ni ijtimoiy institutlar deyiladi.

Bular ham tashqi, ham ichki tuzilish  strukturasi vazifasi, mohiyati bilan bir-biridan ajralib turadi va o’z xarakterlari bilan farq qiladi. Tashqi tuzilishi nuqtai nazaridan sotsial institutlar ma’lum yo’nalishda moddiy ta’minlangan, aniq, konkret sotsial funktsiyalar bajaradigan insonlar–shaxslar mohiyatiga muvofiqlashgan muassasalar qiyofasini eslatish jarayonidir. Yoki aniq, konkret vaziyatda ma’lum shaxslar-sotsial gruppalar sistematik-uzluksiz faoliyat ko’rsatadigan standartlashgan ob’ektni eslatadi va ma’lum mazmunni kashf etadi. Masalan, yustitsiya (bu sotsial institut bo’lib) tashqi ko’rinishda shaxs mohiyatiga muvofiqlashgan qonunchilikni amalga oshiradigan moddiy vosita yoki muassasa hisoblanadi. Sotsial institutlar o’z sotsial faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida o’z standartiga kiradigan shaxslar faoliyatini doimo rag’batlantirib, boshqarib, mazmun berib, uyushtirib, takomillashtirib turuvchi ma’naviy vositadir. SHuning uchun ham bir sotsial institutlar faoliyatining maqsadlari, konkret funktsiyalari maqsadga erishish yo’llari imkoniyatlari, sotsial norma, pozitsiyalari va rollari, ularga qarshi harakatlar, zarba beradigan kuch va quvvatlari vositalari mavjudligi bilan xarakterlanadi. Ulardan tashkari sotsial institutlar ichida jamiyatda sotsial funktsiyalar bajaradigan sotsial-madaniy institutlar bo’lib, ularga xalq ma’rifi, oliy ta’lim, sog’liqni saqlash, madaniy-tarbiyaviy muassasalar, fan-texnika, diniy muassasalar va boshka sistemalar kiradi.

Sotsial institutlar sotsial muhit bilan uzviy aloqada bo’lib, sotsial jamiyatni vujudga keltiradi va rivojlantiradi. Bu munosabatlar normal holatda yuz bersa, jamiyat rivojlanishi ham normal holatda taraqqiy etadi yoki bu normal holatda bo’lmay, buzilsa aksincha inqilobiy sotsial vaziyat yuz beradi. Sotsial institutlarning jamiyatdagi sotsial muhitdagi o’zaro aloqalari eng muhim funktsiyani–konkret sotsial ehtiyojlarini qondirishdir.

Oila va nikohni o’rganish sotsiologiya fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Odatda istalgan tipdagi jamiyatning har bir a’zosi oilada tarbiyalanadi va balog’atga yetganlarning  ko’pchiligi esa nikohda yoki nikohda bo’lganlar

hisoblanadi. Nikoh keng ommalashgan ijtimoiy institutlar qatoriga kiradi. Nikoh va oilaning shakli turli madaniyatda (ijtimoiy hayotining boshqa sohalarida bo’lgani singari) bir-biridan jidddiy farqlanadi. Oila kishilarning shunday guruhiki, uning a’zolari bir-biri bilan to’g’ridan-to’g’ri qon-qarindoshlik munosabatida bo’lib, guruhning yoshi katta a’zolari bolalarga qarashish va yordam berish majburiyatlarini o’z zimmasiga oladi. Qarindoshlik (qon-qarindoshlik aloqalari) –nikohdan o’tish natijasida yoki yaqin aloqalar jarayonidagi (ota, ona, bola, bobo, momo va hokazolar o’rtasidagi) munosabatlarning natijasidir. Nikoh ikki balog’atga yetganlar o’rtasidagi jamiyat tomonidan tan olingan va ma’qullangan seksual ittifoqdir, deb ta’riflash mumkin. Nikohga kirgan individlar bir-birlari qarindosh ham hisoblanadi. ayni vaqtda nikoh majburiyati ularni juda keng doiardagi ishlarning qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog’laydi. Nikohdan keyin kuyov tomonning otasi, onasi, akalari, singillari va ularning boshqa qarindosh urug’lari kelin tomonning qarindosh-urug’lari bilan qarindoshlik munosabatlariga kiradi.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Madaniyat – qadriyatlar, hayotiy qarashlar, xulq-atvor va me’yorlar namunasi, shuningdek, turli predmetlar, moddiy boyliklarda (mehnat vositalari,belgilar kabilar) mujassamlashgan va keyingi avlodlarga o’tadigan kishilar faoliyatining natijasi.

Ommaviy madaniyat – mintaqaviy, diniy, sinfiy xususiyatlardan qat’iy nazar maxsulotlari barcha xalqlarga tarqaladigan va ommalashadigan madaniyat shakli.

Elitar madaniyat – o’zida xashamatli san’at, musiqa va adabiyot namunalarini qamrab olgan hamda jamiyatdagi saralangan qatlam, oliy tabaqalarga mo’ljallangan madaniyat shakli.

Madaniy relyativizm – boshqa sotsial guruhlar qadriyatlarini faqat o’z madaniy qadriyatlari doirasida tushunish va tahlil qilishga bo’lgan urinish.

Etnotsentrizm – hayotiy hodisalarni o’z etnik guruhining an’analari va qadriyatlari doirasida baholovchi hamda o’z madaniyatini umumiy etalon sifatida ko’rsatuvchi etnik xususiyat.

Tolerantlik – o’zgalar turmush tarzi, xulq-atvori, urf-odatlari, his-tuyg’ulari, qarashlari, g’oyalari va diniy e’tiqodlari sabr-bardosh, toqat bilan munosabatda bo’lish.

Traditsiya (*an’analar*) – avlodlardan- avlodlarga o’tuvchi, ma’lum bir uyushma yoki sotsial guruhda uzoq davr mobaynida saqlanib qoluvchi sotsial va madaniy merosning elementi.

Qadriyatlar – borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma’naviy boyliklarning ahamiyatini ko’rsatish uchun qo’llaniladigan tushuncha. G’arbda qadriyatlar masalasi bilan aksiologiya fani shug’ullanadi. Falsafa, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psihologiya kabi fanlar qadriyatlar bo’yicha tegishli tadqiqotlar olib bormoqdalar.

## Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1. Sotsial guruh turlari.
2. Sotsial institut turlari.
3. Guruhga xos xarakterli xususiyatlar qaysilar?
4. Sotsial institutlarning jamiyatdagi sotsial funktsiyalari qanday?

## 4-amaliy mashg’ulot

1.Sotsiologiya predmeti bo’yicha yondashuvlarni tegishli kategoriyalarga moslang:

| Yondashuvlar | Sub’ektiv | Ob’ektiv | Pozitiv | Umumlashtiruvchi |
|---|---|---|---|---|
| | ↕ | ↕ | ↕ | ↕ |
| Kategoriyalar | Ijtimoiy rivojlanish qonunlari | Ijtimoiy harakat | Ijtimoiy aloqalar | Ijtimoiy faktlar |

2.Ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) – ijtimoiy tartibning mavjud kishilar tomonidan o’zlashtirilib, kelgusi avlodga o’tkazilishini anglatadi, Siz bunga vosita sifatida nimalarni kirita olasiz?

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |

3.O’zaro mutanosiblik (nisbatlar) – milliy xo’jalikning turli tomonlari va sohalari o’rtasida miqdor va sifat jihatdan ma’lum moslik bo’lishidir. Bunda tenglik shart bo’lmay, ular mos keluvchi nisbatlarda (masalan, 2:3, 5:3, 3:1) bo’lishi mumkin. Ushbu 3 ta nisbatni foizlarda ifodalang.

4. Ijtimoiy tabaqalanish jarayonlariga qaysi omillarni kirita olasiz?



## V Mavzu: Shaxs sotsiologiyasi va deviant xulq-atvor

Shaxs tushunchasi. Shaxs tushunchasini turli fanlardagi talqini. Shaxs, inson, individ tushunchalari. Shaxs shakllanishiga tahsir etuvchi asosiy omillar. Shaxs ijtimoiy munosabatlarning mahsuli sifatida. Shaxs to'grisidagi asosiy sotsiologik nazariyalar. O'z-o'zini baholash va Men-tahlimotining shakllanishi, qadriyatlar va baholar. Shaxsning o'z-o'zini hurmat qilishi. Shaxs strukturasi. Shaxs turlari. Shaxsning anhanaviy va zamonaviy turlari. Deviant xulq-atvor (ogma xulq-atvor) tushunchasi. Deviant xulq-atvor muammosini o'rganish sotsiologiyadagi ilmiy yo'nalish sifatida. Deviant xulq-atvor turlari: qonunni buzish, o'z-o'zini o'ldirish, giyohvandlik, alkogolizm va boshqalar. E.Dyurkgeym, R.Mertonlarning deviant xulq-atvor nazariyalari, Z.Freyd va E.Frommlarning destruktivlik (strukturani buzilishi) nazariyalari. Sotsial mehyor va anomiya deviant xulq-atvor nazariyasining markaziy tushunchasi sifatida. Deviant xulq-atvor belgilari, ularning strukturasi. Deviant xulq-atvorni turkumlash. Buzilgan xulq-atvor mexanizmi. Deviant xulq-atvorning tibbiy-biologik, ijtimoiy-psihologik va ijtimoiy tomonlari. Hozirgi zamonda deviant xulq-atvorning tarqalishi va o'zgarishi. Deviant, delinkvent va kriminal hatti-harakatlar. Professional jinoyatchilik. Uyushgan jinoyatchilik. Dunyoda jinoyatchilik holati. Jinoyatchilikni oshishi va jamiyatning kriminallashuvi sabablari va namoyon bo'lish shakllari. O'smirlar va yoshlar jinoyatchiligi. Jamiyatda korruptsiya muammosi. Sotsial nazorat. Sotsial nazorat kishilar hatti-harakatini tartibga solish mexanizmi sifatida. P.Bergerning sotsial nazorat to'grisidagi tahlimoti. Sotsial nazorat elementlari: mehyorlar va sanktsiyalar. Sotsial sanktsiyalar turlari: pozitiv va negativ, rasmiy va norasmiy. Sotsial mehyorlar tasnifi. Sotsial mehyor turlari: huquqiy, diniy, anhanaviy va axloqiy. Ichki va tashqi nazorat. O'z-o'zini nazorat qilish muammosi. Jamoatchilik fikri sotsial nazoratning shakli sifatida.

Har qanday ijtimoiy tizimning bo'laklari odamlar hisoblanadi. Odamlarning jamiyatga kiritilishi turli birliklar orqali amalga oshiriladi. Har bir aniq shaxs sotsial guruhlar, sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar jamiyatda qabul qilingan qoida va qadriyatlar tizimi, ya'ni madaniyat orqali gavdalanadi. SHunga muvofiq inson ko'p sotsial tizimlarga tortilgan bo'lib, ularning har biri unga shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. SHunday qilib, odam faqat sotsial tizimning bo'lagi bo'libgina qolmay, uning o'zi ham murkkab tuzilmali tizimda aks etadi. Sotsiologiya shaxsni barcha xilma-xillikdagi majmuida emas, ya'ni tabiat mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar yig'indisi, jamiyat mahsuli sifatida qarab chiqadi. «Jamiyatni isloh qilish va yangilash bo'yicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O'zbekistonning fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni ayni har bir fuqaro o'z

qobiliyatini, o’z iste’dodini namoyon etishiga, shaxs sifatida o’zini ko’rsatish imkoniyatiga ega bo’lishiga qaratilgan».

SHaxs sotsial o’zaro ta’sir va munosabatlarning birlamchi omili bo’lib hisoblanadi. SHu jihatdan qaraganda shaxsning o’zi nima? Bu savolga javob berish uchun, avvalo, «inson», «individ», «shaxs» tushunchalarini bir-biridan farqlab olish kerak. «Inson» tushunchasi, umumiy, hamma uchun xos bo’lgan sifat va qobiliyatini izohlash uchun qo’llaniladi. Bu tushuncha dunyoda mavjud bo’lgan, tarixan o’ziga xos shunday rivojlanayotgan birlikki, insoniyatni anglatib, u boshqa hamma moddiy tizimlardan farqli o’laroq  o’ziga xos ijtimoiy faoliyat usullari bilan farq qiladi.

Ushbu hayotiy faoliyat usuli tufayli inson tarixiy rivojlanishning hamma bosqichlarida, dunyoning barcha nuqtalarida o’ziga o’xshash bo’lgan antologiyaga oid holatni saqlab qoladi.

Inson tushunchasi bioijtimoiy-ruhiy mavjudlikni ifodalaydigan tushuncha. Unda insonning zohiriy va botiniy sifatlari o’z aksini topadi. Insonning umumiy sifatlari uning konkret holat va murakkab hayot sharoitlari namoyon bo’ladigan xilma-xil kayfiyat, ruhiyat va munosabatlarning yig’indisidir. Har bir insondagi alohida bu hususiyatlar betakror, o’ziga xos holatlarda namoyon bo’lishi mumkin.

Demak, insoniyat o’ziga xos moddiy voqelik sifatida mavjud bo’ladi. Ammo, insoniyat o’z holicha mustaqil mavjud bo’lmaydi.

Aniq insonlar yashaydilar va harakat qiladilar. Insoniyat alohida vakillarining mavjud bo’lishi «individ» tushunchasi bilan ifodalanadi.

Boshqacha aytganda, alohida insonning o’ziga xos tabiiy-biologik va ijtimoiy ehtiyojlari, manfaatlari, aqli, irodasi va hakozolar yig’indisi ekanligi nazarda tutib, «individ» tushunchasi qo’llaniladi. Individ «mohir odam» turiga mansub yaxlitlikni o’zida gavdalantirgan alohida insondir.

Individ - bu insoniyat zotining yakka vakili, insoniyatning hamma sotsial va ruhiy jihatlarini idrokiy, irodasi, ehtiyojlari, manfaatlari va hokazolarning sohibi hisoblanadi. «Individ» tushunchasi bu vaziyatda «aniq inson» sifatida foydalaniladi.

«Individ» tushunchasini ayrim olimlar insonning tarixi ibtidoiy jamoa tuzumi davriga to’g’ri kelishini bayon etgan. Ikkinchi xil fikrga ko’ra, individ sifatida inson o’zining jismoniy mavjudligini ta’minlashni birinchi o’ringa qo’yadi.

Masalaning bunday qo’yilishida turli biologik omillar (yosh jihatlari, jinsiy mijozlarining o’ziga xos tomonlari), shuningdek, inson hayotiy faoliyatining sotsial sharoitlardagi tafovutlar belgilamaydi.

Har qanday inson individi o’ziga xos salohiyati bilan dunyoga keladi. Hammaga gap bu salohiyatni qay tarzda ruyobga chiqarishdan iboratdir. Inson rivojlanishining  individ bosqichi eng uzoq davom etadigan, izchillikni taqozo qiladigan davrdir. Bu bosqichda uning asta-sekin shaxsga aylanish jarayoni

boshlanadi. Individning shaxsga aylanishida, boshqacha aytganda, insonning individ bosqichidan shaxs bosqichiga o'tish jarayonida sotsiumning u yoki bu darajasida olingan jamoa a'zosi sifatida uning imkoniyatlari, ijtimoiy-ahamiyatli belgilari kat'iy tizim shaklida karor topadi. Ya'ni fe'l-atvori shakllandi.

Insonni turli darajada: yakka tarzda va tarixiy rivojlanishining aniq-tarixiy o'ziga xosligini aks ettirishda «individ» tushunchasi bilan bir qatorda «shaxs» tushunchasi ham qo'llaniladi. «SHaxs» bir qator gumanitar fanlarning falsafa, ruhshunoslik, pedagogika va sotsiologiyaning o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

SHaxs - o'ziga xos intellektual, emotsional, irodaviy-shaxsiy belgi va sifatlarga ega bo'lgan sub'ekt. Bu belgi va sifatlar muayyan sotsial-iqtisodiy formasiyaning mahsulidir. SHaxs o'tmish tarixiy tajribani, o'tmishdagi madaniy boyliklarni o'zida to'playdi. «SHaxs - barcha ijtimoiy munosabatlarning yig'indisidir». Jamiyatdan tashqaridagi shaxs norealdir. SHaxsning shakllanishida:

1) shaxsning rivojlanish davri va uning natijasi.

2) shaxsni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalanishidan iboratdir.

SHaxsning rivojlanishini uning faoliyatida o'zgarib turuvchi ehtiyojlari bilan ularni qondirishning imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarda aniqlanadi.

Hozirgi sharoitda insonga ijtimoiy muhit ko'rsatayogan ta'sirini quyidagicha tasnif etish mumkin:

Birinchidan, har bir insonga bo'lgan global ta'sir, ya'ni radio, televidenie, matbuot, kino va hokazolar orqali axborot almashinuvi;

Ikkinchidan, mamlakat va mintaqa miqyosidagi ijtimoiy ta'sir insonni mavjud shart-sharoitlar doirasida inson dunyoga kelishidan to hayotdan ko'z yumgunigacha o'z orbitasida tutib turadi;

Uchinchidan, insonni avval boshidan o'rab turgan mikromuhit – oila, maktab, ko'cha va hokazolar o'z ta'siriga oladi.

Ana shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, inson shaxsning shakllanishidagi birinchi bosqich – oiladir. Oila bioijtimoiy sifatga ega bo'lgan tuzilma sifatida jamiyatning barqaror va dastlabki bo'g'inidir. Oilada go'dak ilk bor ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni anglamagan holda o'zlashtiradi va ular zamirida faolligini asta-sekinlik bilan oishirib boradi. Maktab, turli ijtimoiy guruhlar (masalan, tengdoshlar, sport uyushmalari va boshqalar) bilan muloqot davomida madaniy ideallik qaror topa borib, shaxs shakllanishining muhim manbaiga aylanadi.

Jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlari, sotsiologiyada «deviantlik holatlari», undan tug'iluvchi xulq-atvorni «deviant xulq-atvor» deb nomlanadi.

Deviant xulq-atvor—jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib,

yolg'onchilik, dangasalik, o'g'rilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.

Quyidagilar deviant xulq-atvorning nisbatan kengroq tarqalgan ko'rinishlaridan hisoblanadi:

a) jinoyatchilik. Muayyan davlatda o'rnatilgan qonun va me'yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi.

b) ichkilikbozlik. Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha tasniflar mavjud: 1) Alkogolni har-har zamonda iste'mol kilish. 2) Alkogolni ko'p iste'mol qilish— spirtli ichimliklarni mumtazam, ya'ni haftada bir martadan bir necha martagacha yoki, birvarakayiga o'rtada tanaffus bilan ko'p mikdorda (200 ml.dan oshiq). Bu ko'pincha alkogolizmga olib keladi. 3) alkogolizm—spirtli ichimliklarga patologik (muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik. v)giyohvandlik. Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ruju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish. g) fohishabozlik. Fanda rasmiy nikohsiz jinsiy aloqa ikki turga bo'lib o'rganiladi: 1.Konkubinat—nikohsiz birga yashash. 2. Fohishabozlik—pul uchun o'z tanasini sotish. G'arbda asosan ikkinchisi qoralansada, SHarkda ikkala holatga ham me'yordan og'ish sifatida qaraladi. d) byurokratiya. «Byurokratiya» termini aslbda «hokimiyanga ega bo'lgan xodim» degan ma'noni anglatadi. Biroq davrlar o'tishi bilan «byurokratiya» mahalliychilik, qog'ozbozlik, to'rachilik, mansabni suiste'mol qilish kabi salbiy ma'nolarda qo'llanila boshlaydi. Hozirgi quyida ko'plab davlatlarda «byurokratiya» termini asil ma'nosini yo'qotib, boshqaruvdagi o'ziga xos idoraviy uslub tarzida tushuniladi.

Yuqoridagilardan tashqari mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, boqimandachilik kabi salbiy holatlar ham ijtimoiy me'yordan chekinishning diqqattalab ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor muammosini sotsiologiya fani doirasida dastlab E.Dyurkgeym maxsus o'rgangan bo'lsa-da, jamiyatning eng qadimiy muammolaridan biri sifatida deviant holatlarga munosabatlar qadim davrlardan shakllanib kelgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan, Misr, Hindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalaridagi axloqiy me'yorlar bu sohadagi dastlabki qarashlar edi. Qadimgi yunon va Rim faylasuflari ham o'z asarlarida mazkur muammolarni tahlil kilib berganlar.

Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R.Merton ishlab chiqqan ta'limot sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi. EDyurkgeymning anomiya g'oyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi: «Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan

aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir».

SHaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarning paydo bo’lishi, shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo’lgan uchta omilni ko’rsatish mumkin. Bular shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlari. Aynan mana shu omillar shaxsning qanday faoliyat yuritishini belgilab beradi.

SHaxs xususiyatlarining shakllanishida asosan 3 ta omil muhim ahamiyat kasb etadi, bular: 1) irsiy omillar; 2) psixo-fiziologik omillar; 3) shaxsning bilim darajasi.

SHuningdek, ijtimoiy og’ishlarning yuz berishiga shaxsning qat’iyatli yoki qat’iyatsizligi, printsipialligi yoki printsipsizligi, qoidalarga bo’ysunish yoki bo’ysunmaslik odatlari, biron-bir qarorga kela olish imkoniyati, tashqi ta’sirga qanchalik berilishi, irodasi va boshqa shu kabi psixofiziologik holatlari, mijozi ham katta ta’sir ko’rsatadi.

Deviant xulq-atvorni o’rganishda muammoli vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyat shunday holatki, u sub’ektdan yechimini talab qiladi, uning yechimi ijtimoiy me’yorlarda ko’rsatilgan bo’lsa-da, u yoki bu sabablarga ko’ra, ushbu me’yorlarni qo’llash qiyinroq bo’ladi.

Eng katta muammoli vaziyat ziddiyatli holatlarda, ya’ni turli shaxslar yoki guruhlarning manfaatlari bir-birlariga to’qnash kelganda yuz beradi. SHu o’rinda ta’kidlab o’tish joizki, o’z joniga qasd qilishlarning 40% i oilaviy ziddiyatlar oqibatida sodir etiladi.

Ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishiga ba’zan shaxs xususiyatlari sabab bo’lsa, ba’zan kichik ijtimoiy guruhlar, oila, mahalla, ishlab chiqarish brigadasi a’zolari, sinfdoshlar orasidagi salbiy munosabatlar sabab bo’ladi.

Jamiyatda shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi muammoning va uni hal qilish imkoniyatlarining murakkabligi darajasiga ko’ra muammoli holatning to’rtta asosiy holati ko’zga tashlanadi: 1) hech qanaqa muammo yo’q holat, bunda holat hech qanaqa qaror qabul qilishni talab qilmaydi; 2) muammo bor, biroq qiyinroq yoki osonroq bo’lsa-da, uning yechimi ham ijtimoiy me’yorlarda ko’rsatilgan holat; 3) mavjud muammoni sub’ekt ijtimoiy me’yorlar doirasida hal qila olmaydigan holat; 4) muammoni hech qanaqasiga hal qilib bo’lmaydigan holat. Ushbu turlicha holatlar keng ko’lamda biridan ikkinchisiga o’tib turadi.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o’z-o’zini o’ldirishlar bilan bog’liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va sotsial oqibatlariga ko’ra mohiyatan farqli jihatlarga egadir.

Birinchi farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo’lagiga aylanib ketishidan iborat bo’ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muhitdan norozilik, uydagi tushunmovchiliklar va

hokazolar—bularning barchasi sub'ekt ruhiyatini jarohatlaydi hamda u mavjud vaziyatni o'zgartirishga urinadi. Bu o'rinda ijtimoiy institutlardagi kamchiliklar, shu jumladan, ziddiyatlar rivojlanishining oldini oluvchi va ularga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ham salbiy rol o'ynaydi.

Bularning ikkinchi farqli jihati yuqoridagi holatlarni hal qilishning ma'lum qiyinchiliklarga egaligidir. Ma'lumki, har qanday holatda ham, ko'p «qurbon» berib bo'lsada, to'g'ri yechimga erishish mumkin. Lekin hamma gap shundaki, sub'ekt «qurbon» bera oladimi xotini (yoki eri) bilan ajralib keta oladimi, yangi kasbga ega bo'la oladimi yoki yo'qmi. Qat'iy qarorga kela olmay, ko'pincha sub'ekt «o'rinbosar» vositalarga, ichkilik va giyohvand moddalarga murojaat etadi.

Bunday holatlarning keyingi farqi shundaki, ko'pincha sub'ekt ularni hal qilishning noto'g'ri yo'llarini tanlaydi. Oilaviy va ishdagi janjallar odatga aylanib qolganda bundan «qutulishning» noto'g'ri xayoliy yo'llari, ichkilik, giyohvand vositalar va hokazolarga murojaat etiladi. Biroq bu yo'l ziddiyatning chuqurlashuviga va turmush tarzini zararlantiruvchi omilga olib keladi.

Jamiyatda insonlar faoliyati, xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me'yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me'yorning bir necha turlari mavjud bo'lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlarga oid me'yorlar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy me'yorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me'yorlarga moslashtirib borilgan shaxslar umum tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari o'rnatilgan me'yorlar ham eskirib boradi va yangi me'yorlar o'rnatiladi. Yangi me'yorlarni o'rnatish jarayoni jamiyatda o'rnatilgan mavjud me'yorlar doirasini kengaytirish va o'zgartishdan iboratdir.

Jamiyat a'zolarini mazkur ijtimoiy me'yorlarga amal qilib yashashlarini nazorat qilib boruvchi institutlar ijtimoiy nazorat institutlari deyiladi. Ushbu institutlarga oila, maktab, mahalla, huquqni muhofaza qilish organlari va hokazolar kiradi.

Insonlar bolalarga ijtimoiy me'yorlarni o'rgatib borish bilan birga, xulq-atvor me'yoriy talablarining to'g'ri bajarilishini nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajarishadi. Nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu ivdividual tavsifga ega bo'ladi, agar butun bir jamoa, oila, do'stlar, maktab, mahalla (qo'ni-qo'shnilar) tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi hamda u ijtimoiy nazorat deyiladi.

Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasi bo'lib, deviant xulq-atvorning oldini olishda ham ushbu jamoalarning o'rni katta bo'ladi.

Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu— oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog'lom oila muhitining o'rni kattadir.

«Bola tug'ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi.

## Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1. SHaxsning o'zi nima.
2. Individ tushunchasi.
3. Diviant xulq atvorga qaysilar kiradi.
4. SHaxs xususiyatlariga ta'sir qiluvchi omillar.
5. Jamiyatda insonlar faoliyati qanday me'yorlar boshqaradi.

## 5-amaliy mashg'ulot

1.Sotsiologiya funktsiyalarini jamiyat foydasiga tegishli faoliyat sifati bilan moslang:

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1. | Gnoseologik | Ijtimoiy ideallar, qadriyatlarni shakllantirish, zamon qahramonlari timsolini kashf qilish | 1. |
| 2. | Axborot | Uzoq va yaqin kelajak istiqbollarini o'rganish | 2. |
| 3. | Boshqaruv | Ishlab chiqarish, siyosiy muhit, harbiy soha, dam olish va boshqa jabhalarda turli guruhlarni shakllantirish | 3. |
| 4. | Tashkiliy | Ijtimoiy hodisalarni asoslash, ularning sabab va yechimlari sohasida izlanib, tavsiyalar berish | 4. |
| 5. | Bashorat | Sotsiologik bilimlarni nafaqat mutaxassislar, balki butun jamoatchilik tomonidan anglanishi | 5. |
| 6. | Targ'ibot | Sotsiologik bilimlarni olish, nazariyalar, kontseptsiyalar, jamiyat va undagi aloqalarni teran tushunish | 6. |

2.Ijtimoiy munosabatlar va aloqalar iqtisod sohasida 2 ta katta yo'nalishdan iborat bo'lganda buni ekspert sifatida qanday tushuntira olasiz?

3. Faraz qiling, mamlakatimiz 2 ta xonlik va 1 amirlikdan tarkib topgan davrda 80 foiz aholining mamlakatdagi daromadlardan ulushi 20 foizni; 20 foiz xonlik amaldor, mulozim va xodimlarining ulushi 80 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichlardan Djini koeffitsientini hisoblash mumkinmi? Mumkin bo'lsa, qanchaga teng?
a) Yo'q, hisoblab bo'lmaydi, chunki aholi qatlamlari kamida 4 ta guruh (kvartil), yoki 5 guruh (kvintel)ga bo'linishi shart;
b) ¼, ya'ni 0,25 ga teng;
v) 0,8;
g) 0,8-0,2=0,6;
d) 0,6;
e) 1/5 va 4/5.

4.Ijtimoiy aloqalarni ta'sir darajasi bo'yicha to'g'ri joylashtiring:



## VI Mavzu: Jamiyat sotsial strukturasi va stratifikatsion jarayonlar

Sotsial struktura tushunchasi. Kishilik jamiyati tarixida sotsial struktura muammosining talqini. Sotsial struktura to'grisidagi antik davr mutafakkirlarining tahlimotlari. P. Sorokinning sotsial stratifikatsiya to'grisidagi nazariyasi. Stratifikatsiya asoslari va mezonlari: iqtisodiy holat, mavqe, tahlim va hokimiyat. Stratifikatsiya va sotsial differentsiya. Stratifikatsion tizimlar: qullik, kasta, klan va sinf. Ochiq va yopiq tizimlar. Sotsial stratifikatsiya va sotsial harakatchanlik (mobillik) nazariyasi sinfiylik tahlimotiga qarshi goya sifatida. Jamiyat sotsial strukturasi rivojining zamonaviy tendentsiyalari. Bozor munosabatlari sharoitida sotsial strukturaning o'zgarishi. O'zbekistonda sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik jarayoni. Sotsial harakatchanlik (mobillik) to'grisidagi sotsiologiya klassiklari: M.Veber, E. Giddens, T. Parsons, P. Sorokin va boshqalarning qarashlari. Sotsial harakatchanlik belgilari. Sotsial harakatchanlik turlari: gorizontal va vertikal sotsial harakatchanlik. Guruhiy va individual harakatchanlik. Avlod ichidagi va avlodlar o'rtasidagi sotsial harakatchanlik. Strukturaviy sotsial harakatchanlik. Jamiyatda sotsial harakatchanlik yo'llari. Sotsial harakatchanlikning demografik omillari. Migratsiya va uning tarixiy shakllari. Emigratsiya va migratsiya. Mehnat va iqtisodiy migratsiya. Xorijiy ishchi kuchlar bozori. "Aqllar oqimi".

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz har bir siyosiy tarixiy davrda aholini tabaqalarga bo'lish orqali boshqarish, jamiyat tarkibiy sinflar, strata, ijtimoiy guruhlarning bo'lishi kabi, ijtimoiy hodisalariga duch kelamiz. Qadimiy har bir ijtimoiy guruh, ayrim olingan shaxs ham jamiyat ijtimoiy tarkibida o'z o'rniga ega. SHaxs o'zining jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumoti, mutaxassisligi, oilaviy ahvoli, millati va boshqa shu kabilar bilan muayyan ijtimoiy tarkibga kiradi.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibi-ijtimoiy guruhlar, ularning ijtimoiy hayotdagi o'z mavqei bilan farq qiluvchi tomonlari majmuidan iborat. Oldingi zamonlarda ham jamiyat turli guruhlardan tashkil topgan. Masalan, qadimgi Hindistonda jamiyat quyidagi kastalarga bo'lingan:

a) braxmanlar (jamiyatning oliy tabaqasi)
b) kshatriylar (harbiylar, savdogarlar va h.)
v) vayshlar (dehqonlar,hunarmandlar va boshqa shu kabilar)
g) shudralar (qora xalq - qullar)

Qadimgi yunon faylasufi Aflotun ham (er.avval 4-asr) jamiyat a'zolarini 3 guruhga ajratgan:

a) faylasuflar (yuqori tabaqa bo'lib, davlatni boshqaruvchi sinf);

b) harbiy jangchilar;

v) qullar - quyi tabaqa;

G'arb sotsilogiyasida jamiyat ijtimoiy tarkibi sotsial stratifikatsiya tushunchasi asosida o'rganiladi. Demak stratifikatsiya g'arb sotsiologiyasining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy tarkibining ijtimoiy tabaqalarga, guruhlarga ajratilganini, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni ifoda qiladi.

Stratifikatsiya (lot stratum - qatlam va fasio – bajaraman) - jamiyat tuzilmasi, alohida qatlamlari, ijtimoiy tabaqalanish belgilari tizimi va tengsizlikni ifoda etuvchi sotsiologik tushunchadir.

Sotsial stratifikatsiya - sotsiologik tushuncha bo'lib, jamiyat va uning ayrim qatlamlari tuzilishini, ijtimoiy tabaqalanish, tengsizlik belgilari tizimini ifodalaydi, yoki boshqacha aytganda jamiyatning mulk, maqom va hokimiyat munosabatlaridan kelib chiqadigan tizimi bo'lib, u ijtimoiy rollar va vazifalarni o'zida aks ettiradi. Sotsial stratifikatsiya jamiyatdagi mehnat taqsimotida turli guruhlarning ijtimoiy differentsiasidan (tabaqalanishuvi), shuningdek u yoki bu faoliyatning ahamiyatini va ijtimoiy tengsizlikni qonuniylashtiruvchi qadriyatlar va madaniy namunalar (standartlar) tizimining xususiyatidan kelib chiqadi. Ijtimoiy stratifikatsiyaning asosiy vazifasi - turli faoliyat xillari uchun rag'batlantiruvchi tizim yordamida ijtimoiy rollarni mos ravishda idrok etish va bajarishni ta'minlashdir.

Sotsial stratifikatsiyada ma'lumot, maishiy sharoit, mashg'ulot daromad, ruhiy, din va shu kabi belgilar asosida jamiyat «yuqori», «o'rta» va «quyi» sinflar hamda strat (qatlam)larga bo'linadi. Tengsizlik har qanday jamiyatda bor. Sotsial stratifikatsiya tizimida kishilarning o'z qobiliyatlari va kuch-g'ayratlariga muvofiq maqomlarni o'zgartirishlari (sotsial mobillik) esa jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi va sinfiy kurashni «ortiqcha» qilib qo'yadi (Marksistik tadqiqotlar ijtimoiy sinflar nazariyasiga asoslanib kelingan)

Jamiyat ijtimoiy tarkibi turli ijtimoiy birliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ham ifodalaydi. Masalan:

- ijtimoiy-sinfiy, guruhlararo (sinflar, ijtimoiy tabaqalar, qatlamalar);
- ijtimoiy-demografik (yoshlar, o'rta yoshlar, xalqlar);
- ijtimoiy-professional (kasb-korga qarab o'qituvchilar, injener, tibbiyot xodimlari va h.k.);
- ijtimoiy-hududiy (mintaqa, shahar, qishloq, rayon, mahalla, axolisi)

Ijtimoiy o'zgaruvchanlik tushunchasi: Ijtimoiy o'zgaruvchanlik sotsiologik tushuncha bo'lib, demografik va ijtimoiy faoliyatlarda qo'llaniladi. SHaxsning bir sinfdan ikkinchi bir sinfga, bir ijtimoiy guruhdan ikkinchi bir ijtimoiy guruhga o'tishi, jamiyat ijtimoiy tarkibida tutgan o'rnini, o'zgarishini bildiradi.

SHaxs misolida go'dak bola, o'smir, yoshlik, o'rta yoshlik, qarilik. Ma'lumot, oliy, hunar o'rganadi, kasb egallaydi. Uning jamiyatda tutgan o'rni o'zgarib boradi. O'quvchi edi, ishchi bo'ldi, yo student bo'ldi, nafaqaxo'r va boshqa.

Jamiyat misolida. Jamiyat asosini tashkil etgan insonlar hayotida ijtimoiy o'zgaruvchanlik jarayoni sodir bo'ladi. Sinflar paydo bo'lishida, sinflarning bir ko'rinishdan ikkinchi bir ko'rinishga o'tishida, jamiyat sinfiy strukturasida, undagi ishlab chiqarish kuchlari joylashishida, taraqqiyotida, fan, texnika, madaniyat, sa'nat taraqqiyotida o'z aksini topadi. Masalan, qul, krestyan, ishchi, sovxozchi, pomeshchik, kapitalist, fermer.

Ijtimoiy o'zgaruvchanlik turli ko'rinishlarda sodir bo'ladi va sotsial mobillik tushunchasi bilan izohlanadi.

Sotsial mobillik - individ, sotsial guruhning bir sotsial qatlamdan boshqa bir qatlamga o'tishi. U yoki bu sotsial sub'ektning sotsial strukturadagi o'rnining o'zgarishi. Sotsial mobillik gorizontal va vertikal mobillik ko'rinishida bo'ladi. Gorizontal mobillik individ yoki sotsial ob'ektningg bir sotsial holatdan shu darajadagi boshqa holatga o'tishi. Masalan, bir oiladan boshqasiga, bir diniy guruhdan ikkinchisiga, bir turar joydan boshqasiga va h. Vertikal mobillik esa, individ yoki sotsial ob'ektning bir sotsial qatlamdan boshqasiga o'tishini anglatadi. Bunga misol sifatida kasb bo'yicha ko'tarilish, moddiy ahvolning sezilarli darajada o'zgarishi, hokimiyatning boshqa pog'onasiga ko'tarilish va boshqalar kiradi.

Sotsial mobillik individual, guruhiy, ko'tariluvchan, pasayuvchan, ixtiyoriy va majburiy mobilliklarga ham bo'linadi.

Sotsial mobillikni belgilashda hokimiyatda bo'lish, daromad, ma'lumot, yosh darajasi, ijtimoiy kelib chiqish kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy o'zguruvchanlik ( mobillik) quyidagi yo'nalishlarda ham namoyon bo'ladi :

1. Reproduktiv. Ishlab chiqarish, tuzilishi, ekologik o'zgarishlar.
2. Statusli - xizmat pog'onasiga ko'tarilish, hayot darajasi va boshqa.
3. Territorial - qishlokdan shaharga ko'chish, ishlab chiqarishni ko'chirish, bir davlatdan ikkinchisiga qo'shish va h.k.
4. Ma'naviy - manfaatlar, qadriyatlar, fikr, gushunchalar, his-tuyg'ular.
5. Siyosiy (sinfiy struktura), hukmronlik shakli.
6. Ilmiy-texnikaviy va hokazo.

Bozor munosabatlarining tarkib topishi jarayonida O'zbekiston ijtimoiy tarkibida keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar sinflar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqalar o'rtasidagi turli munosabatlarda har tomonlama ifodasini topmoqda.

“Sotsiologiya” fani oldida shakllanib kelayotgan yangi ijtimoiy munosabatlar va ularning xususiyatlari, bozor munosabatlariga o’tish jarayoni hamda uning kelgusidagi ijtimoiy oqibatlarini, mehnat munosabatlarining yangi sharoitdagi o’ziga xos jihatlarini o’rganish masalasi ko’ndalang bo’lib turibdi. Sotsiologiya va uning maxsus nazariyasi- mehnat sotsiologiyasi doirasida bu muammolarning ham nazariy, ham amaliy tomonlari o’zaro dealektik bog’liq holda olib qaralishi lozim. Mehnat faoliyati bilan bog’liq bo’lgan jamiyat hayotining barcha jihatlari, jarayonlari konkret sotsiologik tadqiqot asosida o’rganiladi.

Mehnat sotsiologiyasining vazifasi uning predmeti bilan bog’liq bo’lgan kishilarning ijtimoiy hayot qonuniyatlari, mehnatning ijtimoiy muammolari, mehnat faoliyati jarayonlarini o’rganishdan iborat. Sotsiologiya ning bu maxsus nazariyasi mehnat sohasidagi tadqiqotlarning xususiy printsiplari, kategoriyalari va usullaridan foydalanadi. Mehnat sotsiologiyasi quyidagi asosiy ijtimoiy munosabatlar jarayonini o’rganadi: ishlab chiqarish vositalariga va mulkka bo’lgan munosabatlar, mehnat kooperatsiyasi va taqsimoti, bajarilayotgan mehnatning sharoiti va mazmuni, mehnat turlarining o’zgarishi, mehnatga qarab taqsimlash, jamiyat a’zolarining ijtimoiy foydali mehnatga bo’lgan ehtiyojlarining o’sib borishi, ishchi va xizmatchilarning mehnat sharoiti va turmush tarziga qarab, turli ijtimoiy shart-sharoit va omillar ta’sirida mehnat xulqining o’zgarib borishi, mehnat xulqi motivlari va tiplari, shaxsiy daromadlarning miqdori va uni olish yo’llari, mehnat kadriyatlari va boshqalar orqali mehnat munosabatlari sohasidagi qonuniyatlarni shu jumladan, mehnat mohiyati namoyon bo’lishining o’ziga xos shakllari bilan bog’liq muammolarni o’rganadi. Mehnat jarayoni o’z ichiga uch lahzani kiritadi: 1) insonning foydali faoliyati yoki mehnatning o’zi; 2) mehnat mavzusi, ya’ni bu faoliyatning nimaga yo’naltirilganligi; 3) ishlab chiqarish qurollari, bular bilan inson ushbu mavzuga ta’sir ko’rsatadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, iqtisodiy hayot Sotsiologiya ning tadqiqot ob’ektiga aylandi. Xuddi shu davrda ishlab chiqarishda inson omilining yetakchilik roli anglab yetildi va bu boradagi tafakkur shakllanib bordi.

Hozirgi davrda iqtisodiy hayotni ma’lum bir konseptsiyalarsiz, mafkuraviy maqsadlarga asoslanmasdan tasavvur qilib bo’lmaydi. Iqtisodiy hayot sotuvchi va xaridor o’rtasida madaniy, ma’naviy munosabatlarsiz mavjud bo’lmaydi. Agar ishchining mafaatlari, ehtiyojlari inobatga olinmasa, ularning maqsadi va intilishlariga sharoit yaratilmasa, hech qanday texnik va texnologiya muammolarini hal qilishga imkoniyat bermaydi.

G’arb davlatlarida XX asr 60-yillarida «Iqtisodiy sotsiologiya» fanining ijtimoiylashuvi tendentsiyasi kuchaydi. «Iqtisodiy sotsiologiya» ni bugungi kunda global va xususiy masalalarni hal qiluvchi fan sifatida tasavvur qilish mumkin.

Iqtisodiy hayotni ijtimoiy talqin etishga birinchi bor G’arbda F.Teylor e’tibor berdi. U ishchilarning mehnatga bo’lgan qiziqishini o’rgandi va 1894 yili mehnatga haq to’lash tizimiga asoslangan nazariyani ishlab chiqdi. Bu g’oyada «iqtisodiy odam» konseptsiyasi asosida shu narsalarga e’tibor berildi:

1. Eng qisqa vaqtda ishchi qancha ko’p hajmda ish bajarsa, unga shuncha haq to’lash.
2. Ishning hajmini emas, balki samaradorligi va yaxshiligini rag’batlantirish.
3. Ishchilarga kam ish haqi berish va ko’p berish baravar zararlidir.
4. Ishlovchida yuksak haq oluvchi bo’lishga intilish hissini uyg’otish, yuksaklikka intilib yashash.

Teylor kontseptsiyasi Amerika sanoatida Ford tomonidan ishlab chiqarishga tatbiq etildi, konveer ishlab chiqarishi sharoitida mehnatning samaradorligi rag’batlantirildi.

Jamiyatni taraqqiy ettirish va iqtisodiyotni isloh qilish yo’llarining xilma-xilligi bir qancha omillarga bog’liq. Avvalambor, bunga ularning aniq maqsadni ko’zlab yo’naltirishi va iqtisodiyotning amal qilish printsiplari sabab bo’ladi. Bir necha o’n yillar mobaynida jahonda ijtimoiy taraqqiyotning bir-biriga mutlaqo zid bo’lgan “kapitalistik va “sotsialistik” nazariyalari o’zaro kurashib, jaxonda o’z ta’sirini o’tkazishga intilib keldi. Sobiq Ittifoq iqtisodiyotida moddiy rag’batlantirish o’rniga tenglik tushunchasi maydonga tashlandi. Natijada mulkning davlat va kooperativ shakli mutlaqlashtirildi. Bu esa ishchining mehnatdan, mulkdan begonalashuviga olib keldi. Kam ish haqi oluvchilarning ish haqi yuqori malakali mutaxassislarni rag’batlantirmasdi.

Iqtisodiy kontseptsiyalardan yana bir necha xilini ko’rib chiqishimiz mumkin, ya’ni:

“Asosiy ehtiyojlar kontseptsiyasi”. Aholining eng kam tirikchilik ehtiyojini kafolatli tarzda ta’minlash va ish bilan band qilish muammolarini hal etish ushbu kontseptsiyaning asosiy maqsadidir.

“Maqbul yoki tegishli texnologiya” konseptsiyasi. Bu kontseptsiya aholi bandligini ta’minlaydigan va mahalliy xom-ashyoni, avvalo qishloq xo’jalik mahsulotlarini qayta ishlashga qaratilgan sermehnat texnologiyani rivojlantirish zarurligiga asoslanadi.

“O’z kuchiga jamoa bo’lib tayanish kontseptsiyasi”. Bu kontseptsiya mavjud zaxiralardan to’liqroq foydalanishga va rivojlanayotgan mamlakatlarning taraqqiy etgan mamlakatlarga qaramligini kamaytirish maqsadida ular o’rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko’pgina andozalari, iqtisodiy taraqqiyot yo’llari yuqorida ko’rsatilgan kontseptsiyalar va nazariyalarning o’ziga xos qo’shilmasidan iborat edi.

Hozirgi sotsiologlar va iqtisodchilar jamiyatning quyidagi ko'rinishlarini tatqiq etmoqdalar:

1. An'anaviy jamiyat.
2. Industrial jamiyat.
3. Postindustrial jamiyat.

1. An'anaviy jamiyatda yerga bo'lgan mulkchilik asosiy o'rinni egallaydi. Boylik tashqi manbalar asosiga qurilib, tabiat manbaalarini egallash, o'zlashtirish kuchayadi.

2. Industrial jamiyatda mulkning barcha ko'rinishlariga bo'lgan munosabat shakllanadi. Yirik mashina ishlab chiqarishi qo'l mehnati o'rniga kelib, yuksak mehnat unumdorligiga asoslangan ishlab chiqarishni izohlaydi. Avtomatik ishlab chiqarish vujudga keladi. Ommaviy ishlab chiqarish belgiga aylanadi. Ishlab chiqarishda yuksak malakali ishchilarning roli ortib boradi, ular mutaxassislashadilar. Natijada mashina yordamida standartlashgan operatsiyalar bajariladi. Xo'jalik sohasida sanoat va moliyaviy kapital ustunlik qiladi. Mahsulot bozor uchun mo'ljallangan bo'ladi. Industrial jamiyatni iqtisodiy jamiyat deb atash ham mumkin. CHunki real borliq iqtisodga qartilgan bo'ladi. Natijada erkin xalqaro iqtisodiy hamkorlik mamlakat davlatlari qatoriga qo'shila boradi. Urbanizatsiyalashuv ta'lim tizimiga yangicha yondashuvni, ommaviy madaniyatni vujudga keltira boradi.

3. Postindustrial jamiyatda intellektual mulk, insonning aql-zakovati, bilimi asosiy o'ringa chiqib qoldi. XX asr o'rtalaridan qator G'arb davlatlari jamiyatning uchinchi bosqichi – postindustrial jamiyatga o'ta boshladi. Sotsiologiyada bu jamiyat nomi har xil, jumladan, «informatsion» jamiyat bo'lib, u inson bilimi va informatsiya zahiralariga ko'ra jamiyatning asosiy manbai bo'lib qoladi. Zamonaviy mikroelektronika va kompyuter texnikasiga asoslanmoqda. Bular ommaviy axborotlarni vujudga keltiradi va qayta ishlab chiqaradi. Kommunikatsiya tizimida xo'jalik tizimi tubdan o'zgaradi. Tabiat manbalaridan, ishlab chiqarish, metallurgiya, qishloq xo'jaligi qisqaradi, mashina ko'lami kengayadi, aholining deyarli 50 foizi shu sohani band etadi. Postindustrial jamiyat - maishiy xizmat qilish jamiyati, deb ham yuritiladi. Ishlab chiqarish (moliyaviy, bank, sug'urta, savdo, ilmiy maslahat, dastur) va noishlab chiqarish sohalarida xizmatlar (fan, ta'lim va boshqa) o'sib boradi. Bunda urbanizatsiya jarayoni industirial jamiyatga nisbatan teskari ravishda yuz beradi. Qishloqqa sanoat kirib boradi.

Teylor fikriga ko'ra, intellektual omil birinchi o'ringa chiqadi. Inson yuksak kapital emas, balki o'z mohiyatini, bilim va iqtidorini, qadriyatlarini namoyon qiluvchi ijtimoiy kuchga aylanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, an’anaviy jamiyatda iqtisodiy masalalar insonning tabiatga bevosita munosabati orqali hal qiligan bo’lsa, industrial jamiyatda inson tomonidan yaratilgan sun’iy ishlab chiqarish vositalari iqtisodning asosini tashkil etadi. SHu boisdan ham bu jamiyat iqtisodiy jamiyatdir. U iqtisodiy munosabatlarni belgilaydi. Hozirgi iqtisodiyot ijtimoiylashib bormoqda. Intellektual salohiyat asosiy o’ringa chiqa boradi.

Asosiy tayanch tushunchalar:

SHaxs – sotsial mavjudot, sotsial hayotning ongli sub’ekti bo’lgan xar bir inson. Individning samarali faoliyat va muloqotlar asosida sotsial munosabatlarga kirishini va sotsial xususiyatlarning bir butunligini anglatuvchi tushuncha.

Marginal shaxs – individ yoki shaxsning ikki yoki undan ortiq madaniyatlar chegarasidagi oraliq holatni egallashi va qisman ularga qorishib ketishini ko’rsatuvchi tushuncha.

Sotsiallashuv – individ tomonidan hayoti davomida o’zi yashayotgan va faoliyat ko’rsatayotgan jamiyatdagi sotsial me’yorlar va madaniy qadriyatlarni o’zlashtirish jarayoni. Oila, maktab, mahalla, qarindosh-urug’lar, jamoatchilik sotsiallashuvning muhim agentlari bo’lib xizmat qiladilar.

Jamiyat – yaxlit sotsial tizim bo’lib, u o’zining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy sohalariga ega bo’ladi. Unda yagona hudud doirasida kishilar umumiy madaniy qadriyatlar va sotsial me’yorlar (norma) asosida birlashadilar.

Postindustrial jamiyat – insoniyat va alohida davlatlar ilg’or taraqqiyotining uchinchi bosqichi (*agrar va industrial jamiyatdan keyingi*). Unda zamonaviy ilmiy-texnologik, axborotlashgan inqiloblar asosida chuqur sotsial o’zgarishlar sodir bo’ladi.

Elektorat – u yoki bu siyosiy partiya, siyosiy tashkilot va uning vakillari hamda mustaqil deputatlarga ovoz beruvchi saylovchilar guruhi. Elektoratnig ko’lami demokratiya darajasi, siyosiy partiyalarning faolligi, ommaning siyosiy yetukligi bilan bog’liq bo’ladi.

Muholifat – (*arabcha “muholafat” – kelishmovchilik, teskarilashish, qarama-qarshilik, ziddiyat*) – rasmiy siyosatga, xukmron qarashlarga mos bo’lmagan nuqtai nazar, alohida siyosiy yo’l, demokratiyaning muhim belgisi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1.Sotsial stratifikatsiya tushunchasi.
2.Sotsial mobillik nima?

3.Gorizontal mobillik nima?
4.Vertikal mobillik nima?
5.An’anaviy jamiyat tushunchasi
6.Industrial jamiyat nima?
7.Postindustrial jamiyat?
8.Mehnatning turlari va shart-sharoitlari tushunchasini izohlang.
9. Mehnat jamoalari haqida qanday tasavvurga etasiz?
10.Mehnat jamoalarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
11.Ishsizlikning sabablari, turlari va uni bartaraf etish yo’llarini aytib bering.

# VII Mavzu: Sotsial munosabatlar

Sotsial munosabatlar tushunchasi. Sotsial munosabat turlari: hamfikrlik, kooperatsiya, konfliktlar, kurash, begonalashuv, befarqlik, krizis, kamsitish, notenglik. Sotsial munosabatlar tizimidagi plyuralizm. Sotsial munosabatlarning asoslari. Hamfikrlik, barqarorlik va kooperatsiya - sotsial tizimlarning muvaffaqiyatli ishlashining omillari sifatida. E.Dyurkgeym kontseptsiyasida hamfikrlik tushunchasi. Kooperatsiya ijtimoiylikning asosiy belgisi sifatida. Pozitivizm sotsiologiyasida barqarorlik va inqiroz ongi. Barqarorlikni strukturaviy-funktsional asoslash. Begonalashuv va tanazzul. E.Dyurkgeymning anomiya (qonunsizlik) kontseptsiyasi, F.Tennis, M.Veber, G.Zimmel, ekszenstentsial va fenomenologik sotsiologiya asoschilari tahlimotlarida begonalashuv va jamiyatdagi inqiroz hodisalarining o’zaro aloqadorligi to’grisidagi fikrlari. Begonalashuv turlari va ularning ijtimoiy oqibatlari. Tenglik va plyuralizm ijtimoiy tuzum tamoyillari sifatida. Milliy goya va milliy mafkuraning sotsial munosabatlar tizimidagi o’rni.

Ijtimoiy munosabatlar - kishilarning faoliyati jarayonida yuzaga kelgan o’zaro munosabatlardir. Ular turli jamoalar ijtimoiy guruhlar, sinflar va ularni tashkil qilgan kishilar o’rtasidagi munosabatlar bo’lib, ularni bir butun sotsial organizm qilib bog’lanishiga e’tibor qaratadi. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish vujudga kelishi bilan paydo bo’ladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning paydo bo’lishi jamiyat taraqqiyotida chorvachilik paydo bo’lishi, dehkonchilik, savdoning yuzaga kelishi bilan bog’lik. Ijtimoiy munosabatlarning turlari: hamfikrlilik, kooperatsiya, konfliktlar, kurash, befarqlik, begonalashuv, krizis, kamsitish, tengsizlik.

Ijtimoiy munosabatlar o’z mohiyatlari bilan jamiyat tarakqiyotiga ijobiy ham salbiy ta’sir etadi.

<u>Ijobiy munosabatlar ta’siri:</u> hamfikrlilik, kooperatsiya, kurash.

<u>Salbiy ta’sirli munosabatlar:</u> befarklik, kamsitish, konfliktlar, begonalashuv, krizis, tengsizlik.

Ijtimoiy munosabatlar sistemasida plyuralizm (lot. ko’plik katta ahamiyatga ega. Plyuralizm kontseptsiyasiga ko’ra borliq asosini bir necha yoki juda ko’p bir-biri bilan bog’lanmagan substantsiyalar tashkil etadi. Plyuralizm nemis filosofi Volf tomonidan kiritilgan.

Substantsiya (lot. mohiyat) narsa va hodisalarning asosini tashkil etuvchi omil. Substantsiyaning ham materialistik ham idealistik qarashlari bor.

Ijtimoiy munosabatlar 2 turga bo’linadi:

1.Moddiy munosabatlar.

2.Mafkuraviy (ideologik) munosabatlar.

Moddiy munosabatlar – inson hayotini moddiy taraqqiyotidagi munosabatlar: inson yashashi, bor bo'lishi uchun, avvalo u moddiy ehtiyojini ta'minlashi kerak. U oziq-ovqat, kiyim, turar-joy bilan ta'minlanishi lozim. Ana shu ehtiyojini qondirish uchun u jamiyatda boshqa insonlar, guruhlar bilan munosabatda bo'ladi. Xuddi shuningdek oila ham, guruhlar ham, holi davlat ham nihoyat butun jamiyat hisoblanadi.

Mafkuraviy (ideologik) munosabatlar – siyosiy, huquqiy, axloqiy va diniy munosabatlar. Uning asosiy o'zagini moddiy munosabatlar tashkil etadi. Demak, moddiy munosabatlar bazis, ideologik munosabatlar ustqurma hisoblanadi.

Madaniy munosabatlar ham mavjud.

Ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik:

1) insonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik;

2) turli ijtimoiy guruh, qatlam, toifalr o'rtasidagi hayotiy bog'liqlik;

3) insonlarning ijtimoiy-maishiy sohadagi o'zaro bog'liqligi mavjud.

Ijtimoiy munosabatlarda sohalarga doir ijtimoiy institut turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) iqtisodiy institutlar;

2) siyosiy institutlar;

3) nikoh, oila va qon-qarindoshlik;

4) tarbiya institutlari;

5) madaniyat sohasi institutlari.

G'arb sotsiologiyasida, xususan, sotsial bixevioristik nazariyada ijtimoiy munosabatlar: inson "psihologik mashina" tamoyilidan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Unga ko'ra, individ ijtimoiy aloqadorlikning faol yaratuvchisi sifatida o'z shaxsiy hulqini va hayotdagi mavqeini yaratadi.

Fenomenologik sotsiologiya vakillari A. SHutts- X. Lukman A. Sikurel va boshqalar ijtimoiy munosabatlarning sub'ektiv tabiatiga ko'proq e'tiborni qaratadilar. Sub'ektiv kechinmalar jarayonini ijtimoiy hayotning asosiy sohasi sifatida tadqiq qiladilar.

Ijtimoiy munosabatlar mohiyatini tushuntirib, "tabiiy qurilma" tushunchasini qo'llaganlar. Bu tushuncha insonning kundalik ekzistentsiyasi — mavjudligini ifodalaydi. "Sodda realizm" "intersubektivlik" kabi tushunchalar ham mavjud

Ijtimoiy aloqadorlik va munosabatlarning o'ziga xos sotsiologik konuniyatlarini ifodalaydi va o'zida mujassamlashtiradi.

Amerika sotsiologi T.Parsons fikricha, ijtimoiy aloqadorlik, munosabatlar ijtimoiy tizimlar elementlarining tartibli munosabatlaridan iboratdir. Bunday tartiblilik ikki jarayonda ta'minlanadi:

✓ ijtimoiy tizimlarning o'z muvozanatini saqlashga intilishi;

- ✓ ijtimoiy tizimlarning tashqi muhitga nisbatan o’z chegarasini saqlashga intilishi orqali.

Ijtimoiy munosabatlarda moddiy ishlab chiqarish munosabatlari, siyosiy, huquqiy, ma’naviy, ahloqiy va boshqa munosabatlarga nisbatan belgilovchi xarakterga ega bo’lib, jamiyat hayotining umumsotsiologik qonuniyatlarini ifodalaydi. Unda ro’y beradigan o’zgarishlar asta-sekin, boshqa barcha munosabatlardagi o’zgarishlarga olib keladi, shuningdek, ma’naviyatdagi tub o’zgarishlarga sabab bo’ladi.

Hozirda, jamiyatimiz hayotida bozor munosabatlarining asta-sekin tarkib topib borishi o’z navbatida boshqa barcha ijtimoiy munosabatlarda muayyan o’zgarishlarni keltirib chiqarishi tabiiy. Ayniqsa, bunday o’zgarishlar shaxs va uning jamiyat hayotidagi munosabatlarida yaqqol ko’rina boshladi. Hozir shaxsning faolligi, ijtimoiy mavqei ortmoqda.

Ijtimoiy mavqe (status) tushunchasi - alohida olingan inson yoki ijtimoiy guruhning jamiyatda, mavjud ijtimoiy tizimda tutgan, egallab turgan mavqeini ifodalaydi. Bu tushuncha orqali kishilarning ijtimoiy kelib chiqishi, irqi yoki o’zining harakati (ma’lumoti ko’rsatilgan xizmati) orqali erishgan darajasi o’rganiladi.

Jamiyat hayotini ilmiy tahlil qilish jarayonida sotsiologiyada ijtimoiy sanktsiyalar tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Sanktsiya so’zi lotinchadan olingan bo’lib, qa’tiy qaror ma’nosini anglatadi.

Ijtimoiy sanktsiyalar deb, ijtimoiy guruh yoki tizimning individ xulqiga ijtimoiy normada ijobiy yoki salbiy tomonga o’zgarishiga nisbatan reaktsiyasi tushuniladi. Ijtimoiy sanktsiyalar jamiyat hayotini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo’lib, shaxsning ijobiy xatti-harakati uchun rag’batlantirsh yoki yomon salbiy xatti harakati uchun jazo belgilashi bilan ijtimoiy nazorat vositasi bo’lib xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatning paydo bo’lishi bilan insonning ijtimoiy va siyosiy munosabatlardagi o’rni yuksalib bordi. U jamiyatlarda o’zaro munosabatlarning bir-biriga ta’sir etish darajasi va mehnat taqsimotining chukurlashuvi–uning sekinlik bilan yuksak ta’lim va tajribaga, shuningdek, yuqori kasbiy malakaga asoslanishi, ijtimoiy munosabatlarni qonunlar, me’yorlar, shartnomalar asosida muvofiqlashtirish rasmiy tizimining yaratilishi, dinning davlat va boshqaruvdan ajratilishi, ijtimoiy institutlarning ko’payishi va rivojlanishi kabi omillar natijasida insonlararo munosabatlar yuksalib, siyosiy institutlarni nazorat etish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish, jamiyatda tenglik o’rnatish imkoniyatlari paydo bo’ldi. XX asrga kelib eng takomillashgan va zamonaviy kishilik birliklari fuqarolik jamiyati, deb atala boshladi.

Fuqarolik jamiyati g’oyasi oliy maqsad sifatida bir necha asrlardan beri yashab kelmoqda. Fuqarolik jamiyati shunday jamiyatki, unda aholining biron-bir guruhi boshqa bir guruhni o’ziga bo’ysundira olmaydi, shuningdek, erkaklar bilan ayollarni bir-biri bilan bog’lab turuvchi ko’plab ijtimoiy, fuqaroviy, diniy, iqtisodiy, madaniy aloqa va munosabatlar yanada rivojlanadi.  Bu g’oya 80–yillarda avj olgan demokratiyalashtirish jarayoni natijasida alohida mazmun kasb eta boshladi va u totalitar davlatlarga qarama-qarshi bo’lgan ijtimoiy andoza sifatida talqin qilina boshlandi.

Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda har bir shaxs boshqalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat ko’rsata olishi mumkin. Fuqarolik jamiyati shu tarzda inson ulug’vorligini yuksaklikka ko’taradi.

Hozirgi zamon rivojlangan mamlakatlarida barpo etilgan fuqarolik jamiyatlari to’g’risidagi tasavvurlardan kelib chiqadigan bo’lsak, u holda fuqarolik jamiyati bu:

birinchidan, jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang’ich  nodavlat tizimlarini o’z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir;

ikkinchidan, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma’naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir;

uchinchidan, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli davlat organlari taz’yiqlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyat bo’lib unda ular o’zligini namoyon qila olishlar uchun doimiy imkoniyatlarga ega bo’ladilar.

SHu bilan bir qatorda, hozirgi davrda fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari shakllandi. Bular asosan quyidagilardan iborat:

Iqtisodiy sohada: nodavlat tashkilotlar; kooperativ shirkatlar; ijara jamoalari; aktsiyadorlik jamiyatlari; uyushmalar; korporatsiyalarning mavjudligi.

Ijtimoiy sohada:  oila; partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar; ish va yashash joylaridagi o’z-o’zini boshqarish organlari; nodavlat ommaviy axborot vositalari; jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning zamonaviy shakllari, ijtimoiy ixtiloflarni kuch ishlatmasdan, taz’yiqsiz, qonunlar doirasida hal qilish amaliyotining mavjudligi.

Ma’naviy sohada: So’z vijdon va fikrlar erkinligi; o’z fikrlar erkinligi; o’z fikrini ochiq bildira olishning real imkoniyatlari; ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jihatlardan ta’minlanganligi.

SHuningdek, fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta’minlovchi shart-sharoitlar ham borki. Ularsiz bu jamiyatning institutlari rivojlanmaydi. Bular jumlasiga jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning turlicha manfaatlarini ifoda etuvchi rivojlangan ijtimoiy strukturalar mavjud bo’lishi lozimligi kiradi. Qolaversa, jamiyat

a'zolarining to'la mustaqillik bilan faoliyat ko'rsata olish qobiliyati, ularning eng rivojlangan darajadagi ijtimoiy, intellektual, ruhiy jihatlardan yuksalishi sodir bo'lishi ham taqozo qilinadi.

So'nggi shart-sharoit esa har bir fuqaroning o'z mulkiga ega bo'lishi, bu mulkni o'zi istagan tarzda tasarruf qila olishi uchun shaxsiy yoki jamoaviy huquqi ta'minlangan bo'lishi lozimligidir.

Fuqarolik jamiyatining belgilari, mezonlari va institutlarini tasavvur qila olgan har bir kishiga, ko'rinib turibdiki, bunday demokratik jamiyatning asosini o'z-o'zini boshqarish va jamoat tashkilotlari o'zaro munosabatlarining majmuasi tashkil qilar ekan.

Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning alohida o'z vazifalari, nodavlat va jamoat tashkilotlarining esa alohida uz vazifalari bo'ladiki, ular bir-birini to'ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ta'minlaydi. Davlatning ham nodavlat tashkilotlarning ham o'z harakat doirasini o'zlari uchun belgilagan faoliyati u yoki bu tomonga ozgina o'zgarganda ham bunday ijtimoiy-siyosiy muvozanatlar buzilib, demokratik me'yordan chekinish yohud chetga chiqib ketish ro'y berishi mumkinligini asrimizning so'nggi davrdagi rivojlanish amaliyoti ko'rsatdi.

Fuqarolik jamiyati insonlardagi o'z-o'zini anglash, ularning ob'ektiv ravishdagi mas'ulyat hissini sezish qobilyatining yuksalishiga hamohang ravishda shakllanib boradi. Bu jamiyatda shakllangan mamlakatlar fuqarolari siyosiy, axloqiy va huquqiy madaniyatlari darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Sotsial sinflar – (*lotin. classic – guruh, razryad*) yirik sotsial guruhlar bo'lib, o'zida umumiy sotsial-iqtisodiy va siyosiy maqomga ega bo'lgan hamda o'z ijtimoiy holatiga ko'ra bir-biridan farqlanuvchi kishilarni birlashtiradi.

Fan – bilimlarni yaratish va to'plashni ta'minlovchi sotsial institut; ijtimoiy ongning muhim shakllaridan biri. Fanlar tasnifiga ko'ra bir qancha yo'nalishlarga bo'linadi. Sotsiologiyada fundamental va amaliy fanlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Ta'lim – institutlashgan jarayon bo'lib, uning asosida qadriyatlar, bilim va malaka bir kishi, guruh yoki uyushma tomonidan boshqalarga o'tkaziladi.

Longityud tadqiqot – takroriy tadqiqot ko'rinishi bo'lib, bir sotsial ob'ekt ustidan uzoq muddatli, davriy kuzatish olib boriladi. Bu kuzatish natijasida sotsial ob'ektdagi tegishli o'zgarishlar aniqlanadi.

Kuzatish – sotsiologik tadqiqot usuli bo'lib, uning yordamida voqealar va ularning kechish jarayonlarini to'g'ridan-to'g'ri va bevosita qayd etish orqali tegishli axborotlar olinadi.

So'rov – dastlabki axborotni to'plash usuli bo'lib, uning vositasida ma'lum bir sotsial guruh vakillariga savollar bilan murojaat qilinadi. So'rov yoppasiga va tanlash ko'rinishlarida bo'ladi.

Intervyu – tadqiqot dasturida ko'zda tutilgan savollarga javob olish uchun o'tkaziladigan maqsadli suhbat. Intervyu sotsiolog va so'rov o'tkazuvchi boshqa kishilar tomonidan olib boriladi.

Reprezentativlik – sotsiologik tanlovning xususiyati o'rganilayotgan asosiy sohaning xarakteristikasini (*tavsifini*) aks ettirishini ifodalovchi tushuncha.

Respondent – sotsiologik anketa va boshqa shakldagi so'rov savollariga javob beruvchi kishi.

Tanlov – asosiy tadqiqotning mohiyati, xususiyatlari va nisbatini o'zida qat'iy aks ettiruvchi aholining ma'lum bir qismi, bo'lagini ifodalovchi tushuncha.

Gender tadqiqot – sotsiologik tadqiqot turi bo'lib, uning asosida bir madaniyat doirasidagi jins xususiyatlariga ko'ra farqlanuvchi kishilar xulq-atvorini o'rganish masalasi yotadi.

Amaliy sotsiologiya – sotsiologik bilimning tarmog'i sohasi bo'lib, fundamental sotsiologiya bag'rida sotsial hayotning tashkil etilishi, amal qilishi va rivojlanishiga doir amaliy savollarni xal qilishning yo'llari, shakllari va usullarini va shu asosda tegishli ko'rsatmalar, rejalar va taxminlarni ishlab chiqish jarayonini o'rganadi.

Ekspert so'rov – savollarning yozma yoki og'zaki shaklda tadqiqot predmeti sohasida maxsus chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassis-ekspertlar oldiga qo'yilishi.

Sotsial axborot – jamiyat a'zolari, guruhlar, sotsial va siyosiy tashkilotlar, birlashmalar munosabatlaridagi almashuv vositasi bo'lgan sotsial va siyosiy hayot to'g'risidagi bilimlar, ma'lumotlar, dalillar, xabarlarning yig'indisi.

Monitoring – (*inglizcha "monitoring" tekshirib turish, nazorat etish*) – ma'lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, baholash va taxminlash (prognoz) tushuniladi.

## Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1. Ijtimoiy munosabatlar – qanday faoliyat jarayonida yuzaga keladi?
2. Ijtimoiy munosabatlar necha turga bo'linadi?
3. Ijtimoiy mavqe (status) tushunchasi.

# VIII Mavzu: Ijtimoiy taraqqiyot sotsiologiyasi

Sotsiologiyada ijtimoiy taraqqiyot tushunchasi. Ijtimoiy o'zgarish va taraqqiyot tushunchalarining nisbati. Ijtimoiy progress, regress, evolyutsiya va revolyutsiya ijtimoiy o'zgarishlarning shakli sifatida. Ijtimoiy progress muammolari. Ijtimoiy taraqqiyot shakllari: evolyutsion, revolyutsion va reformistik taraqqiyotlar. Evolyutsion rivojlanish va uning afzalliklari. Sotsial revolyutsiyalar va ularning salbiy oqibatlari. Sotsial reformalar va ularning turlari. O'zbek rivojlanish modelida milliy mentalitetning o'rni. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida milliy tafakkur tarzining ahamiyati. O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvni demokratiyalashtirish jarayonlarining o'ziga xosligi. Ijtimoiy taraqqiyotni boshqarish. Menejment va uning xususiyatlari. Global ijtimoiy-iqtisodiy tanazzullar va ularning ijtimoiy taraqqiyot jarayonlariga salbiy tahsiri. O'zbekiston ijtimoiy-madaniy xususiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tanazzullarga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishdagi ahamiyati.

Mahalla va mahalliy boshqaruv sotsiologiyasida 2 ta muhim masalaga e'tibor bermoq lozim. Bular:

Mahalliy hokimiyat organlari.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari.

1.Mahalliy hokimiyat organlariga «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» ning 9-104-moddalariga muvofiq viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hamkorlik boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlaridir. Ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab va vakolatlariga taalluqli masalalarni xal etadilar.

2.Fuqarolarning o'zini-o'zi (mahalliy) boshqarish organlari. «O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi» ning 105-moddasiga binoan «SHaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi».

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tarkibini fuqarolar yig'inlari, xususan, mahallalar tashkil etadi. Jamiyatda o'zini-o'zi boshqaruv tizimining muhim organi bo'lgan mahalla – bu, hududiy, kasbiy, turli yoshga oid va boshqa shu kabi turli xil ijtimoiy guruhlarning qiziqishi va irodasini o'zida mujassamlashtirib, ularni ijtimoiy hayotga joriy qiluvchi umumiy hamda alohida holatlarni namoyon qiladi.

Mahalla va mahalliy boshqaruv sotsiologiyasi aynan ana shu fuqarolarning o'zini - o'zi mahalliy boshqarish organlari faoliyatini va uning ijtimoiy jihatini tahlil qiladi.

1999 yil 14 apreldagi «Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari to’g’risida»gi yangi tahrirdagi qonunning 7-moddasiga muvofiq:

1) bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallalar faoliyati erkinlashtirildi;

2) mahallalar hokimiyat tizimidan chiqarildi;

3) qator imtiyozlar berildi;

4) boqimandalik kayfiyatidan ozod etildi;

5) «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyat sari» qadam tashlandi.Natijada mahallalar adolatli, demokratik jamiyatning negiziga aylanib bormoqda.

Avvalo mahallalar o’zini-o’zi boshqaruv tizimida quyidagi ijtimoiy vazifalariga e’tiborini qaratadi:

1. Mahalla – ona maskan. Oila ko’z ochib ko’rgan dargoh bo’lsa, mahalla Vatan ichidagi Vatandir. Vatan – eng oliy qadriyatdir.

2. Mahalla – avvalo sog’lom ijtimoiy muhitdir. Bu yerda kuchli ta’sirga ega bo’lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o’zaro munosabatlarni adolat va ma’naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. SHu ma’noda mahalla, Prezidentimiz Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, haqiqiy demokratik darsxonadir.

3. Mahalla – tayanch markazi. Kam ta’minlangan, ko’p bolali oilalar, yolg’iz keksalar va h.k. tayanchi hisoblanib kelmoqda.

4. Mahalla – ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, an’analar maskani.

5. Mahalla yoshlarni kasb-korga yo’naltiruvchi, ishsizlarni mehnat bilan ta’minlovchi ijtimoiy himoya hamdir.

6. Mahalla – tarbiya maskani. Bir bolaga yetti qo’shni ota-ona.

7. Mahalla – oila tinch-totuvligini, jipsligini mustahkamlaydigan joy. Otang – mahalla, onang – mahalla, deb bezij aytilmagan.

Umuman, mahallalar o’z hududida ishlab chiqarishni tashkil etishi, kichik korxonalar ochilishi, o’zi ishlab chiqargan mahsulotni sotishi, uning bir qismini mahalladagi ehtiyojmandlarga bepul tarqatishi, o’z hududidagi aholini ish bilan ta’minlashi, aholiga madaniy-maishiy xizmat ko’rsatishi mumkin.

Mahalla sub’ekti va uning ko’rinishlari. Mahalla boshqaruv tizimida muhim ahamiyatga ega bo’lgan  sub’ekt tushunchasiga e’tibor qaratish ilmiy mazmun kasb etadi. Mahalla sub’ektining o’ziga xos xususiyatini undagi boshqaruv funktsiyasi bajaradi. CHunki aynan shu funktsiya orqali mahallaning samarali ish faoliyati namoyon bo’ladi.

O’zbekiston hududida mahallalarni quyidagi 4 ta asosiy qismga ajratish mumkin:

shaharlardagi an’anaviy mahallalar;

shaharlardagi  kvartal mahallalar;

shaharchalardagi mahallalar;

qishloq mahalalari.

Mahallalar ijtimoiy hayotida quyidagi vazifalarni bajaradi:

oila muhofazasi;

obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va tozalik;

ijtimoiy himoyada faol ishtirok etish;

ma'naviyat va ijtimoiy huquqni shakllantirish;

siyosiy faollikni oshirish va hokazo.

Sotsiolog P.A.Sorokin fikricha, «Inson ijtimoiy organizm bo'lib, tabiatdagi barcha tirik organizm singari yashash uchun muhim bo'lgan barcha sharoitlarga ehtiyoj sezadi». Hukumatimiz tomonidan mahalla masalasiga e'tibor qaratilayotganligining sabablaridan biri-unda ijtimoiy aloqadorlikni shakllantiruvchi va kishilarni ijtimoiy guruh sifatida bog'lovchi jarayonlarning mavjudligidir. Bu jarayonlar:

a) ildizlar;

b) munosabatlar;

v) tashabbuskorlik. Bu holatlar kishilarni yanada jipslashtiradi.

SHaxsning ijtimoiy munosabatlariga kirishishi yig'ilib qolgan muammolar hamda har xil voqeliklar va tafsilotlar to'g'risida fikr yuritish yoki xulosa chiqarish imkoniyatini beradi. Bu holat, o'z navbatida, fuqarolarning siyosiy faollik roli ortib borishi uchun zamin xizmatini bajaradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mahalla munosabatlarida barcha qatlamlardagi kishilarning ishtirok etishi bir tekis holatda kechadi. Bu esa jamiyatda o'rta qatlam munosabatlariga kirishish oqibatida mahallaning  odamlar hayotiga yaqinligi, aholi turmush tarzi va kundalik hayoti bilan uyg'unligi ko'p jihatdan jamiyatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish imkoniyatlarini yanada tezlashtiradi.

Odamlarning xatti-harakati, voqelikka va har qanday yangilikka nisbatan munosabati, eng avvalo yuksak axloq-odob, sharqona vazminlik, ota-bobolarimizga xos mulohazamandlik, qiyin va murakkab vaziyatlarda shaxsiy manfaatlardan umumdavlat va umumxalq manfaatlarini ustun qo'yish, jamoa uchun yashash kabi insoniy fazilatlarga qaratilgan. Bu va shunga  o'xshagan fazilatlar milily qadriyatlar darajasiga ko'tarilmoqda.

«Jamoatchilik fikri» atamasi inglizcha publik so'z birikmalaridan olingan bo'lib, u XVII asrda dastalb Angliyada qo'llanilgan, keyinchalik boshqa mamlakatlarga o'tib, XVIII asr oxiridan boshlab keng tarqalgan.

Jamoatchilik fikri o'zi nima? Jamoatchilik fikri - xalq istaydigan narsani bilishning noorganik uslubidir (Gegel), jamoatchilik fikrida hamisha haqiqiy va

haqiqiy bo’lmagan narsalar chatishib ketsada, u har bir davrda katta kuchga ega bo’lib kelgan.

Jamoatchilik fikri ijtimoiy ong shakllari, aytaylik, fan yoki mafkuradan noaniqligi bilan farq qiladi. CHunki fikrning o’zida u yoki bu holatga nisbatan taxminiy, ehtimolli bo’lgani uchun ham ko’pincha insonlar ongida vujudga keladigan o’tkinchi, o’zgaruvchan fikr, mulohaza, his-tuyg’ular yig’indisidir. Lekin bu jamoatchilik fikri bilan hisoblashmaslik kerak, degan gap emas. Jamoatchilik fikrini chuqur o’rgangan ispan mutafakkiri Ortega-I-Gasset shunday yozgan edi: «Dunyoni jamoatchilik fikri boshqaradi, bu shunday asosiy kuchki, unda kishilar hamjamiyatidagi hukmronlik kelib chiqadi».

Jamoatchilik fikrini sotsiologik tadqiq etish predmeti–bu, jamoatchilik fikrining ijtimoiy mohiyati, uning jamiyat hayotining turli tomonlariga ta’siri, shakllanishi, ifodalanishi va amal qilishi mexanizmlari masalalaridir. Jamoatchilik fikri - kishilar ongi va xatti-harakatining o’ziga xos ko’rinishi bo’lib, u ijtimoiy ongning barcha shakllari (axloq, huquq, din, fan kabi) bilan bog’liq kundalik va nazariy ong birikmasi hisoblanadi. Jamoatchilik fikri doimo kishilar tomonidan u yoki bu hodisa jarayonini baholashlari bilan bog’liq. Bunday ijtimoiy baholash ijtimoiy guruh va qatlamlarning ijtimoiy vaziyati, jamiyatda tutgan o’rnini o’zida aks ettiradi. Demak, jamoatchilik fikri ijtimoiy xususiyatga ega, shu jihatdan jamoatchilik fikri kishilarning ijtimoiy voqelikning biror bir sohasidagi fikrlari, his-tuyg’ulari va xatti-harakatlarini jamlashga, jamiyat hayotiga baho berishga va shu asosda ijtimoiy reallikning tegishli tomonini o’zgartirishga (yoki saqlashga) ta’sir ko’rsatadi. Umuman olganda, tub ijtimoiy o’zgarishlar sodir bo’lishidan oldin aynan jamoatchilik fikrida ulkan siljish, o’zgarishlar yuz bermog’i kerak.

Jamoatchilik fikri bilan bevosita shug’ulanuvchi mutaxassislar bu ijtimoiy hodisaning murakkabligini ta’kidlashadi. Darhaqiqat, jamoatchilik fikrini tasvirlash, aniqlash mushkul, uni o’lchab bo’lmaydi. Lekin u hamma joyda mavjud, uning ta’sirini alohida shaxs xatti-harakatida ham, omma xulq-atvor faoliyatida ham ko’rsa bo’ladi.

Jamoatchilik fikrining strukturasini tahlil qilshda birinchi navbatda uning ob’ekti va sub’ekti masalalariga e’tiborni qaratish zarur. Jamoatchilik fikrining ob’ektini aniqlashda, dastavval ikkita muammo e’tiborga molikdir.

1) Jamoatchilik fikrini unda aks ettirayotgan voqelikning o’ziga xosligi nuqtai nazaridan tahlil etish. Boshqacha qilib aytganda, jamoatchilik fikri dunyodagi hamma narsa to’g’risida fikr qila olishi mumkinmi yoki uning mulohaza doirasi chegaralanganmi?

2) U yoki bu hodisa, jamoatchilik fikrining ob'ektiga aylanishining mezolarini aniqlash, boshqacha aytganda, jamoatchilik fikrini uyg'otadigan ob'ekt qanday sifatlari, xususiyatlari bilan farqlanadi?

Avvalo shuni qayd etish kerakki, jamoatchilik fikrining ob'ekti ham ob'ektiv voqelik, ham sub'ektiv reallik faktlari hisoblanishi mumkin. SHu bilan birga jamoatchilik fikri ma'lum darajada chegaralangandir, muayyan bir holatlargina jamoatchilik mulohazalarining ob'ekti bo'la oladi. Bular: a) voqea va hodisalarning haqqoniy mavjudligi; b) voqea-hodisalar o'rtasidagi munosabatlar; v) voqea-hodisalarning kishilar ongida aks etishi. Ushbu holatlar jamoatchilik fikri sosiologiyasida «aniqlik chegarasi» deyiladi. Bu «chegaradan» tashqarida bo'lgan narsalar to'g'risida jamoatchilik fikri mulohazaga ega bo'la olmaydi.

Endi jamoatchilik fikrining ob'ektiv tanlash mezonlariga to'xtaladi. Duch kelgan har bir narsa, hodisa, voqea, jarayon yoki fakt ham birvarakayiga jamoatchilik fikri ob'ekti bo'lavermaydi. Jamoatchilik fikrini uyg'otishning birinchi omili ijtimoiy manfaat bo'lib, bevosita manfaat tug'diradigan dolzarb hodisa yoki narsalargina mulohazaga sabab bo'ladi. CHunki bunday holatlar kishilardan baholovchi munosabatni bildirishini talab etadi. Omma fikrining shakllanishi asosida «umumiy ish» yotadi.

Jamoatchilik fikriga sabab bo'ladigan ikkinchi omil, bu-munozaralilikdir. Boshqacha aytganda, u yoki bu darajada munozarali, bahsli holatga ega bo'lgan hodisalargina jamoatchilik fikri predmetiga aylanishi mumkin. Jamoatchilik fikri doimo hali hal bo'lmagan masalalar bo'yicha shakllanadi va hech qachon so'zsiz, aniq masalalar bo'yicha tug'ilmaydi.

Nihoyat, jamoatchilik fikrini uyg'otadigan uchunchi omil-malakalilikdir. Bu shuni anglatadiki, jamoatchilik bilishi va tushunishi mumkin bo'lgan hodisalargina jamoatchilikning ob'ekti bo'lishi mumkin.

Jamoatchilik fikri sub'ekti deganda, avvalo jamoatchilik doirasida fikr uyg'ota olish qobiliyatiga ega bo'lgan fikr egasi va ifodalovchisi tushuniladi. SHu o'rinda sub'ekt sifatida alohida individ, kichik guruhlar, jamoa, millat, sinf va hatto jamiyat hisoblanishi mumkin.

Jamoatchilik fikrining bilish imkoniyati muayyan-tarixiy xususiyatga ega, ya'ni u jamiyatda mavjud madaniyat, texnik imkoniyatlar, muloqot vositalarining rivojlanganlik darajasi va boshqa omillarga bog'liq. SHu bilan birga jamoatchilik fikri ijtimoiy ong shakllari (fan, mafkura, din, san'at, axloq, huquq, siyosat kabi), darajalari (individual, jamoa, milliy, sinfiy ong) va sohalari bilan bog'liq holda rivojlanadi. Aytish mumkinki, jamoatchilik fikri - ijtimoiy ongning tez o'zgaruvchan, dinamik holatidir.

Jamoatchilik fikri turli darajaa ham ega bo’lib, bu individual, jamoa fikri va ijtimoiy fikr ko’rinishida bo’ladi va ular o’rtasida doimiy va mustahkam bog’liqlik mavjud.

Jamoatchilik fikri ko’p jihatli hodisadir. Uning ratsional - aqliy (bilimlar), psihologik (ijtimoiy-ruhiy) kechinmalar, aksiologik (qadriyatlar) va boshqa jihatlari bo’lib, birgalikda jamoatchilik fikrining tez tarqaluvchanlik va ekstensiv xususiyatini ta’minlaydi.

Jamoatchilik fikrining real ijtimoiy hayotda amal qilishi uning ifodalanishi va u bajaradigan vazifalar bilan xarakterlanadi.

Avvalo, jamoatchilik fikrining uch xil ifodalanishini kuzatsa bo’ladi:

1. jamoatchilik fikrining stixiyali ifodalanishi;

2. siyosiy institutlar tashabbusiga ko’ra biror bir qonunni muhokama qilish yoki chora-tadbir (referendum, umumxalq muhokamasi va b.) o’tkazish jarayonida jamoatchilik fikrining bildirilishi;

3. maxsus sotsiologik tadqiqotlar, ya’ni so’rovlar paytida jamoatchilik fikrining aniqlanishi.

Jamoatchilik fikrining tadrijiy shakllanish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshadi: Birinchi bosqichda: ijtimoiy hayot, fakt, hodisa ta’sirida alohida shaxslar ongida individual fikr-tasavvurlarning yuzaga kelishi. Ikkinchi bosqichda: alohida shaxslar fikrlarining suhbat, bahs, muhokama, yig’in va mitinglar vositasida jamoa fikriga aylanishi. Uchinchi bosqichda esa, jamoalar fikrining aylanishini ifodalovchi nuqtai nazarlar uyg’unlashuvi va birlashuvi jarayonlaridir.

Bozor munosabatiga o’tish sharoitida jamoatchilik fikrining eski tuzum muammolaridan yangi masalalarga ko’chishi yuz bermoqda. Ammo jamoatchilik fikrining qayta yo’nalishi murakkab jarayon bo’lib, u oldin shakllangan xulq-atvor jabhalarining, tafakkur va xatti-harakat qoliplarining (stereotiplarning), ba’zi an’analarining o’zgarishini o’z ichiga oladi. Gap shundaki, aytib o’tilgan ko’pgina elementlar (eskicha tafakkur qoliplari, odatlar) ni jamoatchilik fikri o’zida mujassamlashtirgan bo’lib, bu uning konservativ tomonidir. SHuning uchun jamiyat taraqqiyotiga to’siq bo’layotgan, ammo kishilar ongida chuqur o’rnashgan, aynan jamoatchilik fikrining qaysi jihatini o’zgartirish mumkinligini aniq tasavvur eta bilish zarur. Ammo odamlar fikrini o’zgartirishdan ko’ra, ularda yangi muammolarga nisbatan munosabat, fikr-mulohazani shakllantirish osonroq. Demak, masala jamoatchilik fikrining kuchini oshirish, uni ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish omiliga aylantirish uchun tabiiy tarzda, ammo zarur yo’nalishda, ongli ravishda shakllantira bilishdadir. Bu jamiyat hayotida jamoatchilik fikri ahamiyatining oshib borishi bilan bog’liq bo’lib, u quyidagi shart-sharoitlarni talab etadi: a) davlat organlari, jamoat tashkilotlari, ilmiy markazlar tomonidan

jamoatchilik fikrining muntazam o'rganib turilishi; b) barcha fuqorolarning turli shakllarda (referendumlar, manifestatsiyalar, so'rovlar) jamiyat hayotining har xil muammolari yuzasidan o'z fikrlari, baholari, nuqtai nazarlarini erkin bildirishlari; v) fuqarolarning jamoaviy (jamoa) fikrlarini bildirishlari vositalari va shakllarini kengaytirish, oshkoralik; g)davlat organlari va jamoat tashkilotlari tomonidan jamoatchilik fikridan doimiy foydalanish.

Jamoatchilik fikriga maqsadli ta'sir qilish ikki xil yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin:

xaspo'shlash (manipulyatsiya qilish);

ilmiy shakllantirish.

Jamoatchilik fikrini xaspo'shlash – bu, dolzarb muammolar bo'yicha aholi ongiga nisbatan biror-bir fikrni zo'rlab singdirish. Xaspo'shlash yolg'iz hukmron siyosiy guruh, toifa, elitaning manfaatlarini ifodalaydi va uning iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy hukmronligini saqlab qolishiga qaratilgan bo'ladi. Xaspo'shlashning asosiy vositasi dezinformatsiya (sohta axborot) hisoblanadi. Xaspo'shlash asosan totalitar jamiyatga xosdir.

Jamoatchilik fikrini erkin shakllantirish-jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayoniga maqsadli ta'sir ko'rsatishdir. Bunda ko'rsatilgan asosiy maqsad jamiyatda axborot maydonini tabiiy ravishda hosil qilish bo'ladi. Jamoatchilik fikrini shakllantirishda stixiyali va ongli omillar, uning shakllanishining ob'ektiv jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan ichki va boshqaruv organlari tomonidan kishilar ongiga chetdan ongli ravishda ta'sir qilishda ifodalanadigan tashqi mexanizmlar birligini ham ta'minlash zarur. Jamoatchilik fikri muhim institut bo'lib, faol amal qilish uning funksiyalari (vazifalari) bilan bog'liq. Bu funktsiyalar jamoatchilik fikri jamiyat hayotining turli sohalarida (aytaylik, taqsimot munosabatlarida) «qo'llanishiga» qarab turli shakllarda namoyon bo'ladi. Jamoatchilik fikri funktsiyalari uning u yoki bu ijtimoiy institutlarga ta'siriga qarab, bildirilayotgan fikrning mazmuniga ko'ra va bu fikrning shakliga qarab belgilanadi.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» da fikr erkinligi qonun yo'li bilan asoslangan. Jamiyat mamlakatda bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlarga nisbatan o'z fikrini erkin ifoda etishi va ularda faol ishtirok etishi zarur. Aks holda taraqqiyot bir joyda to'xtab qolishi, hatto orqaga ketishi ham mumkin.

Hozirda jamiyatimizda shakllangan ko'ppartiyaviylik muhitidan tezroq ob'ektiv ravishda foydalanish zarur. CHunki bular keng jamoatchilikning ijtimoiy hayotidagi ta'sirini, o'rni va vakolatini, huquqini kuchaytirish, uning chinakam mustahkamligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tepadan turib, maxsus farmon bilan jamiyatda adolat va demokratiya o’rnatib bo’lmaydi. Bu barchaning birdek ishtiroki, peshqadam ziyolilar, turli siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari namoyandalarining, ma’sul xizmatchilarimizning g’ayrati, aql-zakovati bilan ro’yobga chiqadigan murakkab ishdir.

Jamiyat a’zolari o’z fikrini erkin ifoda eta bilishi, so’z erkinligini himoya qilish, shu huquqlarning amalda ta’minlanishi uchun kafolat yaratish – bugungi eng muhim vazifamiz bo’lishi zarur. Odamlarning erkin fikrini ifoda etuvchi ommaviy axborot vositalari jamiyatda o’zining mustahkam o’rni va mavqeini egallashi zarur.

Jamiyatni rivojlantirishda keng jamoatchilik fikriga suyanish katta tarixiy tajribaga suyanishni talab etadi.

Qadim davlatchilik tarixidan kelib chiqib, xalqimiz jamoatchilik fikri quyidagi funktsiyalarni bajarib kelganligining shohidi bo’lishgan. Direktiv, ya’ni qarorlar qabul qilishda jamoatchilikning keng ishtiroki. Konsultativ - qarorlarni hayotga tatbiq etishda, hukm chiqarishda keng jamoatchilik bilan maslahatlashishi. Turli davlatlar va nodavlat tashkilotlar ishi ustidan nazorat o’rnatishda.

Ekspressiv (nazorat) - ya’ni favqulodda hodisalarning oldini olish va ularni bartaraf etishda va hokazo funktsiyalarni bajaradi. Konstruktiv funktsiyasi. Bu sub’ektlarning ijtimoiy munosabatlari va jarayonlarni o’ziga xos dasturlashtirishdir.

Regulyativ (boshqaruv) funktsiyasi.

Baholash funktsiyasi.

Pozitiv (ijobiy) funktsiya.

Negativ (salbiy) funktsiyalarni bajaradi.

Umuman, jamoatchilik fikri funktsiyalarini 3 guruhga bo’lish mumkin:

1. Jamoatchilik fikrining mohiyati va mazmunini ifoda etuvchi funktsiyalar: a) gneseologik; b) baholash.

2. Jamoatchilik fikrining ijtimoiy ahamiyatini ifoda etuvchi funktsiyalar: a) tarbiyalash; b) rag’batlantirish; v) nazorat qilish; g) maslahat.

3. Jamoatchilik fikrining kishilarga ta’sirini ifoda etuvchi funktsiyalar.

Nihoyat, ifodalanish shakliga ko’ra, jamoatchilik fikri ikki xil-pozitiv (ijobiy) va negativ (salbiy) funktsiyalarni bajaradi.

Darhaqiqat, jamoatchilik o’z fikrini doimo qo’llab-quvvatlash va aksincha, inkor etish, qoralash ko’rinishida bildirishi mumkin. Sub’ekt ijtimoiy jarayonlarda ongli ishtirok etishga tayyorligini bildirgan taqdirda jamoatchilik fikri pozitiv, agar sub’ekt norozilik bildirib, hech bir harakatni sodir qilmagan taqdirda negativ vazifani bajaradi.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Jamiyat – yaxlit sotsial tizim bo'lib, u o'zining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalariga ega bo'ladi. Unda yagona hudud doirasida kishilar umumiy madaniy qadriyatlar va sotsial me'yorlar (norma) asosida birlashadilar.

Postindustrial jamiyat – insoniyat va alohida davlatlar ilg'or taraqqiyotining uchinchi bosqichi ( *agrar va industrial jamiyatdan keyingi*). Unda zamonaviy ilmiy-texnologik, axborotlashgan inqiloblar asosida chuqur sotsial o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Elektorat – u yoki bu siyosiy partiya,  siyosiy tashkilot va uning vakillari hamda mustaqil deputatlarga ovoz beruvchi saylovchilar guruhi. Elektoratnig ko'lami demokratiya darajasi, siyosiy partiyalarning faolligi, ommaning siyosiy yetukligi bilan bog'liq bo'ladi.

Muholifat – (*arabcha "muholafat" – kelishmovchilik, teskarilashish, qarama-qarshilik, ziddiyat*) – rasmiy siyosatga, hukmron qarashlarga mos bo'lmagan nuqtai nazar, alohida siyosiy yo'l, demokratiyaning muhim belgisi.

Jamoatchilik fikri – butun jamiyat yoki uning alohida qismining ijtimoiy hodisalar va jarayonlar hamda alohida shaxslar, guruhlar, tashkilotlarning faoliyatiga bo'lgan munosabatlarini ochiq va yashirin holda ifodalovchi ommaviy ongning holati.

Mahalla – (*arabcha "mahalla" – joy, o'rin, makon*) – muayyan tarixiy sharoitlarda, asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko'rsatayotgan, aholi yashaydigan ma'muriy-hududiy birlik, uyushma.

Sotsial birdamlik – ko'pgina ma'naviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini xal qilishdagi hamkorligi ko'rinishidir.

Kooperatsiya – bir yoki bir qancha sotsial guruh vakillarining yagona maqsadga erishish yo'lida o'zaro harakat qilish jarayoni. O'zaro manfaatdorlik kooperatsiyaning asosi hisoblanadi.

Begonalashuv – individ, shaxs yoki sotsial guruhning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy jarayonlar, munosabatlar hamda faoliyatdan uzoqlashish, chetlashish holati. Sotsiologiyada begonalashuvning iqtisodiy, siyosiy, sotsial, madaniy va ruhiy ko'rinishlariga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Oila – kishilarning nikoh va qondoshlik munosabatlariga asoslangan jamiyatning kichik sotsial yacheykasi. Oila kishilarni mulkchilik, umumiy xo'jalik aloqalari va farzandlar tarbiyasidagi o'zaro mas'uliyat hissi bilan ham bog'laydi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1.Jamoatchilik fikri deganda nimani tushinasiz va uning qanday turlarini bilasiz?

2.Jamoatchilik fikri qanday vazifalarni bajaradi?

3.O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganish sohasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

4.Referendum nima?

5.2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan referendumga qanday savollar kiritilgan?

6.Jamoatchilik fikri tushunchasi va uning nazariy asoslari nimalardan iborat?

7.Jamoatchilik fikrining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishini izohlab bering?

8.Jamoatchilik fikri funksiyalari nimalardan iborat?

9.O'zbekistonda «Ijtimoiy» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi faoliyati haqida nima bilasiz?

IX Mavzu: Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari

Sotsiologik tadqiqot dasturi. Dasturning strukturasi: nazariy - metodologik va metodik bo'limlar. Dasturning asosiy elementlari: muammoni tahriflash; tadqiqotning maqsad va vazifalarini, obhekti va predmetini aniqlash; obhektni tizimli tahlil qilish, tushunchalarni nazariy va empirik izohlash, gipotezalarni ifodalash; mahlumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish. Sotsiologiyada mahlumotlar to'plash metodlarining umumiy tasnifi: so'rov, kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o'rganish metodlari, ularning o'ziga xosligi. So'rov metodi. So'rov turlari. Anketa (so'rov varaqasi) so'rov metodining markaziy elementi sifatida. Anketa tuzish texnikasi. Anketaning umumiy tuzilishi. Anketadagi savollarning turlari, asosiy talablar. Ogzaki so'rov va uning xususiyatlari. Intervg'yu olish uslubi. Kuzatish metodi va uning mohiyati. Kuzatish turlari. Kuzatishning aniqligi muammosi va uni tahminlash usullari. Kuzatish davrlari va tartibi. Kuzatish asboblari, kuzatish natijalarini qayd etish usullari. Hujjatlarni o'rganish metodi. Sotsiologiyada hujjat tushunchasi, uning turlari. Hujjatlarning informatsiya manbai sifatidagi ishonchlilik muammosi. Hujjatlarni tahlil qilish turlari. Kontent-tahlil hujjatlarni o'rganish metodining bir turi sifatida. Eksperiment metodi. Eksperiment turlari. Ijtimoiy eksperiment strukturasi, uning bilish imkoniyatlari. Obhektni tanlash, eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirish, eksperimental vaziyat, natijalarni tahlil qilish. Xulosalarni tahlil qilish usullari.

Sotsiologik tadqiqotlar bo'lajak izlanishlarining ilmiy asoslangan reja va dasturini tayyorlashdan boshlanishini o'rganadi. Dastur hayot haqikatidan kelib chiqqan va ilmiy-nazariy jihatidan nusxa ishlangan bo'lishi lozim. Zero, tadqiqot natijalari qanday bo'lishi ana shu olimlarga bevosita bog'liqdir.

Dastur bo'lajak tadqiqot materiallarini tuplash, qayta ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z o'ziga oladi. Dastur tadqiq etiluvchi ijtimoiy muammo mohiyatini aniqlash, tadqiqot ob'ekti va predmetini belgilash, maqsad va vazifalarni xarakterlab berish, ishning, ilmiy taxlinini belgilash, usullarini aniqlash, ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish sxemasini chizib olish kabi qismlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Dastur mazmunida turli tasvirlar oqibatida yuzaga chiquvchi ijtimoiy muammo vaziyatlari aniq va yorkin ifoda etilmogi lozim. Ilmiy muammoning qo'yilishi muayyan soha amal qilayotgan bilimlar hamda amaliy andozalar doirasidan qoniqmaslik, bu bilimlar chegarasining kengaytirish demakdir. Zero, muayyan tadqiqotlar boshlangunga qadar ma'qul bo'lgan bilimlar doirasida hamisha ham ijtimoiy muammoli vaziyat ham etilavermaydi.

Odatda ijtimoiy muammo amaliy vositalar bilan ham etilmagan holatda ilmga, tadqiqot o'tkazishga murojaat qilinadi. Bu murojaat ilmda ijtimoiy buyurtma deb ataladi.

SHu tariqa sotsiologiyaning tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin. Ammo sotsiologiyaning shaxsiy tashabbusi ham real hayot muammolari asosida paydo bulmagi lozim. Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy muhim ahamiyat kasb etib, tadqiqotlarning nazariy yoki amaliy yo'nalishlarda bo'lishini ko'rsatuvchi mo'ljal vazifasini o'taydi.

Sotsiologik tadqiqotlar dasturida ilmiy izlanishga sabab bo'lgan ijtimoiy ziddiyatli muammolar va ularni asosiy atama va tushunchalari atroflicha izoxlab beriladi.

Ayni vaqtda ba'zi ilmiy tushunchalarni eskirishi tarzda izoxlash va tushunchalar dialektikasini real ko'rinishda kuzatish imkoniyatlari ilmiy so'zlar, faktlar va ijtimoiy ko'rsatkichlar tarzida batafsil bayon etiladi. Masalan, bilim olish samaradorligini ta'minlashning uzaytirish haqida fikr yuritiladigan bo'lsa, ana shu usul zarur fanlarni yoki zarur ko'nikma va hunarlarni o'zlashtirishning boshqa fanlar mazmuniga uyg'unlashtirish natijasida kay usulda o'zlashtirish mumkinligini aniq-oydin bayon etilishi lozim.

Dasturda kompleks sotsiologik tadqiqotlar natijalarini qo'lga kiritish, o'rganilayotgan ob'ekt va predmet xususiyatlarini aniqlash maqsadlarida sotsiologik tadqiqotlar instrumentlariga alohida to'xtalib o'tish lozimdir. Sotsiologik tadqiqotlar instrumentlari deganda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan metodik va texnik usullar yig'indisi tushuniladi. Bu yig'indi yoki umumlashma zamiriga dastlab birlashchi ma'lumotlarni to'plash, ya'ni kuzatish usulini amalga oshirish uchun zarur ko'rsatma va qoidalarni ishlab chiqish, hujjatlarni tahlil etish, so'roq qog'ozlarini tartibga solish, yozma manbalarni ko'lda yoki mashina yordamida sanash, tahlil etish, umumlashtirishga tayyorlash bosqichi holida tabiiy tadqiqotni amalga oshirish uchun tadqiqot o'tkazishga mutasaddi raxbarlar, ilmiy-texnik xodimlarni muayyan tayyorgarlikdan o'tkazish bosqichlari kiradi.

Sotsiologik tadqiqotlar instrumentatsiyasi tadqiqot o'tkazilish jarayonida barcha texnik operatsiyalar, reskondetlar ishi, tadqiqotchi pozitsiyasi va boshqa jihatlarni umumiy talablar asosida aniq tartibga tushuradi. Bu esa tadqiqot ishini ilmiy asoslangan tartibda haqqoniy va ishonarli o'tkazish imkonini beradi. Masalan kishilarning bir joydan ikkinchi joyga ishga o'tish muammosi ilmiy muammo sifatida o'rganilayotgan bo'lsa, tadqiqot ob'ektining tahliliy elementlari quyidagilar bo'lishi mumkin.

a) ish joyida haq to'lash darajasi.

b) ish joyidagi axloqiy-psihologik muhit.

v) boshliklar bilan kelishmovchiliklar mavjudligi.

g) ish joyining yashash joyidan uzoq-yaqinligi.

d) mehnat sharoitining og’ir-yengilligi.

e) faoliyatdagi istiqbol.

j) faoliyatning shaxsga yoki jamoatga juda zarur yoki befoyda ekanligini his etilganligi.

z) ish joyida dam olish, xordiq chiqarish masalalarining xal etilganligi,

i) salomatlik bilan bog’liq sabablar.

y) oilaviy masalalar bilan bog’liq sabablar.

Yuqoridagi tushunchalar mazmunining atroflicha ochib berilishi dastur gipotezasini tuzish uchun keng ochilishiga imkon yaratadi. Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy faraz ijtimoiy ob’ektning tashkil etuvchi turli xil elementlar va aloqalar xarakterli, ularning faoliyat yuritish va taraqqiyotni o’zida ifodalaydi. Ilmiy faraz o’rganilayotgan ob’ekt xususida dastlabki tahlil o’tkazilgandan keyingina tuzilishi mumkin.

Farazning nechog’lik hayotiyligi yoki hayotiy emasligi empirik asoslanish jarayonida konkret sotsiologik tadqiqotlar o’tkazish davomida ma’lum bo’ladi. Bunday tadqiqotlar natijasida farazlar bekor etiladi yoki tasdiqlanadi. O’rganilayotgan ob’ekt haqidagi bilimlar holati ilmiy izlanishlarning turli yo’llari va rejalarini yuzaga keltiradi.

Ulardan izlanish asosidagi, bayon etish yo’lidagi va eksperimantal usuldagi rejalarni ajratib ko’rsatish mumkin.

Izlanish asosidagi tadqiqotlar rejalarini o’rganilayotgan muammo haqidagi tasavvur konkretlashmagan hollarda qo’llash maqsadga muvofiqdir.

Bu rejaning asosiy maqsadi ilmiy muammoni aniq nomlash va uning konkret chegaralarini belgilab olishdir. Taqiqotning muhim bosqichlari sifatida izlanish olib berish uslubini ishlab chiqish, bu uslubni qo’llash tartibni aniqlab olish, vazifalarning muhimligiga ko’ra ketma-ket bajarila borishini ta’minlash jarayonlarini ko’rsatib o’tish o’rinlidir.

Bayon etish rejasi bir qator sotsiologik tadqiqot rejalarini qo’llash olingan maolumotlarini tahlil qilish orqali qabul etilgan farazning hayotiyligini tekshirib qurish va o’rganilayotgan ob’ekt xususida aniq mikdoriy va sifat xarakteristikasiga ega bo’lishni taqozo etadi.

Sotsiologik tadqiqotlar rejasi va dasturi to’liq ishlab chiqilgandan so’ng amalga oshiriladi. Sotsiolgik tadqiqotlarda sotsiolog o’ziga xos bir necha yo’nalishda faoliyat yuritishi ham mumkin. Monografik tadqiqotlar ana shunday ilmiy izlanish usullaridan biri bo’lib, muayyan muammo, ijtimoiy jarayon yoki holatning muhim jihatlarni, mohiyati va mazmuni negiziga chuqur kirib borishini nazarda tutadi.

Keng ko’lamdagi tadqiqot jarayoniga kirishishdan avval mazkur tadqiqot amaliyoti va usullarini tajribada sinab ko’rishning ahamiyati kattadir. SHu boisdan ham sotsiologiyada "pilotaj" (inglizchada tajriba o’tkazish uchun moslama ma’nosini anglatadi) tadqiqot usuli ham alohida bo’lajak yangi tadqiqotni o’tkazish uchun ko’rilgan tayyorgarliklarining qay axvolda ekanligi, tarqatiladigan anketa savollari sifati, kuzatish usuli kaydnomalari, hujjatlar to’plash va ularni tahlil etishga oid ko’pgina misollari amalda sinab ko’riladi. Ayni vaqtda bunday izlanishlar jarayonida bo’lajak sotsiologik tadqiqotlar o’tkazish uchun zarur bo’lgan vaqt va joy masalalari ham xal qilinadi.

Sotsiologik tadqiqotlar usullari ichida xozirgi kunda keng tarqalgan so’rov usulidir. So’rov usulining qulayligi shundaki, tadqiqotning kuzatish va eksperiment usullarini faqat mutaxassis sotsiologlar qo’llash mumkin bo’lsa, so’rov usulida tadqiqot o’tkazishga qisqa muddatli tayyorgarlikdan o’tgan yordamchilarni ham jalb qilish va ular yordamida respondentlarning katta miqdorini qamrab olish mumkin.

So’rov usuli boshqarish uchun qulay usuldir. Bundan tashqari, tadqiqot ko’lamini kengaytirishda so’rov usulining imkoniyatlari juda katta. Bu usul qo’llanilganda katta korxona va muassasalar, sohalar, mintaqalar va xatto, mamlakat miqyosida ham tadqiqot o’tkazish mumkin.

So’rov usuli respondentga bevosita murojaat qilib, uning xulq-atvori, harakatdan ko’zlangan niyatlari, o’tgan davrda qilgan va hozir qilayotgan ishlari, kelajakka mo’ljallangan rejalari to’g’risida batafsil ma’lumot olish imkonini beradi. Ayniqsa, kishining his-tuyg’ulari, kechikmalari, harakatlari motivlari to’g’risida ma’lumot to’plash kerak bo’lganda, bu usul kul keladi. CHunki bu hodisalar kuzatuvchi nigohidan yashirin bo’lib, ularni kuzatish usuli bilan aniqlab bulmaydi. Lekin, so’rov usulining ham bir qator kamchiliklari mavjud. Masalan, bu usul yordamida olingan ma’lumotlarning haqikatga mosligini sinchiklab tekshirish kerak. CHunki, bu usul qo’llanganda maolumot manbai faqat respondent bo’ladi. Respondentlar esa o’z xarakteri, dunyo qarashi, xulqi ma’lumoti bo’yicha turlicha kishilar bo’lib, ular ham doim ham haqikatni gapiravermaydilar.

So’rov usulini mohiyati shundan iboratki, tadqiqot olib boruvchi savol beradi va respondent o’zining dunyo qarashi, ma’lumoti, bilimi va xohishidan kelib chiqib, savollarga javob beradi.

To’planishi kerak bo’lgan ma’lumot xarakteri va uni to’plash usuliga qarab so’rovlar ikki turga bo’linadi.

1.Anketa so’rovlar.

2.Intervyu.

Savol berilishi mumkin bo’lgan odamlar yoki potentsial respondentlarni qay jarajada qamrab olishiga qarab so’rovlar yana 2 turga bo’linadi.

1.Yalpi so'rovlar

2.Saylanma so'rovlar.

Bulardan tashqari, ochiq va yopiq so'rovlar, yuzma-yuz va sirtdan so'rov turlar ham mavjud.

Sotsiologik tadqiqot usullaridan yana biri hujjatlari o'rganish hisoblanadi. Hujjat o'z mantiqiy ma'nosiga ko'ra isbot etish mazmunini ifodalovchi so'zdir. Hujjat - moddiy material manba hisoblanib, voqea va faktlar xususidagi ma'lumotlarni o'zida ifodalaydi.

Albatta sotsiologiya uchun hujjatda aks etirilgan mazmun birinchi darajali ahamiyatga esa ammo mazkur hujjatning nechog'lik haqkoniyligi va realligi uning tuzilish shakliga ham bog'liqdir.

Sotsiologik tadqiqot usullaridan yana biri bo'lgan intervyu usuli anketa bilan ko'p umumiyliklarga ega. Anketa savollar yozma tarzda berilsa, intervyuda og'zaki savollar beriladi. Intervyu respondent bilan bevosita muloqotni taqozo qiladi. Bu muloqotni qog'oz yoki magnit tasmasiga qayd etish mumkin. Intervyu (inglizcha-uchrashuv) usulidan sotsiologiya, psihologiya, jurnalistika, etnografiya, statistik, pedagogika kabi sohalarda foydalaniladi. Intervyu o'tkazilish tajribasiga ko'ra erkin standart va yarim standart ko'rinishiga ega bo'ladi. Erkin standart ilgaridan tayyorlangan savollar asosida emas balki suhbat mazmunidan kelib chikuvchi savollar asosida ko'rilib, dastur yo'nalishida bir necha soat davom etish va tadqiqot muammosini aniqlash, razvedka vazifasini bajarish maqsadida foydalanishi ko'zda tutadi.

Erkin standart intervyu:

a) qisqa muddatli

b) uzoq muddatli intervyu turlariga bo'linadi.

Yarim standart intervyu ham o'z navbatida bir necha turga bo'linadi:

a) gruppovoy panel (qayta-qayta intervyu).

b) klinik intervyu.

v) fokuslashtirilgan intervyu.

Intervyu usulining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat.

1. U yoki bu sohadagi intervyu.

2. Intervyu vaqtida ruhiy, hissiy holatlarni nazorat qilish mumkin.

3. Savollar vaqtida shaxsning maosuliyati his etib beriladi.

Kuzatish turli maqsadlarda turli shaklda turli kamrovda turli vositalar yordamida olib boriladi. Kuzatish tashqi dunyo voqeligini va ichki olam haqiqatini bilishning keng tarqalgan usullaridan biridir. Turli yoshdagilar faoliyatini kuzatishda ularning pedagogik tamonlariga va psihologik jihatlariga e'tibor berish kerak bo'ladi.

Kuzatish usulining quyidagi ko’rinishlari mavjud.

1) Bevosita kuzatish. 2) Bilvosita kuzatish. 3)Universal kuzatish. 4) O’z-o’zini kuzatish. 5) Ochiq-oydin kuzatish. 6) Monografik kuzatish. 7) Tor ixtisosli kuzatish.

Sotsiologik kuzatish olib borishning shart va talablari quyidagilar:

1) kuzatish kerakli saviyada va darajada tashkil qilinishi kerak. 2) kuzatish muntazam olib borilishi kerak. 3) kuzatuvchi xolis bo’lishi shart. 4) kuzatilayotgan ob’ekt to’g’risida mumkin qadar ko’proq ma’lumot to`plash kerak. 5) kuzatishning borishi va natijalarini batavsil qayd etib borish kerak.

"Test" inglizcha so’z bo’lib tajriba, sinov tekshirish degan ma’nolarni bildiradi. Test standartlashtirilgan qisqa muddatli sinovdir. Test sinalayotgan shaxsning psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlarini, shuningdek intellektual rivoji, qobiliyat va malakasini tekshirishda qo’llaniladigan standart mashqlar hamdir. Test birinchi marta 1884 yili Angliyada o`quvchilarning bilimlarini tekshirish maqsadida qo’llanildi. Ingliz psihologi Galton 1883 yili testning nazariy asoslarini ishlab chiqdi. Bu terminni birinchi marta 1890 yili AQSH lik psiholog Kettel kiritgan. Frantsuz psihologi Binyo testologik tekshirishlar printsiplarini insonlarning oliy ruhiy funktsiyalariga bog`ladi. XX asr boshlarida test printsiplarini ishlab chiqishda olimlar ko’plab ishlar olib bordilar. Dastlabki standart pedagogik test AQSH lik psiholog Tori Dayk tomonidan tuzilgan.

Konkret sotsiologik tadqiqotlar turli ko’rinishlarga ega. Tahlil nuqtai-nazaridan konkret sotsiologik tadqiqot asosan uch turga bo’linadi. Dastlabki sinov, tasniflovchi va analitik.

Dastlabki sinov tadqiqotning maqsadi boshlang’ich axborotni xosil qilish, barcha jarayonlarni o’tkazish va ommaviy ma’lumotlarni to’plashning tashkil qilish bo’yicha uslublarning yaroqligini tekshirish.

Sinovning asosiy maqsadi rejalangan savollar to’g’ri tuzilganmi, respondentlarga ular tushunarlimi, mo’ljallangan ma’lumot olishga erishishi mumkinmi?- kabi savollarga javob berishdir. Dastlabki sinov tadqiqot bosqichma-bosqich bajariladi.

Tasniflovchi tadqiqot tahlili izlanishining murakkabroq turi deb hisoblanadi. Uning yordamida o’rganilayotgan ijtimoiy hodisa haqida dastlabki sinov tadqiqotga nisbatan to’laroq tasavvur beradigan empirik axborot olinadi. Bunday tadqiqot odatda o’rganilayotgan ob’ekt xilma-xil tasniflar bilan ajralib turadigan (masalan yirik korxonaning mehnat jamoasi, bu yerda kasbi, jinsi, yoshi, ish bo’yicha xar-xil shaxslar ishlaydi) katta mikdorda ega bo’lgan holda o’tkaziladi. Bunday tadqiqotlar bir yoki necha konkret sotsiologik tadqiqotlarning uslublari qo’llanishi mumkin.

Analitik tadqiqot sotsiologik tahlilning asosiy turi hisoblanadi. Sabab va oqibat orasidagi boshlanishlarni izlash-ushbu tadqiqotning asosiy maqsadidir.

Analitik tadqiqotlarda u yoki ijtimoiy hodisani tarkib toptiruvchi omillar majmui o'rganiladi. Odatda ular asosiy va asosiy bo'lmagan, doimiy va vaqtinchalik, nazoratli va nazoratsizlarga bo'linadi.

Analitik tadqiqotni sinchkovlik bilan tuzilgan dastursiz va maxsus uslublarsiz o'tkazish ancha mushkul. U odatda dastlabki sinov va tasniflovchi tadqiqotlarning yakuni sifatida yuzaga keladi.

## Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1.Sotsiologik tadqiqotlar deganda nimani tushunasiz?
2.Sotsiologik tadqiqot dasturi qanday to'ziladi?
3.Panel tadqiqotlar nima?
4.Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy foraz qanday o'rin tutadi?
5.So'rov usul qanday usul?
6.Anketa szining ma'nosi qanday?
7.Intervyu bilan oddiy suhbatning farki qanday?
8.Intervyu oluvchi nimalarga e'tibor berishi kerak?
9.Kuzatish usulining afzalliklari qanday?
10.Test usulining sotsiologik tadqiqotlarga tutgan o'rni qanday?

## Umumiy nazorat savollari:

1. Sotsiologiya jamiyat haqidagi fan. Tayanch iboralar: sotsietas, pozitiv, ta'limot.
2. Oilaning funktsiyalari. Tayanch iboralar: reproduktiv, kommunikativ, emotsional, xo'jalik, tarbiyaviy va bosh.
3. Sotsiologiyada inson omili masalasi. Tayanch iboralar: ob'ekt, sub'ekt, ijtimoiy tizimlar bo'g'ini, qadriyat.
4. Sotsial qonunlar va fuqarolarning ijtimoiy faoliyati. Tayanch iboralar: dinamik va statik, umumiy va huquqiy qonunlar, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ilmiy.
5. Sotsiologik tadqiqot usullari. Tayanch iboralar: empirik, sotsial eksperiment, test, statistik, kontent analiz.

6. Sotsiologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlari. Tayanch iboralar: klassik, noklassik, Mmarksistik, nomarksistik, Amerika sotsiologiyasi.
7. O’zbekistonda nikoh va oila munosabatlarining sotsial jihatlari. Tayanch iboralar: teng huquqiylik, tmuxofaza, mulk, nikoh shartnomasi, farzand tarbiyasi, vasiylik, ajralish.
8. Sotsiologiyada empirik tadqiqotlar. Tayanch iboralar: nazariy, metodologik, kuzatuv, gipoteza.
9. Jamiyat hayotida begonalashuv va ularning turlari. Tayanch iboralar: tanazzul, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy va ruhiy begonalashuv.
10. Sotsial dinamika tushunchasi va uning turlari xamda yo’nalishlari. Tayanch iboralar: "ijtimoiy dinamika" atamasi, reproduktiv, maqom, hududiy, ma’naviy, siyosiy, fan texnika dinamikasi.
11. Sotsiologiyada qonunlar va kategoriyalar. Tayanch iboralar: umumiy, xususiy, shaxs, anketa, kuzatuv, test.
12. Ta’lim tizimi va jamiyat taraqqiyoti. Tayanch iboralar: ijtimoiy institut, shaxs, davlat, jamiyat, uzluksizlik, axborot makoni, boshqarish, fan, ishlab chikarish.
13. Empirik tadqiqotlar dasturining mohiyati. Tayanch iboralar: to’plam, ma’lumotlarni tahlil qilish, maqsad, vazifa, ilmiy taxmin, nazariy va amaliy bo’lim.
14. Rasmiy va norasmiy tashkilotlarni ta’riflang. Tayanch iboralar: aloqa, status, rol, majburiy, erkin, tutilitar, boshqaruv, ma’muriy, ratsional, yondashuv.
15. Sotsial tizimlar va ularning asosiy xususiyatlari. Tayanch iboralar: formatsion, madaniy, individual-shaxsiy siyosiy tizim.
16. Sotsiologiya uslublari va ularning asosiy shakllari. Tayanch iboralar: pozitiv, naturalizm, psihologizm, nazariy metodologik, empirik.
17. Ta’lim tizimining zamonaviy yunalishlari va usullari. Tayanch iboralar: ta’limni modernizatsiyalash, demokratiyalash, iqtisodiy ta’lim.
18. Sotsiologiyada axborot tuplash usuli. Tayanch iboralar: gipoteza, kuzatish, respondent, pilotaj, anketa, intervyu.
19.O.Kontning intellektual rivojlanish qonuni. Tayanch iboralar: teologiya, metafizika,
pozitivizm.
20. Sotsial munosabatlarning asosiy turlari. Tayanch iboralar: sotsial birdamlik, kooperatsiya, iqtisod va taqsimot munosabatlari.
21. IX-XI asrlarda Markaziy Osiyodagi sotsial fikrlar (Farobiy, Beruniy, Ibn Sino). Tayanch iboralar: "Fozil odamlar shaxri", etnosotsiolog, jamoa.
22. O’zbekistonda ta’lim tizimidagi isloxotlar. Tayanch iboralar: ta’lim to’g’risidagi qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

23. Sotsial-etnik munosabatlar sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: ijtimoiy etnik, etnosotsiologiya, etnos, sotsial stratifikatsiya, mobillik, demografik.
24. Ijtimoiy-sinfiy munosabatlar. Tayanch iboralar: sotsial munosabat, sinflar, kasb-korlik, tabaqalashuv.
25. "Barkamol toifa kontseptsiyasi" nazariyasi. Tayanch iboralar: g’arb sotsiologiyasi, Ye Dyurkgeym.
26. XIIX asr G’arb sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: pozitiv usul, O.Kont pozitivistik ta’limoti, klassik, noklassik.
27. SHaxs sotsiallashuvi va tarbiya jarayoni. Tayanch iboralar: inson, individ, shaxs, sotsial-tipik, ijtimoiy mavqe.
28. Bo’sh vaqtdan foydalanishning sotsial muammolari. Tayanch iboralar: sotsial tadbirlar, bo’sh vaqt mazmuni, begonalashuv.
29. Talim sotsial institut sifatida. Tayanch iboralar: ta’lim tizimi, sotsial mobillik, intelektual meros, ta’limni demokratiyalashuvi.
30. Jamoatchilik fikrining funktsiyalari. Tayanch iboralar: direktiv, onsultativ, ekspressiv, manipulyatsiya, dezinformatsiya.
31. Jadidchilik harakatining sotsial mohiyati. Tayanch iboralar: jadidchilik, isloxotlar, madaniy meros.
32. Tarbiyadagi sotsial yo’nalishlar. Tayanch iboralar: tarbiyaviy ustivorlik, erkin fikrlash, ta’lim va tarbiya uzviyligi, mehnat tarbiyasi.
33. G’oyaviy jarayonlar va sotsial ziddiyatlar. Tayanch iboralar: g’oyaga qarshi g’oya, sotsial ziddiyatlar, terrorizm.
34. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi. Tayanch iboralar: ijtimoiy tizim, sotsial munosabatlar, madaniy munosabatlar.
35. Amerikalik sotsiolog T.Parsons ishlab chiqqan jamiyat tarkibiy uzilishining funktsional modeli. Tayanch iboralar: institutli, texnik, oliy menedjerial.
36. XX asr sotsiologiyasidagi asosiy yo’nalishlar. Tayanch iboralar: sotsial obzorlar, motivatsiya unazariyasi, fenomenologik, antipozitiv, neofunktsionalizm, bixeviorizm, sotsial stratifikatsiya.
37. Bozor munosabatlari sharoitida shaxs ijtimoiylashuvi masalalari. Tayanch iboralar: faoliyat sub’ekti, sotsial-tipik, tabiiy va ijtimoiy jihat, biologik extiyojlar, manfaat.
38. Din va diniy munosabatlar sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: dinning sotsial mohiyati, aqidaparastlik, islom fenomenologiyasi.
39. Sotsiologik tadqiqotlarda test usuli. Tayanch iboralar: Torents testi, Noven testi, differentsial diagnostik test.

40. Sotsiologiya fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o’rni. Tayanch iboralar: sotsial falsafa, sotsial psihologiya, sotsial tizim, sotsiolingvistika, iqtisodiy sotsiologiya.
41. Sotsiologiyada shaxs tushunchasi. Tayanch iboralar: inson, individ, shaxs, sotsial-tipik, shaxs roli nazariyasi.
42. O’zbekistonning sotsial o’sishi muammolari. Tayanch iboralar: sotsial dinamika, sotsial statika, sotsial integratsiya, huquqiy dinamika, mexanik va organik birdamlik, erkinlashtirish.
43. Sotsial tabaqalashuv jarayoni. Tayanch iboralar: sotsial stratifikatsiya, sotsial mobillik, vertikal, gorizontal sotsial status.
44. Sotsiologiyada noklassik yo’nalish va uning asoschilari. Tayanch iboralar: sotsial realizm, uneopozitivizm, sotsial dalil, integratsiya, differentsiatsiya.
45. Sotsiologiya tarixida shaxs to’g’risidagi nazariyalar. Tayanch iboralar: shaxs ijtimoiy munosabat sub’ekti va ob’ekti, shaxs roli nazariyasi, shaxs dispozitsion nazariyasi.
46. Ijtimoiy guruhlar sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: sotsial birlik, publika, rasmiy, norasmiy guruhlar, referent va a’zoli guruhlar.
47. Sotsial o’sishning mintaqaviy xususiyatlari. Tayanch iboralar: mintaqa, hududiy sotsial dinamika, intergeneratsion, sotsial differentsiatsiya, reproduktiv dinamika.
48.Ijtimoiy tizimlarda amal qiluvchi qonuniyatlar. Tayanch iboralar: funktsional va rivojlanish, dinamik, statik.
49. Institutsional sotsiologiya - ijtimoiy hayotni tashkil etish sohasi sifatida. tayanch iboralar: institutsionallashuv, sotsial tashkillanish, regulyatsiya.
50. Begonalashuv va tanazzul, uning ijtimoiy oqibatlari. Tayanch iboralar: sotsial, iqtisodiy, ruhiy, retseptiv.
51. Sotsiologiyada jamiyat masalasi. Tayanch iboralar: sotsial sistema, ijtimoiy me’yor va bqadriyat, individual sifat.
52. Sotsial taraqqiyotning shakllari va yo’nalishlari. Tayanch iboralar: huquqiy, ma’naviy, ijtimoiy, siyosiy, ekstensiv, intensiv, isloxotlar, revolyutsiya, evolyutsiya.
53. Mehnat jamoalarining sotsial mazmuni. Tayanch iboralar: xamkorlik, sotsiallashtirish, xintegratsiya, plyuralizm, mehnat kodeksi.
54. Sotsial o’sish tushunchasi va uning manbalari. Tayanch iboralar: status, hududiy, ma’naviy, siyosiy.
55. O’zbekistonda sotsialistik munosabatlar. Tayanch iboralar: milliy ko’tarilish, sotsial stratifikatsiya, sotsial mobillik, intellektual taraqqiyot, milliy madaniy markaz.
56. Sotsial institutlar va ularning jamiyatdagi o’rni. Tayanch iboralar: institutsionallashuv, siyosiy tizim, iqtisodiy-sotsial, madaniy-tarbiyaviy.

57. Sotsial taraqqiyotda milliy va psihologik o’ziga xoslik. Tayanch iboralar: mexanik va organik birdamlik, sotsial dinamika, ruhiy begonalashuv.
58. Mehnat sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: mehnatni gumanizatsiyalash tendentsiyasi, mehnat xulkining motivlari va tiplari, mehnat qadriyatlari, mehnat kodeksi.
59. Xozirgi davrda oila rivojidagi sotsial xususiyatlar. Tayanch iboralar: teng huquqlilik, oilaga boshchilik qilish, sotsial ziddiyatlar.
60. SHaxs roli nazariyasida ijtimoiy mavqe masalalarining yoritilishi. Tayanch iboralar: Dj. Mid, Cx.Kuli, R.Darendorf, R.Minton.
61. Sotsial tashkilotlar va ularning turlari. Tayanch iboralar: ijtimoiy tashkilot, moddiy ishlab chiqarish jarayoni, sub’ektning xulqi va motivi, psihologiya va pozitiv mantiq.
62. AQSH sotsiologiyasida bixeviorizm metodologiyasining mohiyati. Tayanch iboralar:xulq-atvor, inson xulqini boshqarish, kuzatish va eksperiment.
63. Sotsiologiyadagi asosiy oqim va maktablar. Tayanch iboralar: pozitivistik, neopozitivistik, geografik, psihologik, bixeviorizm.
64. O’zbekistonda ekologik vaziyatning sotsial muammolari. Tayanch iboralar: ekologiya, "Ekosan", ekologik madaniyat.
65. Sotsial institutlarning asosiy yo’nalishlari. Tayanch iboralar: relyatsion, regulyativ, integrativ, an’anaviy, madaniy.
66. Sotsial munosabatlar tizimida teng huquqlilik va fikrlar xilma-xilligi. Tayanch iboralar: interpretatsiya, sotsial hayot va sotsial munosabatlar, fenomenologiya, plyuralizm.
67. Mulkchilik xilma-xilligining sotsial jihatlari. Tayanch iboralar: bandlik, stratifikatsiya, sotsial struktura, mulk shakllari, sotsial mobillik.
68. SHaxar va qishloqning sotsial demografik muammolari. Tayanch iboralar: demografiya, sotsial bmobillik, urbanizatsiya, migratsiya, bandlik.
69. O’zbekistondagi diniy tashkilotlar va konfessiyalarning sotsial mohiyati. Tayanch iboralar: etiqod erkinligi, diniy dunyoqarash, islom omili, modernizatsiya.
70. O’zbekiston Respublikasida "Oila" ilmiy-amaliy markazining faoliyati. Tayanch iboralar: Sotsial Lyacheyka, o’zaro munosabat, ijtimoiy-ma’naviy ko’mak, avlod sog’lig’i.
71. Jamoatchilik fikrining jamiyat hayotidagi roli. Tayanch iboralar: direktiv, konsultativ, ekspressiv, referendum, pozitiv, negativ, kommunikatsiya.
72. Demografik jarayonlar va jamiyatning sotsial tuzilishi. Tayanch iboralar: demos, etnos, strata, fsotsial mobillik, etnik birlik.
73. O’zbekistonda sotsiologiya fanining rivojlanishi. Tayanch iboralar: sotsiologlar Dassotsiatsiyasi, ijtimoiy fikrni o’rganish, sotsiologik tadqiqotlar.

74. Ishsizlikning sotsial kiyofasi. Tayanch iboralar: sotsial sub'ekt, bandlik muammosi, mehnat birjalari.

75. Sotsiometrik tadqiqot tushunchasi. Tayanch iboralar: kichik guruhlar tarkibi, matematik usul, sotsial gravitatsiya, sotsiodinamika.

76. Madaniyat va tsivilizatsiya tushunchalarining sotsial mohiyati. Tayanch iboralar: madaniy udaraja, madaniy ko'tarinkilik, madaniy yaqinlashuv.

77. Mahalla ijtimoiy munosabatlarning' o'ziga xos ko'rinishi sifatida. Tayanch iboralar: quyi tashkilot, ijtimoiy munosabat, o'zini-o'zi boshqarish.

78. Sotsial guruhlar tushunchasi va turlari. Tayanch iboralar: katta-kichik, rasmiy-norasmiy.

79. Sotsial mobillik tushunchasi. Tayanch iboralar: sotsial harakatchanlik, vertikal, gorizontal.

80. Sotsial status tushunchasi. Tayanch iboralar: boshlangan va egallangan mavqe, stratifikatsiya.

81. O'zbekistonda jamoatchilik fikrining rivoji. Tayanch iboralar: referendum, ijtimoiy fikrni urganish markazi, mikro muhit, kommunikatsion tizim.

82. Ishlab chikarish tashkilotlariga raxbarlik uslublarining sotsial ixatlari. Tayanch iboralar: direktiv, demokratik, passiv, motivatsion, bilvosita.

83. Ta'lim sotsiologiyasining asosiy vazifasi. Tayanch iboralar: ta'lim tizimi, samaradorlik darajasi, ta'limning demokratlashuvi.

84. Siyosiy soha sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: partiyaviylik, siyosiy faollashuv, fikrlar uxilma-xilligi, siyosiy madaniyat.

85."SHaxar sotsiologiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Tayanch iboralar: iqtisodiy o'sish, hududiy Mbirlik, madaniy-ma'naviy daraja, azaliy an'analar.

86. Turmush tarzi sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: ijodiy sog'lom turmush tarzi, faol turmush tarzi, o'rtamiyona turmush tarzi, noqonuniylik asosidagi turmush tarzi.

87. Ijtimoiy sinfiy munosabatlarning sotsial jihatlari. Tayanch iboralar: demografik, hududiy, etnik, kasbiy.

88. Klassik sotsiologiyaning asosiy vakillari. Tayanch iboralar: sotsiologiya usuli, barkamol toifa, pozitiv uslub.

89. Qishloq sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Tayanch iboralar: aholi turmush darajasi, mehnat faoliyati, madaniy-maishiy daraja, xizmat kursatish sohasi.

90. Sotsiologiyada tajriba o'tkazish usuli. Tayanch iboralar: eksperiment, matematik usul, ekspert baholash.

91. Ilm-fan sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: ilmiy javobgarlik, ilmiy faoliyat, ijtimoiy omil.

92. Oilaning asosiy funktsiyalari. Tayanch iboralar: oila sotsial institut, biologik, kommunikativ, regulyativ, emotsional, xo'jalik, reproduktiv.

93. Sotsiologiyada inson omili masalasi. Tayanch iboralar: sotsial gumanizm, ijtimoiy ximoya yo’nalishlari, inson-oliy qadriyat ekanligi.
94. Sotsial qonunlar va odamlarning sotsial faoliyati. Tayanch iboralar: strukturali-funktsionalizm ta’limoti, sotsial dinamik, sotsial statik.
95. Boshqaruv sotsiologiyasi va uning asosiy yunalishlari. Tayanch iboralar: boshqaruv jarayonlari, iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy guruhlarga raxbarlik.
96. Sotsiologiyada asosiy yo’nalishlar. Tayanch iboralar: klassik, noklassik, Marksistik, Amerika sotsiologiyasi, pozitivizm.
97. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy axamiyati. Tayanch iboralar: erkin matbuot, fikrlar xilma-xilligi, oshkoralik.
98. Nodavlat tuzilmalarining sotsial mohiyati. Tayanch iboralar: shaxs va jamiyat uygunligi, faoliyat Merkinligi, turdosh tashkilotlar.
99. XX asr AQSH sotsiologiyasining o’ziga xos xususiyatlari. Tayanch iboralar: boshqaruv sotsiologiyasi, "Xotorn" eksperimentlari, elita nazariyasi, bixeviorizm, fenomenologik sotsiologiya.
100. Jamiyat va davlatning sotsial mohiyati. Tayanch iboralar: funktsional va rivojlanish qonuniyati, ijtimoiy ierarxiya, ijtimoiy tarkib.
101. Sotsiologik qonunlar va kategoriyalar. Tayanch iboralar: sotsial statistika, sotsial dinamika, sotsial dalillar.
102. Jamiyat to’g’risidagi sotsiologik nazariyalar. Tayanch iboralar: industrial jamiyat, postindustrial jamiyat, konvergentsiya, deideologizatsiya.
103. Sotsiologiyaning asosiy funktsiyalari. Tayanch iboralar: bilish, amaliy, ijtimoiy nazorat, prognozlash, g’oyaviy, gumanistik.
104. Rasmiy va norasmiy tashkilotlarning sotsial mohiyati. Tayanch iboralar: ijtimoiy muvozanat, Mpsihologik iklim, sub’ektning xulki va motivi.
105. Sotsial tizimlar va ularning asosiy xususiyatlari. Tayanch iboralar: formatsion,madaniy, bindividual-shaxsiy.
106. Sotsiologiya uslublari va ularning asosiy shakllari. Tayanch iboralar: pozitiv, naturalizm, psihologizm, nazariy metodologik, empirik.
107. Ta’lim tizimining zamonaviy yo’nalishlari va usullari. Tayanch iboralar: ta’limni modernizatsiyalash, ta’limni demokratiyalash, iqtisodiy ta’lim.
108. Sotsial ziddiyatlar va ularni xal qilish yo’llari. Tayanch iboralar: konfliktologiya, bkompromiss, ommaviy norozilik.
109. O’zbekistonning siyosiy tizimi va uning tarkibiy tuzilishi. Tayanch iboralar:siyosiy tizim, binstitutsionlashuv, siyosiy tashkilotlar.
110. Sotsial birdamlik va uning ko’rinishlari. Tayanch iboralar: xarbiy va sanoat turi, mexanik va organik.

111. Inson, individ, shaxs tushunchalarining sotsial ta’rifi. Tayanch iboralar: yakka vakil, jamiyat a’zosi, biosotsial mavjudot.
112. Mulkiy munosabatlarning sotsial jihatlari. Tayanch iboralar: davlat, nodavlat, aralash, mulkka Megalik.
113. Sotsial-etnik munosabatlar sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: ijtimoiy etnik, etnosotsiologiya, etnos, sotsial stratifikatsiya, sotsial mobillik, demografik.
114. Ijtimoiy-sinfiy munosabatlar sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: sotsial munosabat, sinflar, kasb-korlik, tabaqalashuv.
115.Qadriyatlar tushunchasi va uning sotsial mohiyati. Tayanch iboralar: milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, urf-odatlar, milliy o’ziga xoslik.
116. Sotsial tabaqalashuv jarayonlari. Tayanch iboralar: stratifikatsiya, guruh, tabaqalar, mulkiy munosabatlar.
117. SHaxs sotsiallashuvi va tarbiya jarayoni. Tayanch iboralar: inson, individ, shaxs, sotsial-tipik, ijtimoiy mavqe, shaxs faoliyati.
118. Bo’sh vaqtdan foydalanishning sotsial muammolari. Tayanch iboralar: sotsial tadbirlar, bo’sh vaqt mazmuni, deviantlik.
119. Ta’lim tizimi - sotsial institut sifatida. Tayanch iboralar: ta’lim tizimi, sotsial mobillik, intellektual meros, ta’limning demokratiyalashuvi.
120. Jamoatchilik fikrining funktsiyalari. Tayanch iboralar: direktiv, konsultativ, ekspressiv, manipulyatsiya, dezinformatsiya.
121. Ijtimoiy boshqaruvning xozirgi shakli. Tayanch iboralar: boshqaruv, bashorat qilish, taxmin, tahlil, tashkiliy nazorat, hisobga olish, natijaviy axborot.
122. SHarq mutafakkirlarining ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy jamoalarga bergan bahosi. Tayanch iboralar: "Avesto"da me’yorlar, konfutsiychilik, murosaviy muvozanat, jamoaviylik, tabaqalashuv, abadiylik.
123. Yempirik tadqiqotlarda hujjatlarni o’rganish metodi. Tayanch iboralar: statistik, avtobiografik, kontent analiz, sotsial demografik.
124. "Sog’lom avlod" davlat dasturi va uning asosiy yo’nalishlari. Tayanch iboralar: Oilaviy hayot, onalik, salomatlik, balogatlilik, nosog’lom muhit, nogiron.
125. Iqtisod sotsiologiyasi sotsiologiyadagi o’ziga xos yo’nalish sifatida. Tayanch iboralar: tamoyillar, ishlab chiqarish samarasi, inson omili, mehnatga munosabat.
126. Yoshlar sotsiologiyasining tasnifiy belgilari. Tayanch iboralar: tarbiya, mutaqil fikrlash, komillik, yoshlar ijtimoiy harakati.
127. Mahalla sub’ekti, uning kurinishlari va mahalla demokratiyasi. Tayanch iboralar: mahalla, huquqiy asos, maxalliy boshqaruv, ijtimoiy munosabatlar.
128. Sotsiologik tadqiqotlarda intervyu va prognoz usullari, ularning o’ziga xos xususiyatlari. Tayanch iboralar: so’rov, erkin, standartlashgan, sotsiometrik, prognoz, texnologik, demografik.

129. Ijtimoiy me’yor va me’yordan chekinishlarning sotsial jihatlari. Tayanch iboralar: ijtimoiy me’yor, Mjinoyatchilik, anomaliya, muammoli vaziyat, ijtimoiy nazorat.
130. Fan sotsiologiyasining ilmiy tizimdagi o’rni. Tayanch iboralar: fan sotsiologiyasi, xodimlarni baholash nizomi, fundamental, ijtimoiy, amaliy fan, ta’minot, masala.
131. Antik dunyo sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: Sukrot, Platon, Aristotel, Konfutsiy, demokratiya, davlat, shaxs.
132. Ijtimoiy munosabatlar sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: ijtimoiy birdamlik, begonalashuv, milliy g’oya va tafakkur.
133. Sotsiologik tadqiqot natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish. Tayanch iboralar: empirik, material, tahlil, umumlashtirish, ilmiy hisobot tarkibi.
134. Din siyosatlashuv jarayonlarining sotsial mohiyati. Tayanch iboralar: olamiy dunyo, usuli u qadimiy, aqidaparastlik, fuqarolik dinlari, komillik, Islom ma’naviyati.
135.Yoshlar sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: yoshlar sotsiologiyasi, komillik, yoshlar tarbiyasi, mutaqil fikrlash, yoshlar ijtimoiy harakati.
136. Ijtimoiy faoliyat sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: mehnat sotsiologiyasi, sport sotsiologiyasi, qiziqishlar sotsiologiyasi.
137. Iqtisod sotsiologiyasida ish haqi va mehnat natijalari. Tayanch iboralar: iqtisodiy sotsiologiya, ishlab chiqarish samarasi, inson omili, iqtisodiyotning ijtimoiylashuvi.
138. Milliy mafkura sotsial munosabatlarning muxim tarkibiy qismi. Tayanch iboralar: ijtimoiy birdamlik, inson ongi va qalbi uchun kurash, mafkuraviy bo’shliq, immunitet.
139. Axloq sotsiologiyasi. Tayanch iboralar: axloq, totemizm, axloqiy qarashlar, ma’naviyat va axloq, ma’rifat, tarbiya, ta’lim.
140. Konkret sotsiologik tadqiqotlarning turlari. Tayanch iboralar: dastlabki sinov, analitik, takroriy, tavsiflovchi tadqiqot
141. Sotsiologik oqimlar va uning asosiy ko’rinishlari. Tayanch iboralar: pozitivistik, antropologik, geografik, sotsial darvinizm, psihologizm, nazariy metodologik, empirik, bixeviorizm.
142. Ta’lim tizimining zamonaviy yo’nalishlari va usullari. Tayanch iboralar: yagona, uzluksiz, bakalavr, magistratura, marketing, menejment, boshqaruv.
143. Sotsiologiyada axborot to’plash usuli. Tayanch iboralar: metod, gipoteza, kuzatish, hujjatlarni o’rganish, pilotaj, anketa, intervyu.

144. O'zbekistonning siyosiy tizimi va uning tarkibiy tuzilishi. Tayanch iboralar: tashkiliy tizim, davlat, siyosiy partiyalar, siyosiy faoliyatni shakllantiruvchi ijtimoiy-siyosiy institutlar majmuasi.
145. Sotsial birdamlik va uning ko'rinishlari. Tayanch iboralar: xamkorlik, jipslashuv, xarbiy sanoat, mexanik.
146. Siyosiy munosabatlarning vujudga kelish sharoitlari. Tayanch iboralar: davlat, tabaqa, siyosiy partiyalar, ijtimoiy munosabatlar.
147. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning sotsial mohiyati. Tayanch iboralar: e'tiqod erkinligi, xurfikrlilik, shaxs ma'naviyati.
148. Inson, individ, shaxs tushunchalarining sotsial ta'rifi. Tayanch iboralar: yakka vakil, jamiyat a'zosi, biosotsial mavjudot.
149. XX asr Amerika sotsiologiyasi vakillari. Tayanch iboralar: Ye.Meyo, A.Maslou, D.Makgregor, F.Xertsberg.
150. Madaniyatning asosiy shakllari. Tayanch iboralar: elitar, xalq, ommaviy.

## Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

### Asosiy adabiyotlar:


1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston. 2011.
2. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-18 jildlar. T. O'zbekiston. 1996- 2010.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.-Ma'naviyat. 2008.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. T. - O'zbekiston. 2010.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. - O'zbekiston. 2011.
6. Prezident Islom Karimovning «Zamonaviy uy-joy kurilishi-qishloq joylarini kompleks rivojlantirish va kiyofasini o'zgartirish hamda aqoli hayotinining sifatini yaxshilash omili» mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqi// Xalq so'zi, 2013 yil 17 aprel
7. Karimov A.I. Tinchlik va osoyishtalik-barcha yutuk va marralarimizning asosidir. Xalq so'zi, 2013 yil 09-may № 91 (5765)
8. Karimov I.A. "Yuqsak bilim va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash-mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muqim sharti" mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqG`G` Xalq so'zi, 2012 yil 18 fevral
9. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chukurlashtirish va fukarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi/ T O'zbekiston, 2010-56 b.

Darslik va o’quv qo’llanmalar:

1. Aliev B., Rafiqov G’., Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshqalar. Sotsiologiya. (O’quv qo’llanma). -Toshkent: TDYuI nashriyoti. 2006.
2. Sotsiologiya //O’quv qo’llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. -Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002.
3. Sotsiologiya. Ma’ruzalar kursi. Aliqoriev N.S, Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B., va boshq. - Toshkent, 2001
4. Umumiy sotsiologiya. (Aliqoriev N.S va Ubaydullaeva R.T tahriri ostida) -Toshkent: 1999.

Qo’shimcha adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993.
2. Вебер М. Избранные произведения. – М.: Прогресс, 1990.
3. Ганиева М.Х. Этносоциология. Учебное пособие для вуз. Высших учебных заведений. – Ташкент: Университет, 2006.
4. Ганиева М.Х. Введение в социальную работу. –Ташкент., 2011. 98 с.
5. Гараджа. В.И. Социология религии. – М., 2005.
6. Giddens E. Sotsiologiya. – Toshkent, 2002
7. Кравченко А.И. Социология. – М., 2006.
8. Латипова Н.М. Политическая соцциология. Методическое пособие. – Ташкент., 2010.
9. Современная западная социология. Словарь . – М.: Прогресс, 1990.
10. Социология религии. В.И.Гараджа. – М., 2005.
11. Социология //Учебное пособие. Под редак. д.ф.н. Мухамедовой З.М., – Ташкент: Сан]ат, 2010
12. Qodirov A.Q. Sotsiologiya. –Toshkent, 2006.
13. Saitxodjayiv H.B. Sotsiologiya. Ma`ruzalar kursi. –Toshkent: Akademiya, 2008.
14. Holbekov A.J., Idirov U.Yu. Sotsiologiya: izohli lugat-mahlumotnoma. – Toshkent: Ibn-Sino nomidagi nashriyot, 1999.
15. Holbekov. A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi (o’quv qo’llanma). –Toshkent: Akademiya, 2007.
16. Ubaydullaeva R.A., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O’quv-uslubiy qo’llanma). –Toshkent.: «Ijtimoiy fikr», 2001.
17. Farfiev B.A., Nurullaeva U.N. Sotsiologiya tarixi. (Uslubiy qo’llanma). Toshkent: Universitet, 2009.
18. Бекмурадов М.Б. Роль общественного мнения в социально- культурном развитии общества: Дис. док.социол.наук. – Ташкент, 1997.
19. Farfiev B.A. O’zbekistonda jamiyatni demokratilashtirish jarayonida tafakkur tarzini takomillashtirishning ijtimoiy mahdaniy xususiyatlari: Dis....sotsiol. fan.nom. – Toshkent:, 1999.
20. Kalonov K.K. O’zbekiston o’zini o’zi boshqaruv tizimi dinamikasi tahlil qilishda avtoritetning tutgan o’rni: Dis....sotsiol. fan.nom. – Toshkent, 2000.

21. Yunusov A.B. O’smir yoshlarda ijtimoiy deviantlik holatlarining sotsiologik xususiyatlari: Dis....sotsiol. fan.nom. – Toshkent: O’zMU, 2004.
22. Norbekov A.SH. O’zbekistonda ijtimoiy kafolat tizimini yaratish muammolari: siyosiy-sotsiologik tahlil. Dis....sotsiol. fan.nom. – Toshkent, 2004.
23. Латипова Н.М. Роль молодых специалистов в трансформации социальной структуры узбекистанского общества: Дис….канд.социол.наук. – Ташкент, 2009.
24. Ганиева М.Х. Общественное мнение как фактор развития межнациональных отношений: Дис….док.социол.наук. – Ташкент. – Ташкент. 2009

Elektron ta’lim resurslari:

1. http: www.lib.socio.msu.ru
2. http: www.socioline.ru
3. http: www.socio.rin.ru
4. http: www.sociologos.narod.ru
5. http: www.socionet.narod.ru
6. http: www.sociograd.ru